

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO OZIQ-OVQAT VA ENGIL SANOAT
TEXNOLOGIYASI INSTITUTI

«MARKETING» KAFEDRASI

"XORIJIY INVESTITSİYALAR"
fanidan
O'QUV QO'LLANMA

“Durdona”
nashriyoti - 2011

Tuzuvchi: Buxoro OO va ESTI «Marketing» kafedrası dotsenti, i.f.n. Mo'minov X.I.

Taqrizchilar : Buxoro OO va ESTI «Menejment kafedrası» dotsenti, i.f.n. Ulashov X.A.
Buxoro davlat universiteti "Turizm servisi"
kafedrası mudiri, i.f.n., dotsent Hamroev H.R.

O'quv qo'llanma «Marketing» kafedrasining 09.12.2010 yil №4 yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Institut uslubiy kengashining 20.01.2011 yil №4 yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

O'zbekiston iqtisodiyoti o'sishini jadallashtirishda hal qiluvchi asosiy omillardan biri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisoblanadi. O'quv qo'llanmada investitsiya, investitsiya faoliyati, chet el investitsiyalarining mazmuni bayon qilingan bo'lib, xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish usullari, mamlakatda xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va investitsiyalarni jalb qilish uchun yaratiladigan investitsiya muhiti, investitsiya samaradorligi va uni hisoblash usullari batafsil ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, ushbu qo'llanmada «Xorijiy investitsiya» fanining nazariy va amaliy yo'nalishlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning yangi qirralarini o'rganib chiqish, investitsiya samaradorligini aniqlash va oshirish omillari yoritilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining bakalavr bosqichida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Mundarija:

1.	Kirish.....	4
2.	Xorijiy investitsiyalar haqida tushuncha va uning mohiyati.....	5
3.	Xorijiy investitsiyalarning shakl va turlari.....	19
4.	Globalashuv hamda iqtisodiy integratsiyallashuvning kuchayib borishida investitsiya jarayonlari.....	34
5.	Xorijiy investorlar huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari.	52
6.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy - uslubiy asoslari	63
7.	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari.....	80
8.	O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni xorijiy investitsiyalar yordamida rivojlantirish masalalari.....	103
9.	Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash va tavakkalchilik.....	123
10.	Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash...	142
11.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish.....	156
12.	Izohli lug'at.....	172
13.	Test savollari:.....	174

Kirish

XXI asrning dastlabki yillari iqtisodiyotning globalizatsiyalashuvi jarayonlari bilan o'ziga xos davr hisoblanadi. Mamlakatda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, aholining turmush farovonligini oshirib borish jahon bozoriga chiqish, uning ustunliklaridan foydalanishni talab qiladi. Jahon bozorida amal qilish va xalqaro iqtisodiy munosabatlarni muvaffaqiyatli olib borish, ichki va tashqi bozorda milliy tovarlar raqobatbardoshligini oshirish uchun turli ko'rinishlardagi xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Makroiqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri milliy iqtisodiyotda investitsiyalarning samarali joylashtirilishidir. Investitsiyalarning yuqori samara keltirishi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyot jarayonida xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Iqtisodiy taraqqiyotning jadallashtirish milliy iqtisodiyotga yuqori samara keltiradigan investitsiyalarning joriy qilinishiga chambarchas bog'liq.

Mikroko'lamda ham xorijiy investitsiyalarning o'rni beqiyos ekanligini anglash qiyin emas, korxonaning ishlab chiqarish jarayoniga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinganligi ushbu korxonaning milliy va jahon bozorlarida samarali amal qilishining asosiy omili bo'lib hisoblanadi. Hozirgi tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanib borayotgan erkin iqtisodiyot sharoitida korxonalar xorijiy investitsiyalar yordamida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarib yuqori samaradorlikda faoliyat ko'rsatishlari mumkin.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar moliya bozorining ham samarali ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy investorlarning portfel investitsiyalar shaklida milliy iqtisodiyotga sarmoya kiritishlari mamlakatga ishlab chiqarishni rivojlanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan kredit, qimmatli qog'ozlarni sotib olish natijasida ishlab chiqarishni mablag' bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi.

Hozirgi vaqtda xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotda jalb qilish jarayonini jadallashtirish asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning miqdorini keskin oshirib borish va ulardan yuqori samaradorlikda foydalanish iqtisodiyotni yuksaltirishda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

1-mavzu: Xorijiy investitsiyalar haqida tushuncha va uning mohiyati.

Reja:

1. Xorijiy investitsiyalarning mohiyati va mazmuni.
2. Xorijiy investitsiyalar va ularni jalb qilinish sabablari.
3. Xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar.
4. Investitsiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlash.

1. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni.

Mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, korxonalar faoliyati barqarorligini ta'minlash va aholi turmush farovonligini oshirib borishning asosiy omillaridan biri investitsiya faoliyatini rivojlantirib borish hisoblanadi. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va rivojlantirib borish uchun investitsiya tushunchasining mohiyatini chuqur tushunish, uning ko'rinishlari va bu faoliyatga bog'liq bo'lgan asosiy tushunchalar mazmunini anglab olish zarur.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimiz iqtisodchi olimlari investitsiyalarga qo'yidagi ta'rifni berishgan: "Investitsiya nemis tilidagi "investition" va lotin tilidagi "investere" so'zlaridan olingan bo'lib, lug'aviy "kiyintirmoq" ma'nosini anglatadi. Bu tushuncha mazmuni ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish) ni anglatadi¹".

Mamlakatimiz qonunchiligida "investitsiyalar-iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar" deb ko'rsatilgan².

Investitsiya deganda investorlarning foyda olish, shaxsiy maqsadlari va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish uchun iqtisodiyotning turli sohalarida tadbirkorlik va boshqa faoliyat ko'rinishlaridagi ob'ektlarga kapital qo'yish shaklida sarflaydigan jami xarajatlar yig'indisi tushuniladi³.

Umuman, investitsiya investorlarning ijobiy samaraga erishish uchun milliy iqtisodiyot yoki xorijda tadbirkorlik faoliyatidagi ob'ektlarga kiritadigan moddiy va intellektual boyliklari hisoblanadi.

Investitsiyalarni kapital qo'yilmalardan farqlay olish zarur. Sobiq Ittifoq davrida kapital qo'yish asosiy tushuncha bo'lib, asosiy vositalarga qiymatini oshirish shaklida yuzaga kelgan.

Investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi,

¹ A. O'lmasov, N. To'xlied "Bozor iqtisodiyoti" T. Qomuslar bosh tahririyati, 1991 yil, 41-bet.

² O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni 24.12. 1998 yil 2-modda.

³ G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006, str. 7.

hamda o'zidagi yangi kurilishlariga, kengaytirishga, rekonstruktsiyaga va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik kayta jixozlashga, uskunalar, inventarlar, loyixaviy maxsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy fanlar va amaliyot «investitsiya» va «kapital qo'yilma» terminlarini bir xil tushuncha emasligini, ya'ni sinonim so'zlar emasligini ta'kidlaydi. Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan keng mazmunli, kamrovli tushunchadir. G'arb adabiyotlarida investitsiyalar borasida so'z yuritilganda asosiy e'tibor fond bozoriga karatiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar asosan kimmatli kog'ozlar yordamida amalga oshiriladi.

Demak, investitsiyalar kapital qo'yilmalar bilan birgalikda, moliyaviy investitsiyalarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

U. Sharp investitsiyalarga kuyidagicha ta'rif beradi: «Real investitsiyalar asosan moddiy aktivlarga (er, uskunalar, zavodlar) kilingan investitsiyalardir. Moliyaviy investitsiyalar bu kog'ozda bitilgan shartnomalardir. Bularga oddiy aktsiyalar va obligatsiyalar kiradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning asosiy kismi real investitsiyalarga tegishlidir. Rivojlangan iqtisodiyotda esa investitsiyalarning asosiy kismi moliyaviy investitsiyalash institutlarining keng miqyosida rivojlanishi real investitsiyalarning o'sishiga sababchi bo'ladi. Investitsiyalarning bu ikki shakli bir-biri bilan rakobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchidir».⁴

Investitsiya tushunchasi yagona va to'liq tushuncha berishlik uchun anchagina keng bo'lib xisoblanadi. Iqtisodiy fanning turli kismlarida va amaliy faoliyatning turli sohalarida investitsiya mazmuni o'zining xususiyatlariga ega.

Makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chikarishda yangi vositalarga, turar-joylarga investitsiyalar va moddiy zaxiralarining o'sishiga kilinadigan xarajatlardan tashkil topadigan yalpi xarajatlarning bir kismi xisoblanadi. Investitsiyalar – bu joriy davrda iste'mol kilinmagan va iqtisodiyotda kapital o'sishini ta'minlovchi YAIM ning bir kismidir.

Lorens Dj. Gitman va Maykl D. Djonkning «Investitsiyalash asoslari» (M. «Delo» nashriyoti-1997) kitobida investitsiyalarga kuyidagicha ta'rif beriladi: Investitsiya moliyaviy natijalar olishni ko'zlab aktsiya va obligatsiyalarni sotib olishni anglatadi: bular real aktivlarni belgilaydi, masalan, u yoki bu tovarni ishlab chikarish va

⁴ Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl.- M.: INFRA- M, 1997. – 1 bet

sotish uchun mashinalarni olishni nazarda tutadi. Umuman keng ma'noda investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini o'stirish va rivojlantirishni moliyalashtirish uchun zarur bo'ladigan mexanizmlarni ta'minlaydi.

Ma'lumki, «investitsiyalar» tushunchasi iqtisodiyot uchun yangi emas. Bugungi kunda «investitsiyalar» tushunchasining ma'nosini anglash, uning mohiyatini to'g'ri taxlil qilish muxim ahamiyatga ega. Sobik iqtisodiy tuzum davrlarida investitsiyalar tushunchasi ko'prok kapital qo'yilmalar bilan bog'lanib, kapital kurilishlar, kapital ta'mirlashlar va ilmiy-texnika tarakkiyoti uchun sarflanadigan kapital qo'yilmalarini anglatar edi va bu qo'yilmalar asosan markazlashgan fondlar va davlat byudjetidan yuqori davlat idoralari tasdiklagan rejalar asosida ajratilar edi.

Investitsiya bilan bog'liq bo'lgan bir qator tushunchalarning mazmunini chuqur tushunib olish zarur.

Investor-o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb qilingan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, Shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi yatsichsukainvestitsiya faoliyati sub'ekti. Investorlar mahalliy hamda chet fuqarolari va korxonalari bo'lishi mumkin.

Investitsiya faoliyati – investorlarning investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui hisoblanadi. Bunday harakatlarga investorlarning xorijiy sheriklar bilan kelishuvlari, qo'shma korxonalar ochish va uning faoliyatini rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi jarayonlari va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi deganda investorning buyurtmalarni bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati sub'ekti tushuniladi. Ular investorlarning ko'rsatmalarini o'z mamlakatlari va xorijda amalga oshirishini ta'minlaydilar.

Investitsiya faoliyati ob'ektlari – moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish ob'ektlaridir. Bunday ob'ektlarga ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va insoniy resurslar kiradi. Investitsiyalar asosiy vositalar bilan birgalikda, aylanma mablag'lar va inson omiliga ham kiritilishi mumkin. Inson omiliga investitsiyalar investorlar tomonidan xodimlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishga sarflaydigan pul mablag'lari bo'lishi mumkin.

Investitsiya faoliyati bilan bog'liq tushunchalardan yana biri reinvestitsiya hisoblanadi. Bu tushuncha tadbirkorlik faoliyatiga investitsiya kiritilgandan so'ng olingan foydani ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida muomalaga kiritish hisoblanadi.

Investitsiyalar investitsiya faoliyatining sub'ektlariga ko'ra xorijiy (chet el) va mahalliy investitsiyalarga ajratiladi.

Investitsiya faoliyatining sub'ektlari mamlakatimiz qonunchiligida batafsil yoritilgan⁵.

Qo'yidagilar investitsiya faoliyatining sub'ektlari bo'lishlari mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari-fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari;

- Mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari;

- Xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, Shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;

- Hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, Shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Buyurtmachilar - investorlar tomonidan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun vakil etilgan yuridik va jismoniy shaxslar. Shu bilan birga, ular investitsiya faoliyati sub'ektlarining tadbirkorlik faoliyatiga aralashmaydilar. Buyurtmachilar rolda investorlarning o'zlari ham namoyon bo'lishlari mumkin. Investorlar bo'lmagan buyurtmachilar esa shartnomada belgilangan tartibda va davrda kapital quyilmalarga egalik qilish, foydalanish va tassaruf etish huquqiga ega bo'ladilar.

Pudratchilar - yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar. Pudratchilar qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lishlari kerak. qurilish faoliyatini litsenziyalash qurilish mahsulotlari iste'molchilarini huquqlarini himoyalash maqsadida amalga oshiriladi.

Kapital quyilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar - bular yuridik va jismoniy shaxslar, hamda davlat organlari, mahalliy hokimiyat, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bo'lib, ushbu ob'ektlar ular uchun yaratiladi.

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni 24.12. 1998 yil 7-modda.

Investorlar kapital quyilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar rovida namoyon bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyati sub'ekti uning ikki va undan ortiq funktsiyalarini bo'lib olib borish imkoniyatini beradi. Investitsiya faoliyati sub'ektlari davlat organlari tomonidan qo'yilgan talablarni bajarishi, hamda maqsadli ravishda kapital qo'yilmalardan foydalanishi zarur.

2. Xorijiy investitsiyalar va ularni jalb qilinish sabablari

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yunaltirilgan har qanday shakldagi mulkni to'la qonli xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixona chet davlat mulki xisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa, bu xorijiy shaxs mulki xisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

«Chet el investitsiyalari» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan qonunining 3- moddasida «Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir xuquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir xuquqlar, Shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi».⁶

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi.

Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda katnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatbaxo qog'ozlarni sotib olishi, er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish xuquqiga ega bo'lishda, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan kurollanish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini

⁶ Uzbekistonning yangi qonunlari. 19-son,-T.: Adolat, 1998. 532-bet.

tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarish zamonaviy, raqobatdoshlar tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boradi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning hal bo'lishiga olib keladi.

Mamlakatda xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab berish maqsadida 30.04.1998 yil O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning 3-moddasida chet el investitsiyalari tushunchasi qo'yidagicha ko'rsatib berilgan⁷: «Chet el investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, Shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi».

Demak, chet el investorlarini daromad olish maqsadida tadbirkorlik va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyatga qo'shadigan moddiy va nomoddiy boyliklari chet el investitsiyalari deb aytish mumkin. Bu erda chet el investorlarini mazmunini chuqurroq anglab olish muhim hisoblanadi. Ushbu qonunning 4-moddasida chet el investorlari yanada batafsil ajratib ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;
- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub'ektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;
- chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;
- chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari⁸.

⁷ O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonuni 30.04.1998 yil 3-modda.

⁸ O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonuni 30.04.1998 yil 4-modda.

Qonunda ko'rsatilishicha, xorijiy davlatlar yoki ularning ma'muriy va hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar va O'zbekiston Respublikasining xorijda doimiy yashaydigan fuqarolari mamlakat hududida tadbirkorlik va qonunda ta'qiqlanmagan boshqa faoliyatga investitsiya kiritishlari mumkin va bu faoliyatni amalga oshirishsa ularni chet el investorlari deb atash mumkin.

3. Xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar.

Ma'lumki, har qanday mamlakatda investitsiya faoliyati, birinchi navbatda, siyosiy barqarorlikka bog'liq. Xuddi shu omil investorning o'z faoliyatini tosh taroziga solish, bir laxzalik nafni emas, uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. O'zbekistondagi asosiy investitsiya muhitining xususiyati ham shuki, Respublika markaziy osiyo mintaqasidagi barqaror mamlakat хисобланади.

Xorijiy investitsiyalar miqdoriga, asosan, ikki guruh omillari ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyaga ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga bo'linadi:

1. Iqtisodiy omillar;

2. Siyosiy omillar.

1) iqtisodiy omillar:

-ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;

-jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagii chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);

-ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;

-jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini o'sib borishi (AQSH transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining maxsulot ishlab chiqarish hajmi AQSH tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);

-ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

-xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.

2) siyosiy omillar:

-kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy

hududlar (EIX), offshor hududlari va boshqalar);

-rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;

-iqtisodiy isloxlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

-bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

Keyingi vaqtlarda chet ellik investorlar uchun yaratilgan imtiyozlar va raqobatlar tizimi investitsiya muhitining muhim omiliga aylanib bormoqda.

Investitsiyalarning o'sish sur'atlari ko'p omillarga bog'liq. Avvalambor, investitsiyalar hajmi olingan daromadni iste'mol va jamg'armaga taksimlanishiga bog'liq. Aholini o'rtacha daromadi past bo'lgan xolda ularning asosiy kismi (70-80%) iste'molga sarflanadi. Aholi daromadlarini o'sib borishi jamg'arishga yuboriladigan kismni ortib borishiga sabab bo'ladi. Umumiy daromadda jamg'arish ulushining ortib borishi investitsiyalar hajmini o'sishiga olib keladi, va aksincha. Ammo bu shart aholini davlatga ishonchi yuqori bo'lganda, davlat fuqarolarning investitsion faolligini ta'minlaganda va kafolatlaganda bajariladi.

Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromad normasi ham ta'sir ko'rsatadi, chunki ko'rilayotgan foyda investitsiyalashga undaydi. Kutilayotgan foyda normasi kanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalash hajmi shunchalik yuqori bo'ladi, va aksincha.

Investitsiyalar hajmiga ssuda foizi stavkasi katta ta'sir ko'rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida karzga olingan mablag'laridan ham foydalaniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi o'rtacha ssuda foizi stavkasidan yuqori bo'lsa bu qo'yilmalar investor uchun daromadlidir. Shuning uchun o'rtacha foiz stavkasini o'sishi investitsiyalash jarayonini susayishiga olib keladi.

Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan inflyatsiya sur'atlari ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu ko'rsatkich kanchalik yuqori bo'lsa, investorning kelajakdagi foydasi shunchalik kadrsizlanadi va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar qisqarib boradi.

Valyuta kursining tebranishlari, ko'pincha, import va eksport oqimlarida noxush samaralarga olib keladi, chunki bo'lg'usi foydalar va xarajatlarga nisbatan noaniqlikni keltirib chiqaradi. Valyuta kursining kutilmagan o'zgarishlari tovarlarni sotib olish yoki etkazib berishga doir

rejalarni o'zgartirib yuborishi mumkin. Valyuta kurslarining tebranishlari davlatning tashqi savdosiga noaniqlik kiritadi, natijada shakllangan savdo-almashtirish bitimlari tamoyilini buzadi, ish faolligini sustlashtiradi.

Valyuta kursining bir yoqlama tebranishlari savdo va to'lov balansini beqarorlashtiradi. Mamlakat valyutasining almashtirish kursini uzoq muddatda pasayib borishi yoki uning devalvatsiyasida tovarlar importi borgan sari qimmatlashib boradi va mablag' bilan ta'minlanishi uchun eksportni ko'chaytirishni talab qiladi.

To'lov balansidagi uzoq davom etadigan nomaqbul tamoyillar sharoitida valyuta kursini o'zgartirmay tutib turishda oltin-valyuta zahiralarining zaiflashishi xavfi tug'iladi. Shuning uchun ko'pchilik milliy valyuta tizimlari uning «aralash» yoki tartibga solinadigan toifasini tavsiya qiladi. Hukumat va markaziy bank o'z valyutalari kursini qat'iy belgilamay, ularning talab va taklifning erkin ta'siriga uchrashiga imkon beradi.

Iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati asosan xorijiy sarmoniya jalb qilishga bog'liq bo'lsa ham, sarmoyalar harakati bo'yicha erkin ayirboshlash qobiliyatini joriy etayotgan mamlakatga sarmoyalarning «qochishi» xavfi tahdid qiladi. Suzuvchi valyuta kursi mavjud tizimlarda sarmoyalarning chetga chiqib ketishi milliy valyutaning almashinuv kursini ancha pasaytirib yuboradi. Valyuta kursi belgilangan mamlakatlarda sarmoyalarning chetga chiqib ketishi chet el valyutasini rezervlarini yo'qotish ehtimolini, valyuta kursi va ichki stavka foizlari dinamikasining barqarorlashuvini, pul massasining ko'payib-kamayishini keltirib chiqaradi va shu tariqa makroiqtisodiy barqarorlikka erishishni ancha qiyinlashtiradi.

Demak, valyuta kursi ham chet el investitsiyalari harakatiga yuqori darajada ta'sir qiladi. Milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qadrsizlanishi (devalvatsiya) chet el investitsiyalarining mamlakatga kirib kelishini kuchaytiradi va mahalliy tadbirkorlarning xorijdagi investitsiya faoliyatini kamayishiga sabab bo'ladi. Buning teskari vaziyati ya'ni milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan qadrining oshishi (revalvatsiya) chet el investitsiyalarining milliy iqtisodiyotga kirib kelishini kamaytiradi va mahalliy tadbirkorlarning xorijdagi investitsiya faoliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar moliyaviy imtiyozlarga ko'proq e'tibor bersalar, rivojlanayotgan mamlakatlar fiskal, xazina byudjetni

to'ldirish imtiyozlariga e'tibor bermoqdalar. Fiskal imtiyozlarga qo'yidagilar kiradi:

- soliq ta'tillari (korxona ma'lum muddatda soliq to'lashdan ozod bo'ladi).
- daromad(foйда) solig'i stavkasini kamaytirish.
- import bojlaridan ozod qilish.
- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish bo'yicha maxsus imtiyozlar.
- qayta investitsiya bo'yicha imtiyozlar.
- ijtimoiy dasturlar uchun imtiyozlar.

Rivojlangan mamlakatlar qo'llaydigan moliyaviy imtiyozlarga hukumat grantlari, subsidiyalanadigan qarzlar, qarzlarni kafolatlash kiradi. moliyaviy imtiyozlar ham fiskal imtiyozlar kabi u yoki bu mamlakat sanoati yoki mintaqaviy rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

Investorlarga fiskal va moliyaviy imtiyozlardan tashqari boshqa imtiyozlar ham beriladi. Bularga tovar ishlab chiqaruvchilarni importerlardan himoya qilish, chet eldan olinadigan daromadlarini konvertatsiyalash va undan foydalanishda imtiyozlar berish.

Investitsiya muhitining muhim omillaridan biri muassasaviy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, ya'ni chet el investitsiyalariga ko'maklashadigan muassasalar, tashkilotlarning bo'lishi. Mamlakatimizdagi va chet ellardagi ishbilarmon doiralar o'rtasida mustahkam amaliy aloqalarni o'rnatishda, O'zbekistonlik kompaniyalarning jahon bozoriga ko'maklashishda tashkil etilgan tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi muhim rol uynaydi.

4. Investitsiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlash.

Milliy iqtisodiyotda sodir bo'ladigan investitsiya jarayonlarining moliyaviy manbai milliy daromad bo'lib hisoblanadi. Milliy daromad yalpi ichki mahsulotdan sarflangan mehnat predmeti va vositalarining ayirib tashlangandan so'ng qoladigan qoldiq hisoblanadi. Sarflangan mehnat predmetlari mahsulot tarkibiga kiradigan xom-ashyo, materiallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va yarim fabrikatlar bo'lsa, sarflangan mehnat vositalari mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan asosiy vositalarning bir qismi sifatida amortizatsiya ajratmasi ko'rinishida hosil bo'ladi.

Sarflanishi bo'yicha milliy daromad ikki qismga ajraladi; birinchi

qism ish haqi fondi, ijtimoiy sug'urta, pensiya, nafaqalar fondi, ilm-fan, san'at, sog'liqni saqlash, ta'limga xarajatlar, davlat boshqaruvi va harbiy xarajatlarni o'z ichiga oladigan milliy daromadning iste'mol qismi deb nomlanadi. Milliy daromadning ikkinchi, jamg'arma qismi takror ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladigan investitsiyalar, jamiyat zahirasi fondi hamda tabiiy va boshqa zararlarni qoplaydigan sug'urta fondi.

Investitsiya faoliyatini moliyalash mulkchilik shakliga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- davlatning investitsiya faoliyati;
- xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari va boshqa turdagi davlatga qarashli bo'lmagan korxonalarning investitsiya faoliyati;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan aholining tadbirkorlik faoliyati.

Investitsiya faoliyati yuqorida ko'rsatilgan sub'ektlar tomonidan turlicha miqdorda amalga oshiriladi. Masalan, 2009 yilda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 12531,9 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiya kiritilgan bo'lib, shundan byudjet mablag'lari hisobidan 1019,5 mlrd so'm, nobyudjet jamg'armalar tomonidan 927,8 investitsiya qilingan.

Davlat byudjeti va nobyudjet jamg'armalar tomonidan asosiy kapitalga investitsiya jami mamlakatdagi ushbu ko'rsatkich miqdorining 15,5 foizini tashkil qiladi. Bundan ko'rinmoqdaki, investitsiya faoliyatining asosiy qismi (jami asosiy kapitalga investitsiyaning 84,5 foizi) mahalliy hamda chet el korxonalari va aholi mablag'lari tomonidan amalga oshirilgan. Shu yili mahalliy korxonalar tomonidan 4550,0 mlrd sum (jami mamlakatdagi investitsiyaning 36,3 foizi), mahalliy aholi mablag'lari hisobidan 1325,0 mlrd so'm (jami mamlakatdagi investitsiyaning 10,6 foizi) asosiy kapitalga investitsiya kiritilgan.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya faoliyatining moliyaviy manbai respublika davlat byudjeti va mahalliy byudjetning daromadlar qismi hisoblanadi. Shuningdek, hukumat investitsiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlash uchun davlat zayomlarini chiqarishi mumkin.

Korxonalar tomonidan investitsiya faoliyatining moliyaviy manbai turlicha bo'lib, ularni yirik ikki guruhga ajratishimiz mumkin:

1. O'z moliyaviy mablag'lari;
2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar.

Korxona investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun sarflaydigan

o'z mablag'lari quyidagilar bo'lishi mumkin:

–Korxona foydasi, bu mablag' takror ishlab chiqarishni kengaytirish va davom ettirish uchun asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

–Korxonalarning maxsus fondlardagi mablag'lari, korxona ishlab chiqarish davri yakuni bo'yicha olingan daromadning ma'lum bir qismi quyidagi maqsadli fondlarga yo'naltirilishi mumkin:

▪ Ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi, bu fond orqali kapital qo'yish, qayta texnik qurollanish, korxona, uning tsexlari va bo'limlarini kengaytirish hamda rekonstruktsiya qilish;

▪ Fan va texnikani rivojlantirish fondi, bu fond mablag'lari korxona faoliyatini rivojlantirishga yordam beradigan ilmiy-tadqiqot, loyiha ishlari, yangi texnika va uskunalarni o'rnatishga sarflanishi mumkin;

▪ Ijtimoiy rivojlantirish fondi, bu fond mablag'lari korxona mablag'larini uy-joy qurilishi, dam olish va davolanish maskanlari, Shuningdek, turli ijtimoiy maqsadlardagi bino va inshootlar qurilishiga yo'naltirishga olib keladi.

–Korxona amortizatsiya fondi, asosiy vositalarni qayta tiklash uchun eng asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Korxonalarda realizatsiya qilingan mahsulot va xizmatlarning bir qismi foydalanilgan asosiy vositalarni qayta tiklash uchun ajratiladi. Bu mablag'lar kapital qo'yish uchun asosiy manba hisoblanadi. Shuni alohida qayd qilish joizki, so'nggi yillarda kichik va o'rta korxonalarda jamg'ariladigan amortizatsiya fondi hisobdan chiqariladigan asosiy vositalar o'rnini to'ldira olmayapdi. Shunga ko'ra, kichik korxonalarda investitsiya faoliyatining asosiy moliyaviy manbai foyda bo'lib hisoblanadi.

–Sug'urta kompaniyalari tomonidan korxonaga sodir bo'lgan avariya va etkazilgan zarar uchun to'lanadigan pul mablag'lari, korxonada turli baxtsiz hodisa tufayli korxona faoliyati qisqarishi holati kuzatiladigan vaqtda sug'urta kompaniyalari tomonidan beriladigan pul mablag'lari investitsiya faoliyatini oshirib, yana ishlab chiqarishni kengayishini ta'minlashi mumkin.

Korxona investitsiya faoliyatini amalga oshirishda o'z mablag'lari etmaydigan bo'lsa, Chetdan mablag' jalb qilishi mumkin. Bu vaziyatda korxona quyidagi ishlarni amalga oshirishi mumkin:

–tijorat banklaridan kredit mablag'lari olish orqali pul mablag'lariga ega bo'lishi mumkin;

–aktsiya, obligatsiyalar chiqarishi yordamida boshqa korxonalar,

aholi va mehnat jamoasi pulini investitsiya faoliyatiga jalb qilishi mumkin;

–mehnat jamoasi ish haqi fondidan ularga tegishli pay, vzos ko'rinishida pul mablag'lariga ega bo'lib, investitsiya faoliyatini amalga oshiradi;

–davlat subsidiyalari, xalqaro tashkilotlar va mahalliy nodavlat notijorat tashkilotlarning ajratadigan pul mablag'larini olish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin;

–chet el investitsiyalarini jalb qilishi mumkin.

Investorlar investitsiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlashda turli investitsiya resurslaridan foydalanishlari mumkin. Investitsiya resurslari mamlakatimiz qonunchiligida batafsil ko'rsatilgan⁹.

“Investitsiya resurslari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Pul va boshqa moliyaviy mablag'lar, shu jumladan kreditlar, paylar, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;
- Ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar;
- Intellektual mulk ob'ektlari, shu jumladan, texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnikaga, texnologiyaga, tijoratga oid va boshqa bilimlar majmui, u yoki bu turdagi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ishlab chiqarish tajribasi, nou-xau;
- Erga va boshqa tabiiy resurslarga, binolar, inshootlar, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, Shuningdek, mulk huquqidan kelib chiquvchi ashyoviy huquqlar;
- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa boyliklar.

Tayanch iboralar

Investitsiya, investitsiya faoliyati, investor, chet el investitsiyalari, chet ellik investorlar, reinvestitsiya, investitsiya faoliyati ob'ektlari, investitsiya faoliyati ishtirokchilari.

Nazorat savollari

1. Investitsiyani mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarga bo'lgan ob'ektiv zarurat nimalar bilan belgilanadi?
3. Investitsiyalar kapital qo'yilmalardan kanday farklanadi?
4. Investitsiya faoliyati tushunchasi?
5. Investitsiya faoliyatining mazmuni tushuntiring?

⁹ O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonuni 24.12. 1998 yil 5-modda.

6. Investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aytib bering.
7. Davlatning investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini tushuntiring.
8. Korxona investitsiya faoliyatini pul bilan ta'minlash foydalanadigan o'z mablag'lariga nimalar kiradi?
9. Korxona investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun qanday Chetdan jalb qilinadigan mablag'lardan foydalanishi mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 24 dekabr 1998 yil soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 30 aprel 1998 yil soni.
3. A. O'lmasov, N. To'xliiev "Bozor iqtisodiyoti" T. Qomuslar bosh tahririyati, 1991 yil.
4. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006.
5. Investitsii: uchebnoe posobie / M.V. Chinenov i [dr.]; pod red. M.V. Chinenova. - M.: KNORUS, 2007. - 248 s.
6. Neshitoy A. S. Investitsii: Uchebnik. — 5-e izd., pererab. i ispr. — M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov & K», 2007 - 372 s.
7. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. — 384 s.
8. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl.- M.: INFRA- M, 1997
9. Abramov S.I. Investirovanie. M., 2000 g.
10. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, www.stat.uz

2-mavzu. Xorijiy investitsiyalarning shakl va turlari

Reja:

1. Xorijiy investitsiyalarning turlari.
2. Investitsiya faoliyatiga tegishli huquqiy munosabatlarning ob'ekti va sub'ektlarining tasniflanishi.
3. Bevosita va portfel xorijiy investitsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.


1. Xorijiy investitsiyalarning turlari.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish, Shuningdek, investitsiya loyihalarining yanada samarali bo'lishini ta'minlash uchun investitsiyalarning mohiyatini chuqur anglash, ularning turli me'zonlar bo'yicha tasniflanishini astoydil o'rganish, har bir investitsiya turlari va shakllarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha kerakli bilimlarni o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Investitsiya bo'yicha yaratilgan nazariy bilimlar hamda investitsiya to'g'risida mamlakatimizda qabul qilingan qonunlarning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning iqtisodiy mazmuniga ko'ra shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin (1-chizma).

1- chizma

Iqtisodiy mazmuniga kura investitsiya turlari



Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'рни bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli

qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi. Real (moddiy) investitsiyalar real kapitalning o'sishini, ya'ni ishlab chiqarish mablag'lari, moddiy boyliklarning o'sishini ta'minlashi zarur.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, "nou-xau", kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Moliyaviy investitsiyalar buyum ko'rinishidagi kapitalning o'sishini o'zida mujassam etmasada, lekin foyda shu jumladan spekulativ foyda ya'ni qimmatli qog'ozlar kursi o'zgarishi natijasida vujudga keladigan foyda keltiradi. Moliyaviy investitsiyalar ikki xil ko'rinishida bo'ladi. Aktsiyalarni sotib olish real moddiy ko'rinishdagi kapitalni yaratmaydi. Lekin kelajakda spekulativ ko'rinishda foyda olish mumkin bo'ladi. Aktsiyalarni sotishdan tushgan mablag'ni ishlab chiqarish uchun, asbob-uskunalar sotib olish uchun sarflaganda u real kapitalga aylanadi va real investitsiya ko'rinishini oladi. Shu sababdan qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdi operatsiyalari natijasida olinadigan spekulativ foyda keltiruvchi moliyaviy investitsiyalar va qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida pul ko'rinishdagi real moliyaviy investitsiyalarni farqlash lozim. Fan-texnika taraqqiyotini tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishni eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi.

XX asr boshlarida fan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun sarflanadigan qo'yilmalar oshib bordi. Shuning uchun ham jahonda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash uchun sarflanadigan harajatlar o'sib bordi. Masalan, AQSH, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda fan va ilmiy izlanishga sarflanadigan qo'yilmalar o'sish sur'atlari asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalardan ustundir. Jahon bozoriga kirib borish, keng ko'lamda marketingni rivojlantirish, batafsil axborotga ega bo'lish, yuqori darajadagi kompyuterlashgan tizimlarini tashkil etishni, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va mazkur sohada dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga erishishni talab etadi. Shuning uchun

ham jadal sur'atlar bilan rivojlanishda real investitsiyalar tarkibida fan, texnika, ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash uchun sarflanadigan real investitsiyalar asosiy o'rinlardan birini egallashi zarur.

Asosiy fondlarga sarflangan real investitsiyalar maqsadi sarflanish yo'nalishlari va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra hududlararo, tarmoqlararo, texnologik, qayta ishlab chiqarish tarkiblariga ega. Asosiy fondlarga sarflangan investitsiyalarni, ularning aktiv (mashinalar, asbob-uskunalar) va passiv (bino, inshootlar) qismlarini tashkil etish uchun sarflangan umumiy harakat yig'indisidagi ulushi investitsiyalarning texnologik tarkibini tashkil etadi. Qayta ishlab chiqarish tarkibi investitsiyalarning qanday maqsadlarga yo'naltirilganligi; yangi qurilishga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirishga, rekonstruktsiyaga va yangi texnika bilan qayta kurollantirishga jalb qilingan harajatlarni umumiy harajatlardagi har birining nisbiy jihatdan ulushini ko'rsatadi. Investitsiyalarning hududlararo va tarmoqlararo tarkibi esa ularning nisbiy jihatdan hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimotini bildiradi.


Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini xususiy investitsiyalar tashkil etadi. Iqtisodiy muvofiqlashtirish siyosati asosida kreditlar, subsidiyalar ajratiladi, davlat kapital qo'yilmalari muvozanatlashtiriladi va real investitsiyalar o'zlashtiriladi. Davlat tomonidan o'zlashtiriladigan investitsiyalar dastlabki bozor infratuzilmasini va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi.

Real investitsiyalardan farqli o'laroq moliyaviy investitsiyalarni kuproq portfel investitsiyalar ham deb atashadi, chunki bu holda investorning asosiy maqsadi bo'lib, moliyaviy aktivlarning mukammal yig'imasini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshqarish hisoblanadi. Moliyaviy investitsiyalar shaxsiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aktsiyalarga, obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga va bank depozitlariga, uzoq muddatga jalb qilinadigan qo'yilmalardir. Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi, kapitalni noishlab chiqarish sohasiga sarflanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiyalar aksariyat holatlarda real investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lib, erkin bozor infratuzilmasi mavjud va qimmatli qog'ozlar bozori orqali kapitalni sohalar bo'yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda ko'proq tarqalgan.

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra investitsiyalarni yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi (2-chizma).

2-chizma.

Tarkibiy tuzilishiga kura investitsiya turlari



:

Yalpi investitsiyalar – bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya ajratmasi va sof investitsiyalarni qamrab oladi. Amortizatsiya ajratmasi bu asosiy vositalarning qayta tiklanishi uchun asosiy vositaning boshlang'ich qiymati va ishlatish muddatiga bog'liq holda, ajratiladigan yillik mablag' hisoblanadi. Masalan, asosiy vositaning boshlang'ich qiymati 100 mln so'm va ishlatish muddati 7 yil qilib belgilangan holatda, amortizatsiya ajratmasining yillik miqdori 14 286 ming so'm miqdorda bo'ladi. 7 yil davomida to'planib borgan amortizatsiya ajratmasi yaroqsiz bo'lib qolgan asosiy vositaning hisobdan chiqarish va uning o'rniga yangi asosiy vosita sotib olish imkoniyatini beradi.

Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratmasi ayirib tashlanadi. Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni yuksalish, turg'unlik yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan, ya'ni sof

investitsiya miqdori nolga teng bo'lgan chog'da, iqtisodiyotda barqarorlik holati vujudga kelishi mumkin. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nolga barobar va iqtisodiyot shu yilda qancha kapital iste'mol qilgan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha ishlab chiqarish kerak bo'ladi.

Iqtisodiy faollik pasayib borayotgan iqtisodiyot uchun sof investitsiyalar amortizatsiyadan kam bo'lgan holdagi vaziyat xosdir, ya'ni iqtisodiyotda yil davomida kapital ishlab chiqarilganiga nisbatan ko'proq iste'mol qilinadi. Bunday holatda, sof investitsiyalarning miqdori avvlgi davrlarga nisbatan qisqarishini bildiradi. Natijada, yil oxirida kapital hajmi yil boshidagiga qaraganda kam bo'ladi. Investitsiyalarni xorijga chiqarish, ularning mamlakatlar o'rtasidagi faol harakati zamonaviy jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralib turuvchi xususiyatlariga aylandi. Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon xo'jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi. Hozirgi vaqtda xalqaro investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 30%dan oshadi. Bu ko'rsatkich jahon savdosining o'sish sur'atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o'zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg'arilgan zahiralarni mujassamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga, hamda davlatlararo harakatda bo'ladi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi. Xorijiy investitsiyalarning investitsiya faoliyati amalga oshirish maqsadiga ko'ra quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya (3-chizma).

Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, Shuningdek, ishlab chiqarishning turli shakllarini hosil bo'lishiga va rivojlanishiga hissa qo'shadigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsion investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash (eng so'nggi rusumdagi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish) maqsadida tadbirkorlik faoliyatiga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.


Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va

ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, Shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Xorijiy investitsiyalar ko'lamiga qarab xalqaro doiradagi, ya'ni xalqaro (tashqi) hamda mamlakat ichidagi (ichki) investitsiyalar ko'rinishiga ham ega bo'ladi. Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o'rtasida xarakatda bo'lgan investitsiyalardir. Ichki investitsiyalar mamlakat doirasida hukumatning yoki mamlakat rezidentlarining investitsiya foliyatida foydalanadigan investitsiyalari hisoblanadi.

3-chizma.

Investitsiyalarning amalga oshirish maqsadiga ko'ra turlari



Investitsiyada qatnashish xarakteriga ko'ra investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga ajratiladi. Bevosita investitsiyalar investorni o'z moliyaviy mablag'larini asosiy fondlarga joylashtirish imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi.

Investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi) va uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga beriladi) bo'ladi. Masalan, oddiy aktsiyalar umuman biror – bir muddat bilan cheklanmaydi. Shuningdek, depozit sertifikati (olti oy muddatga berilishi mumkin) – bu qisqa muddatli qo'yilmalar vositasidir, obligatsiyalar esa (masalan, 20 yilda qaytarish muddati bilan) uzoq muddatli qo'yilmalar vositasidir. Lekin, uzoq muddatli qimmatli

qog'ozlarni sotib olish va qisqa muddatda, masalan olti oy o'tgandan so'ng, investor uzoq muddatli vositalardan qisqa muddatli maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Ko'pincha investorlar ana shunday vositalarni tanlaydilar va o'z pullarini qisqa muddatlarga qo'yishni hoxlaydilar. Masalan, yaqin olti oy mobaynida investor kerak bo'lmaydigan mablag'iga olti oylik muddatga ega bo'lgan depozit sertifikatini sotib olishi mumkin. Qirq yoshga to'lgan investor pensiyaga chiqquncha pul yig'ish uchun biron-bir kompaniyani obligatsiyasini 20 yilga sotib olish mumkin.

Mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi. Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarining va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga kuyilishini anglatadi. Davlat investitsiyalari - bu davlat tomonidan milliy daromadning davlat byudjetining mablag'lari ko'rinishida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi uchun sarflayotgan mablag'laridir. Ba'zi qo'shma korxonalarda turli mulkchilik shaklidagi sub'ektlar, hattoki, xorijiy korxonalarning ulushi bo'lganligi uchun qo'shma korxonalar investitsiyalari alohida ta'riflanadi. Shuningdek, mamlakat rezidentlaridan tashqari chet el rezidentlari, xorijiy mamlakatlar hukumatlari, xalqaro tashkilotlarning investitsiyalari miqdori hukumat statistik hisobotlarida

Investitsiya munosabatlari shu darajada murakkab va ko'p qirraliki, ko'pincha davlatlar o'rtasidagi munosabatlar xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar ham davlat yoki xususiy investitsiyalar shaklida bo'lishi mumkin. Birinchi shaklda davlat investitsiyalari ishtirok etib, bunda bir davlat boshqa davlatga kreditlar yoki boshqacha shakldagi qarzar berishi mumkin. Bunday munosabatlarga xalqaro huquq normalari qo'llaniladi. Ikkinchi shaklda esa, bir mamlakat xususiy firmalari, kompaniyalari yoki fuqarolari boshqa mamlakatning tegishli sub'ektlariga beradigan investitsiyalar tushuniladi.

Hozirgi davrda bir qator davlatlarda moddiy ishlab chiqarish jaryonidagi investitsiyalashdan tashqari ijimoiy-madaniy sohalar uchun, fan tarmoqlari uchun, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalar uchun, informatika sohasi, tabiatni muhofaza qilish uchun investitsiya mablag'lari ajratilmoqda. Bu investitsiyalar xorijiy adabiyotlarda «inson investitsiyasi», «inson kapitaliga investitsiya qilish» deb atalmokda. Bu investitsiyaning alohida bir

ko'rinishi bo'lib, asosan kishilarning sog'ligini saqlash, aqliy va ma'naviy rivojlanishi uchun, hayotini uzaytirish hamda kishilarning ish faoliyatida ijodiy qatnashishi va uning samaradorligi oshishi uchun sarflanadi.

2. Investitsiya faoliyatiga tegishli huquqiy munosabatlarning ob'ekti va sub'ektlarining tasniflanishi.

Investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar hisoblansa, investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui investitsiya faoliyati deb yuritiladi. Investitsiya faoliyati tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning bir ko'rinishidir, Shuning uchun ham tadbirkorlikka xos bo'lgan belgilar, ya'ni mulkiy mustaqillik, tashabbuskorlik va tavakkalchilik unga ham xos bo'lgan xususiyatdir.

Investitsiya faoliyati ob'ektlari – moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish ob'ektlaridir. Bunday ob'ektlarga ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va insoniy resurslar kiradi. Investitsiyalar asosiy vositalar bilan birgalikda, aylanma mablag'lar va inson omiliga ham kiritilishi mumkin. Inson omiliga investitsiyalar investorlar tomonidan xodimlarni o'qitish va ularning malakasini oshirishga sarflaydigan pul mablag'lari bo'lishi mumkin.

Investitsiya faoliyatining sub'ektlari investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar bo'lib, ularga investor va investitsiya faoliyatini amalga oshirishni ta'minlovchi investitsiya faoliyati ishtirokchilari kiradi (4-chizma).

Investitsiya faoliyatining sub'ektlari mamlakatimiz qonunchiligida batafsil yoritilgan¹⁰.

Qo'yidagilar investitsiya faoliyatining sub'ektlari bo'lishlari mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari-fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari;

- Mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari;


- Xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, Shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni 24.12. 1998 yil 7-modda.

Hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

4-chizma

Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari



Investorlar buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi Investitsiya faoliyatining sub'ektlaridan biri investor bo'lib, u o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, Shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob'ektlariga jalb etishni amalga oshiradi. Bunday o'ziga xos faoliyat sub'ektlarining yana bir katta guruhi mavjud bo'lib, ular investitsiya faoliyati ishtirokchilari deb yuritiladi va ularning asosiy vazifasi investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar (investorlar) quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi.

1. Joriy faoliyatning yunalishlari bo'yicha institutsional va individual investorlar. Institutsional investorlar rolda sanoat, savdo, transport, aloqa va boshqa sohalardagi aksiodorlik jamiyatlar namoyon bo'lsalar, individual investorlar rolda fuqarolar (jismoniy shaxslar) namoyon buladi.

2. Investitsiyalash maqsadlari bo'yicha strategik va bevosita investorlar. Strategik investorlar o'z oldiga kompaniyalarni boshqarish xuquqini olishni maqsad qilib qo'yadilar. Buni ular boshqa kompaniyalar aksiyalarining nazorat paketini sotib olish yoki ularning ustav kapitalini katta qismini egallash orqali amalga oshiradilar. Bevosita investorlar esa

investitsiya faoliyatini investitsiya ob'ektlariga bevosita (real, moddiy) investitsiyalar kiritish orqali amalga oshiradilar.

3. Bevosita va portfelli xorijiy investitsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

Maqsadiga ko'ra xorijiy investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga bo'linadi. Bevosita investitsiyalar – bu kapitalni tug'ridan-tug'ri eksporti bo'lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat qilish xuquqini beradi. Bunda korxona asosiy kompaniyaning xorijdagi shaxobchasiga aylanadi. Bevosita xorijiy investitsiyalar (BXI) asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida bo'ladi.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni bevosita xorijiy investitsiyalar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish xuquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aktsionerlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich AQSHda 10%, Frantsiya va Buyuk Britaniyada 20% ga yaqin, Germaniyada 25%dan 50% gacha, O'zbekistonda esa 49% darajasida belgilangan. Shuningdek, shu korxonaning boshqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir. Investitsiyaning bu ko'rinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi uchun ma'suliyatni davlat va aholi zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari o'rtasida taqsimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli hisoblanadi.

Bevosita xorijiy investitsiyalar borasidagi yana bir yondashuv bu turdagi investitsiyalarni faqat mulkchilik ko'lami bilan, ya'ni aktsionerlik kapitalidagi ulushi bilan bog'liq deb ko'rsatadi. Unga muvofiq bevosita xorijiy investitsiyalarni:

- a) xorijda aktsiyalarni sotib olish orqali;
- b) foydani qayta investitsiyalash yordamida;
- c) firma ichki qarzlar va qarzdorliklari orqali amalga oshirish mumkin.

Ko'pchilik iqtisodchilar bu shakllar etarli emas, deb xisoblashadi va asosli ravishda turli xil noaktsioner shakllar orqali bu ro'yxatni davom ettirishadi (subkontraktlar, boshqaruv kelishuvlari, franchayzing, litsenzion kelishuvlar va boshqalar).

Bevosita xorijiy investitsiyalarning shakl va usullariga bog'liq tushunchalar bilan bog'liq turli xil yondashuvlarning ko'payishi qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar umumbashariy xarakterga ega bo'lib, nostandart yondashuvlar echimini talab etadi.

Bevosita investitsiyalar asosan ikki guruhga ajratiladi:

1. Transkontinental kapital qo'yilmalar.

2. Transmilliy qo'yilmalar.

Transkontinental kapital qo'yilmalar - investitsiya kiritish uchun qulay bozor sharoiti bo'lgan boshqa bir davlat yoki qit'aga investitsiya eksportini amalga oshirishdir. Asosiy maqsad – bozorni egallash va shu kontinentda yangi ishlab chiqarishni tashkil etish. Transmilliy kapital qo'yilmalari esa asosan qo'shni davlatlarga amalga oshiriladi.


Bevosita investitsiyalar ikki maqsadda yunaltiriladi:

- yangi kompaniya tashkil etish;
- bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid qilish.

Bevosita investitsiy faoliyatini amalga oshirishda mamlakatlardagi aksionerlik jamiyatlaridagi nazorat paketining ahamiyati yuqori bo'lib bu ko'rsatkich turli mamlakatlarda turlicha belgilangan (5-chizma).

5-chizma

Bir qator mamlakatlarda aksionerlik kapitalida xorijiy investorning nazorat qilish huquqini beruvchi hissasi, 2010 y.



▨ Aksionerlik kapitalida xorijiy investorlarning ulushi

▨ Aksionerlik kapitalining qolgan qismi

Portfel investitsiyalar - shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarning aktsiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatish xuquqini bermaydi. Xorijiy portfel investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firmalar uchun muhim ahamiyatga ega. By turdagi investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni echish uchun murojaat qilinadi. Korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag'larning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yuqori foyda olish uchun o'tkazadilar.

Portfel investitsiyalar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

-aktsioner qimmatbaho qog'ozlari - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, hujjat egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy xuquqqa egaligini tasdiqlaydi;

-zayom qimmatbaho qog'ozlar - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

Zayom qimmatbaho qog'ozlari quyidagi shakllarda chiqariladi:

-obligatsiya (oddiy veksell, qarz majburiyati) pulli dastak bo'lib, uning sohibiga kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi yoki shartnoma asosida belgilangan o'zgaruvchan pul daromadini olish huquqini beradi;

-pul bozori dastaklari - pulli dastak bo'lib, uning sohibiga ma'lum bir davr ichida kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi.

Bu dastaklar bozorda pasaytirilgan narxlarda sotiladi, narxni pasaytirish darajasi foiz stavkasining katta-kichikligiga va qarzni qoplanish muddatiga bog'liqdir. Bularga g'azna veksellari, depozit sertifikatlari va boshqalar kiradi.

Moliyaviy derivatlar- bozor narxiga ega bo'lgan pulli dastak bo'lib, uning sohibiga birlamchi qimmatbaho qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bularga optsionlar, fyucherslar, warrantlar, svoplar kiradi.

Nota (qarz majburiyati) - qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bo'lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining o'z nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta'minlanadi. Keng tarqalgan notalar

– Evronotalardir.

Portfel investitsiyasining bevosita investitsiyalardan afzallik tomoni shundaki, ular tugatilish vaqtida qimmatbaho qog'ozlar tezda naqd valyutaga almashtirib olinishi mumkin. Portfel investitsiyalarning amalga oshirilishining asosiy sababi – tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda xorijiy investor o'z mablag'larini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatbaxo qog'ozlarga joylashtirishi mumkin. Ma'lum bir ma'noda portfel investitsiyasi pulni inflyatsiya va spekulyatsiya yuli bilan foyda ko'rishdan saqlash vositasi sifatida qaraladi. Bunda investitsiya qilinayotgan soha ham, qimmatbaho qog'oz turi ham hech qanday ahamiyatga ega emas, u ustama kurs o'sishiga qarab istalgan foydani berishi kerak bo'ladi.

Quyida portfel va bevosita investitsiyalar o'rtasidagi farq jadval ko'rinishida (1-jadval) yaqqol tasvirlab berilgan. Jadvalda portfel va bevosita investitsiyalarni kapital chiqarish maqsadi, maqsadga erishish yullari, maqsadga erishish usullari, daromad shakllari kabi belgilari keltirilgan.

1-jadval

Bevosita va portfel investitsiyalar o'rtasidagi farqlar.

Belgilar	Bevosita investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Kapital chiqarishdan asosiy maqsad	Xorijiy firma ustidan nazorat o'rnatish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yullari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borish	Xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga tulik egalik qilish b) aktsiyalar nazorat paketini sotib olish (XVJ nizomiga binoan kompaniya aktsioner kapitalining 25%dan kam bulmasligi kerak)	Xorijiy firma aktsioner kapitalining 25%dan (AQSH, Yaponiya, Germaniyada 10%dan) kamini sotib olishi
Daromad shakllari	Tadbirkorlik faoliyati foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

Qisqacha xulosalar

Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit

sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning turlari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, "nou-xau", kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi. Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya.

Investitsiyada qatnashish xarakteriga ko'ra investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga ajratiladi. Bevosita investitsiyalar investorni o'z moliyaviy mablag'lag'larini joylashtirish ob'ektini tiklash imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi.

Investitsiya faoliyatining ob'ekti moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish ob'ektlari hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatining sub'ektlaridan biri investor bo'lib, u o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, Shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob'ektlariga jalb etishni amalga oshiradi.

Tayanch iboralar

Moliyaviy, moddiy va aqliy investitsiyalar, yalpi va sof investitsiyalar, kapital, innovatsion va ijtimoiy investitsiyalar, uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar, tashqi va ichki investitsiyalar, investitsiya faoliyatining ob'ekti va sub'ekti, bevosita va portfel investitsiyalar.

Nazorat uchun savollar

1. Investitsiyaning shartli ravishda qanday turlarini ajratish mumkin?
2. Xorijiy investitsiyalar ko'lamiga qarab qanday turlarga ajratiladi?
3. Xorijiy investitsiyalarni qanday shakllari mavjud?
4. Investitsiyada qatnashish maqsadiga ko'ra investitsiyalar qanday turlarga ajratiladi?
5. Investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qanday turlarga ajratiladi?
6. Mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar investitsiyalar qanday turlarga ajratiladi?
7. Investitsiya faoliyatiga tegishli huquqiy munosabatlarning ob'ekti va sub'ekti haqida tushuncha bering.
8. Bevosita va portfelli xorijiy investitsiyalarning asosiy o'ziga xos xususiyatlari hamda farq qiluvchi jihatlarini tushuntirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 24 dekabr 1998 yil soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 30 aprel 1998 yil soni.
3. A. O'lmasov, N. To'xliiev "Bozor iqtisodiyoti" T. Qomuslar bosh tahririyati, 1991 yil.
4. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006.
5. Investitsii: uchebnoe posobie / M.V. Chinenov i [dr.]; pod red. M.V. Chinenova. - M.: KNORUS, 2007. - 248 s.
6. Neshitoy A. S. Investitsii: Uchebnik. — 5-e izd., pererab. i ispr. — M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. — 372 s.
7. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. — 384 s.
8. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl.- M.: INFRA- M, 1997
9. Abramov S.I. Investirovanie. M., 2000 g.
10. Ekonomika SNG: 10 let reformirovaniya i integratsionnogo razvitiya. M.: Finstatinform, 2001.
11. Serov V.M. Investitsionniy menedjment. M., 2000 g.

3-mavzu. Globallashuv hamda iqtisodiy integratsiyallashuvning kuchayib borishida investitsiya jarayonlari

Reja:

1. Jahon iqtisodiyotining globallashuvida xorijiy investitsiyalarning o'ri.
2. Investitsiya loyihalarini joriy qilishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy me'zonlari.
3. O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish.
4. Xorijiy investitsiyalarni eksporti va importi.

1. Jahon iqtisodiyotining globallashuvida xorijiy investitsiyalarning o'ri

Globallashuv jarayoniga qo'shilish - bu dunyoning etakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Globallashuv jarayoniga iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi, raqobatning kuchayishi va boshqa bir qator omillar ham xosdir. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti uchun investitsion faollik va jahon iqtisodiyoti globallashuvining kuchayishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlarning xalqaro mexnat taksimotidagi roli ortib borayotganligi ham unga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

MDH davlatlarining paydo bulishi bilan xorijiy investorlarning investitsion faoliyatlarini amalga oshirishdagi yangi imkoniyatlar maydoni paydo bo'ldi. Shuni aytish kerakki, xorijiy investorlar bu masalada katta tajribaga ega. Albatta bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni investitsiyalar qabul qiluvchi (MDH) davlatlar uchun zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini qabul qilishdagi investitsion tanlov imkoniyati yaratildi. Bunga oddiy hol deb qarash kerak emas, chunki, investitsiyalar-iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uni olg'a siljituvchi kuchdir.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, xar qanday davlat dunyodan ajralgan holda jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning etakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi

mumkin emas. O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohatlar, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilgan ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish garovi, iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Yaqin yillargacha faqat xom ashyo maxsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan O'zbekiston bugun dunyo xaritasida o'zining munosib o'rn, bunda birinchi galdagi chet el sarmoyalari, chet el investitsiyasi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu davlatlarning tarixi shuni ko'rsatadiki, agar bu xorijiy malakatlarga sarmoya kelmasa, investitsiya kelmasa, hech qachon bu davlatlar bugungi rivojlanish darajasiga ko'tarila olmas edi.

O'zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega. Lekin bu degani O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun barcha ishlar qilib bo'lindi, degani emas. Endigi navbatda bu asoslarga tayangan holda investitsiyalar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari turadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rn, salmog'i mazkur davlatdagi investitsion muhitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muhit ko'p jixatdan xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari bilan baholanadi. Strategik investorlar ko'p miqdordagi mablag'larni birinchi navbatda iqtisodiyoti o'z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatga yunaltiradi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo'yilgan mablag'lar saqlanishiga va barqaror foyda olishga mo'ljal qilsa bo'ladi. Ichki va chet el investorlarini birinchi navbatda minimal darajadagi soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va maqbul istiqbollar qiziqtiradi.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy jarayonlar hisoblanib, jahon bozori bilan o'zaro yaqin va to'liq bog'liqlikda bo'ladi. Shu nuqtai nazardan u ko'pgina iqtisodiy jarayonlarni o'zida qamrab oladi. Xorijiy investitsiyalar bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish sur'atlarini tezlashtirish imkonini beradi. Eng muhim yunalish sifatida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni o'z ichiga olgan investitsiya faoliyatining jadallashuvi bugungi kunda o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun ayni muddao.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy islohatlarga bog'liq.

2. Investitsiya loyihalarini joriy qilishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy me'zonlari

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslar tomonidan xorijiy investorlarni jalb etgan holda jahon bozorida chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotib olishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun asos yaratadi.

Kioto Protokoli - Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konventsiyasiga (IO'HK) 1997 yil 11 dekabrda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1999 yil 20 avgustda ratifikatsiya qilingan va 2005 yil 16 fevraldan boshlab kuchga kirgan, parnik gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirish mexanizmlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi (MRM) - unga ko'ra Kioto Protokoliga 1-ilovaga kirmagan mamlakatlar o'z hududida parnik gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishi va bunday loyihalar natijasida olingan chiqindilar chiqarish qisqartirishlarini Kioto Protokoli 1-ilovasiga kirgan mamlakatlar hukumatlariga yoki kompaniyalariga yoxud chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini (chiqindilarni sertifikatlangan qisqartirish (CHSQ) - MRM investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida olingan va IO'HKning Ijro etuvchi kengashida sertifikatlashdan o'tgan, uglerod ikki oksidi ekvivalentining bir metr tonnasiga teng bo'lgan birliklarda o'lchanadigan chiqindilarning miqdoriy qisqartirilishini anglatadi) sotib olishdan manfaatdor bo'lgan har qanday tashkilotlarga sotish mumkin bo'lgan mexanizmdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 6 dekabrda PQ-525-son qaroriga muvofiq Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha Idoralararo kengash tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha Milliy organ hisoblanadi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o'z

ichiga oladi.

Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskori tomonidan MRM Milliy organiga yozma ariza kiritiladi, arizaga MRM bo'yicha nazarda tutilayotgan investitsiya loyihasi to'g'risidagi umumiy axborot ilova qilinadi. Loyiha bo'yicha buyurtmanoma O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bilan kelishiladi. Zarurat bo'lganda, loyiha bo'yicha buyurtmanomaga kiritish uchun MRM Milliy organi tomonidan loyiha bo'yicha qo'shimcha axborot va hujjatlar so'rab olinishi mumkin. MRM Milliy organi loyiha bo'yicha buyurtmanoma taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda loyihani MRM doirasida barqaror rivojlanish milliy mezonlariga muvofiq amalga oshirish mumkinligini ko'rib chiqadi. Loyihani MRM doirasida amalga oshirish mumkinligi to'g'risidagi masala ijobiy ko'rib chiqilgan taqdirda MRM Milliy organi Idoralararo kengashga loyiha bo'yicha buyurtmanomani ma'qullash uchun loyihani amalga oshirish mexanizmi bo'yicha xulosa hamda loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo'yicha tanlov hujjatlariga asosiy talablar bilan birga kiritadi. Idoralararo kengash taklifni taqdim etilgan hujjatlar asosida ko'rib chiqadi va loyihani amalga oshirish mumkinligi to'g'risida yoxud loyihani puxtalashtirish zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Loyihani amalga oshirish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Idoralararo kengash tomonidan, zarurat bo'lganda, ayni bir vaqtda investor tanlash bo'yicha tanlov komissiyasi tarkibi, tanlovni o'tkazish muddatlari va loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo'yicha tanlov hujjatlariga talablar tasdiqlanadi. Idoralararo kengash tomonidan loyihani amalga oshirish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda MRM Milliy organi uch kun muddatda loyiha tashabbuskorini rasmiy ravishda xabardor qiladi, xabarnomada loyihani amalga oshirishning tavsiya etilayotgan mexanizmini hamda loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo'yicha tanlov hujjatlariga asosiy talablarni ko'rsatadi. Loyihani Karbon jamg'armalari yoki Xalqaro moliya institutlari orqali amalga oshirish mexanizmini tanlashda loyiha-texnik hujjatlarni (LTH) tayyorlash, investorlarni, vakolatli operativ organlarni va chiqindilarning sertifikatlangan qisqartirishlari xaridorlarini tanlash tegishli Karbon jamg'armalari yoki Xalqaro moliya institutlari tomonidan belgilangan tartibotlarga muvofiq amalga oshiriladi. MRM Milliy organi tomonidan tanlov asosida tanlab olish zarurligi ko'rsatilgan taqdirda loyiha tashabbuskori loyihani amalga

oshirish uchun Idoralararo kengash tomonidan belgilanadigan muddatlar va talablarga muvofiq investor tanlash bo'yicha tanlov e'lon qiladi.

Ikkinchi bosqichda tashabbuskor tomonidan MRM Milliy organiga yozma ariza kiritiladi, unga quyidagilar ilova qilinadi:

- muzokaralar davomida erishilgan dastlabki va yakuniy qiyosiy jadvallar, loyiha tashabbuskori tomonidan tanlangan taklif ko'rsatilgan holdagi tanlov qatnashchilari takliflari;

- MRM tartibotlariga muvofiq ishlab chiqilgan rus va ingliz tillaridagi loyiha-texnik hujjatlar;

- loyihani amalga oshirishning oylar bo'yicha jadvali;

- Gidrometeorologiya xizmati markazining loyiha bo'yicha ijobiy xulosasi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining loyiha bo'yicha ijobiy ekologik xulosasi.

Quyidagilar Idoralararo kengash tomonidan loyihani baholashning asosiy mezonlari hisoblanadi:

- loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligi;

- loyihaning ekologiya talablariga muvofiqligi;

- texnologik asbob-uskunalarining zamonaviy sifat standartlariga muvofiqligi.

Idoralararo kengash ikki hafta muddatda takliflarni taqdim etilgan hujjatlar asosida ko'rib chiqadi va loyihani amalga oshirishning mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladi. MRM bo'yicha loyiha amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan investitsiya loyihasiga qo'shimcha deb hisoblangan taqdirda asosiy investitsiya loyihasini tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish tartibi ana shunday loyihalar uchun tatbiq etiladigan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Asosiy investitsiya loyihasi bo'yicha dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash tasdiqlangungacha yoxud O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro moliya institutlari o'rtasida o'zaro hamfikirlik to'g'risidagi memorandum imzolangungacha loyiha bo'yicha buyurtmanoma berish bosqichida MRM bo'yicha loyiha komponentini amalga oshirish yuzasidan Idoralararo kengashning ijobiy qarorini olish zarur. Idoralararo kengashning loyihani amalga oshirish to'g'risida ijobiy qarori qabul qilingan taqdirda MRM Milliy organi loyiha tashabbuskorini rasmiy ravishda xabardor qiladi va IO'HK Ijro etuvchi kengashiga loyiha bo'yicha ma'qullash xati jo'natadi. MRM Milliy organidan ma'qullash

xati olingandan keyin MRM loyihasi tashabbuskori validatsiya (loyihani tasdiqlash to'g'risidagi qaror) qilish va keyinchalik loyihani IO'HK Ijro etuvchi kengashida MRM tartibotlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazish uchun tegishli Vakolatli organi tanlash bo'yicha mas'ul hisoblanadi. Loyiha-texnik hujjatlar ekspertizadan ijobiy o'tkazilganda va Vakolatli operativ organ tomonidan tasdiqlanganda loyiha tashabbuskori Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamentiga MRM loyihasini amalga oshirish to'g'risida Hukumat qarori loyihasini kiritadi. MRM loyihasi tashabbuskori Shuningdek chiqindilar chiqarishning kamayishi monitoringi, MRM talablariga muvofiq chiqindilar chiqarishning qisqarishini tasdiqlash va sertifikatlash bo'yicha tadbirlarning bajarilishi uchun javob beradi. Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha investitsiya loyihalariga nisbatan qo'llanadigan Barqaror rivojlanish milliy mezonlari quyidagi sxemada aks ettirilgan (1-chizma).


Iqtisodiy mezonlar:

-tayyor mahsulot birligi hisobiga energiya va xom ashyo sarfini kamaytirish;

-zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan ishlab chiqarish samaradorligini yoki tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;

-O'zbekiston Respublikasida bozorning xususiy sektorini rivojlantirishga ko'maklashish.

1-chizma



Barqaror rivojlanish milliy mezonlari

Ekologik mezonlar:

-atrof-muhitning saqlanishiga va yomonlashishining oldini olishga ko'maklashish;

-tabiiy xom ashyo sarfini va ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytirish;

-xom ashyodan takroriy foydalanishga va tiklanayotgan tabiiy resurslardan foydalanishga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish;

-atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish.

Ijtimoiy mezonlar:

-aholining ish bilan bandligining o'sishiga va haqiqiy daromadlarining oshishiga ko'maklashish;

-loyihani amalga oshirishga jalb etilgan xodimlarning va loyiha amalga oshirilayotgan hududda yashaydigan aholining sog'lig'ini yaxshilash;

-aholining tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalaridan xabardorligini oshirish.

Tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasi barcha Barqaror rivojlanish milliy mezonlarini qondirishi shart emas, lekin ko'rsatib o'tilgan mezonlarga muvofiq mamlakatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

3. O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish

Investitsiya loyihasi (loyiha) - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar kompleksidir.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog'liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha izchillikda ishlab chiqiladi:

a)DTIA(dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash) - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish/tanlov hujjatlari - TIA - ishchi hujjatlar;

b)DTIH(dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash) - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish/tanlov hujjatlari - TIH - ishchi hujjatlar;

C) ishchi loyiha-tanlov hujjatlari.

Investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarni ko'rib chiqish va tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan - DTIA (DTIH) hamda tegishli vazirliklar va loyiha tashabbuskorlari bo'lgan idoralarning - Shaharsozlik kodeksi talablariga, normativ hujjatlar talablariga va qabul qilinayotgan qurilish qiymatining qaror topgan bozor kon'yunkturasi darajasiga muvofiqligi yuzasidan

tarmoq xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

b) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasining quyidagilar bo'yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlantirishni ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishni, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni amalga oshirishni, investitsiya siyosatini ro'yobga chiqarishni, ishlayotgan quvvatlardan foydalanishni, Shuningdek xom ashyo va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozori kon'yunkturasini ta'minlash nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha - ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini va "boshqa tarmoqlar"ni rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab turgan quvvatlardan foydalanishni va ularni joylashtirishni maqbullashtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan;

C) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) hamda "Davarxitektqurilish" qo'mitasining tavsiya etilayotgan marketing kontseptsiyasi, tayyor mahsulotni sotish istiqbollari asosida jahon bozori kon'yunkturasi, Shuningdek tavsiya etilayotgan texnologiyaga muvofiq asbob-uskunalarining narxlarning cheklangan parametrlari nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash yuzasidan xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda ko'rib chiqiladi.

Tashabbuskor tomonidan talab qilinayotgan asbob-uskunalar (texnologik liniya), shu jumladan yakka tartibda tayyorlanayotganlarining to'liq va mufassal spetsifikatsiyasini taqdim etish mumkin bo'lmagan taqdirda asbob-uskunalarining narxlarining cheklangan parametrlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan TIA(TIH)ni ekspertizadan o'tkazish jarayonida baholanishi mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi o'z vakolatlari doirasida tashabbuskorga investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ishlab chiqishda prognozlanayotgan uch besh yillik davr uchun ichki va tashqi bozorlar marketingini ishlab chiqishni tashkil etishda ko'maklashadilar.

D) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan - DTIA

(DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining quyidagilar bo'yicha xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - loyihaning moliya-iqtisodiy samaradorligini va qoplanuvchanligini baholash, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojni aniqlash, Shuningdek loyihani moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan variantlarini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha - loyihani amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantini tanlash, moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan sxemasining maqbulligi, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan;

E) xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining loyihaning iqtisodiy samaradorligi, loyiha tashabbuskorlarining kredit tarixini o'rganish, pul oqimlari tahlili, tavakkalchiliklarni baholash va loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda. Moliyalashtirishni byudjet mablag'lari hisobiga (boshqa manbalardan foydalanmasdan) amalga oshirish nazarda tutilayotgan ob'ektlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankning ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlar, jalb etilayotgan kreditlarni to'lash uchun mablag'lar defitsitini byudjet mablag'lari hisobiga uzishni nazarda tutadigan DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarida nazarda tutilayotgan byudjet mablag'larining maqsadga muvofiqligi (muvofiq emasligi) hamda hajmlari, shu jumladan soliq imtiyozlari berish to'g'risidagi xulosalar mavjud bo'lishi kerak.

Vakolatli ekspertiza organlari qayta tashkil etilgan taqdirda xulosa huquqiy voris bo'lgan tashkilot tomonidan beriladi.

DTIA (DTIH)ni tasdiqlash to'g'risidagi hujjat loyihaning nomi, uning tashabbuskori, qurilishning cheklangan qiymati (shu jumladan, import texnologik va boshqa asbob-uskunalarini sotib olish xarajatlari), ob'ektning hisoblab chiqilgan quvvatini (ishlab chiqariladigan mahsulotning yillik hajmi va nomenkulturasini), Shuningdek iqtisodiy

samaradorlik ko'rsatkichlarini, shu jumladan eksport hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Loyihaning tasdiqlangan DTIA (DTIH) parametrlari, shu jumladan, xarajatlar turlari bo'yicha moliyalashtirishning cheklangan limitlari asosida loyiha tashabbuskori tomonidan, belgilangan tartibda;

a) moliyalashtirish manbalari belgilanadi va kelishiladi;

b) pudratchilarni va loyiha bo'yicha xarid qilinadigan texnologik - asbob-uskunalarni etkazib beruvchilarni aniqlash uchun tanlov hujjatlari ishlab chiqiladi.

Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMII) - davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan, O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi/birgalikda moliyalashtiruvchi institutlardir.

Xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT) - O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi/birgalikda moliyalashtiruvchi xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridir.

XMII va XHMT qarz mablag'lari jalb etilgan holda ro'yobga chiqariladigan loyihalarni ko'rib chiqish va tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskorlari "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga XMII/XHMTning baholashdan oldingi missiyalari hisobotlari asosida tayyorlangan, loyiha qiymatining dastlabki bahosini va jalb etiladigan qarz mablag'lari miqdorini o'z ichiga oluvchi loyihani amalga oshirish zarurligi to'g'risida takliflar kiritadilar.

XMII/XHMTning loyihani moliyalashtirish/birgalikda moliyalashtirish yuzasidan roziligi olingan taqdirda ularning baholash komissiyalari hisobotlari asosida O'zbekiston Respublikasi bilan XMII/XHMT o'rtasida o'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandum belgilangan tartibda imzolanadi. Ikkinchi bosqichda loyiha tashabbuskori XMII/XHMTning baholash missiyasi hisoboti asosida TIA ni ishlab chiqadi va ayni bir vaqtda ko'rib chiqish uchun vakolatli ekspertiza organlariga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtirishga/birgalikda moliyalashtirishga tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) va TIA (TIH) ushbu bo'limda bayon qilingan talablarni hisobga olgan holda ishlab

chiqiladi.

Loyiha oldi hujjatlari - qabul qilingan parametrlarga ko'ra loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, Shuningdek uning hayotiyligini asoslab beruvchi hujjatlar yig'indisi hisoblanadi. Loyihaoldi hujjatlariga loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisoblashi), materiallar va asbob-uskunalar etkazib berish, qurilish-montaj ishlarini va ishlarning boshqa turlarini bajarish yuzasidan tender o'tkazish uchun tanlov hujjatlari; loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslashi yoki texnik-iqtisodiy hisoblashi, Shuningdek moliyaviy takliflar yoki kredit va investitsiya shartnomalari (pul mablag'lari jalb etilgan taqdirda) kiradi.

Loyiha hujjatlari - ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik echimlari va texnik echimlarni, qurilishning smeta qiymatini o'z ichiga oluvchi hujjatlar. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslash asosida ishlab chiqiladi.

Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIA yoki DTIH) - variantlarni ko'rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishning eng samarali texnik, tashkiliy va iqtisodiy echimini tanlashni, umuman loyihaning cheklangan qiymatini, shu jumladan, texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan manbalari bo'yicha variantlarni hisobga olgan holda moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Yakuniy texnik-iqtisodiy asoslash yoki texnik-iqtisodiy hisoblash (TIA va TIH) - investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy echimlarini belgilovchi loyihaoldi hujjati.

Investitsiya loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishi quyidagi vakolatli ekspertiza organlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o'tadi:

1-jadval

Vakolatli ekspertiza organlari

Vakolatli ekspertiza organlari	Xulosa natijasi (tavsiya etildi/rad etildi)
Iqtisodiyot vazirligi	
Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	

"Davarxitektqurilish" qo'mitasi	
Moliya vazirligi	
Vakolatli bank (banklar)	

2-jadval

Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning
namunaviy tarkibi

№	Mazmuni
1	Loyihaning maqsadi (rezyume).
2	Loyihaning buyurtmachisi.
3	Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari).
4	Marketing tahlili (bozorni o'rganish, marketing kontseptsiyasi).
5	Moddiy resurslar.
6	Ob'ektning joylashgan joyi.
7	Loyihalashtirish va texnologiya.
8	Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo'shimcha xarajatlar.
9	Mehnat resurslari.
10	Loyihani amalga oshirish sxemalari.
11	Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash.
12	Xulosalar (Loyihaning asosiy afzalliklari va kamchiliklari, qabul qilingan variantning muqobil variantlardan afzalliklari, noaniqlik tавakkalchiliklari va jihatlari, loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash.)
13	Milliy va xorijiy valyuta xarajatini alohida aks ettirgan holda erkin shaklda moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar sxemalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo'lishi kerak.
14	Tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo'lishi kerak: -YUridik hujjatlar; -Kontrakt hujjatlari; -Smeta hujjatlari va moliyaviy hujjatlar; -Ekspert hujjatlari va boshqa hujjatlar; -Tayyor mahsulotni sotish va xom ashyo, materiallar xarid qilish marketing tadqiqotlari bo'yicha hujjatlar.

4. Xorijiy investitsiyalarni eksporti va importi.

Tobora kengayib borayotgan kapitallar bozorining baynalmilallashuv jarayoni bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar o'rtasidagi kapital oqimi hajmining ortib borishi bilan ajralib turadi. Xalqaro kapitallar oqimi - bu ishlab chiqarish omillaridan birining harakatidir. Bunda alohida tovar va

xizmatlar boshqa mamlakatlardagi ishlab chiqarishning iqtisodiy afzalligi tufayli o'sha tomonga oqib o'tadi. Bu haqda bevosita va portfel investitsiyalar hajmining umumiy o'sishi, qisqa va uzoq muddatli kreditlar hajmining ortishi, evrovalyuta bozorlaridagi operatsiyalar miqyosining oshib borishi va boshqalar darak beradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda etakchi o'rinlardan birini egallar ekan, u o'z navbatida jahon xo'jaligi rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir, avvalombor, kapitallar migratsiyasining jahon iqtisodiyotini o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi. Kapital ishlab chiqarishning kulay investitsiya muhiti mavjud sohalarni izlab, chegaralarni kesib o'tadi. Xalqaro investitsiyalar ko'pchilik mamlakatlar uchun ishlab chiqarishdagi kapital etishmasligi muammosini hal etish, investitsiya salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlatish imkonini beradi. Kapitalning chetga chiqishi xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatlararo kapitallar harakati ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va hamkorlikni mustahkamlaydi, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini chuqurlashtiradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi jahon savdosi rivojini rag'batlantirar ekan, u mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshiradi, jumladan, xalqaro korporatsiyalar filiallari o'rtasidagi oraliq mahsulotlar ayirboshlanishini tezlashtiradi. Moliyaviy bozorlarning o'zaro integratsiyalashuv va baynalminallashuv sharoitida kapitalning xalqaro takroriy ishlab chiqarilishi ta'minlanadi hamda xalqaro iqtisodiy aloqalar mexanizmining samaradorligi oshadi. Boshqa tomondan esa nazorat qilinmaydigan kapitallar oqimi mamlakat to'lov balansi muvozanatining buzilishiga va valyuta kursining sezilarli darajada tebranishiga olib keladi.

Deyarli barcha mamlakatlar amalda investitsiyalarning ham eksport, ham import qiladi (chunki, BXIlar asosan TMK orqali amalga oshiriladi) yoki investitsiyalarni etkazib beruvchi (qaerda TMK bosh boshqaruv bo'limi joylashgan bo'lsa) hamda qabul qiluvchi (TMK o'z shaxobchalari, bo'limlariga ega bo'lsa, ular BXIlar asosida harakat qilishadi) sifatida ishtirok etishadi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi bilan bog'liq oqibatlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishga bevosita ta'sir o'tkazadi. Tabiiyki, ulardan kutiladigan salbiy va ijobiy oqibatlar

rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, Shuningdek, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun turlichadir. Ammo har qanday sharoitda ham salbiy oqibatlarni chetlab o'tgan holda faqatgina ijobiy omillardan foydalanish mumkin emas. Xorijiy kapitalni jalb qilish bilan bog'liq o'ta murakkab va ziddiyatli jarayon bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatida bu borada ystuvor yunalishlarni belgilab olish lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda kapitallarni jalb qilish va chetga chiqarish borasidagi salbiy oqibatlarga qaramasdan kapitalni chetga olib chiqish tendentsiyasi tobora kuchaymoqda. Chetga kapital olib chiqishni faollashtiruvchi omillardan biri milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'sib borayotgan o'zaro bog'liqlik hisoblanadi. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi kapitallar xalqaro migratsiyasiga katta ta'sir o'tkazadi va uning harakatini tezlashtiradi. Kapital eksporti ayniqsa, bevosita investitsiyalar shaklida chetga olib chiqilishi ishlab chiqarishning xalqaro tus olishiga va xalqaro mahsulot deb atalmish mahsulotlarning yaratilishida asosiy omil hisoblanadi. Xalqaro kapitallar migratsiyasi jahon xo'jaligining rivojlanishida rag'batlantiruvchi omil sifatida yuzaga chiqishi bilan birgalikda xorijiy kapitalni jalb qiluvchi va eksport qiluvchi mamlakatlar uchun turli oqibatlarga olib keluvchi ta'sir o'tkazadi.

Kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun kapitallar migratsiyasi quyidagicha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- chetga chiqarilayotgan kapital o'rnini qoplovchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilmaslik chetga kapital chiqaruvchi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin;

- kapitalni eksport qiluvchi mamlakatlar uchun kapitalni chetga chiqarish ular bandlik darajasining pasayishiga olib keladi;

- chetga kapital chiqarish mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir kiladi.

Kapitalni kabul qiluvchi mamlakatlar uchun esa quyidagi ijobiy tomonlar xos:

- boshqariladigan kapital importi mamlakat iqtisodiy o'sishiga yordam beradi;

- jalb qilingan kapital qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi;

- xorijiy kapital yangi texnologiyalarni olib keladi, samarali menejment esa mamlakatda ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT)ni tezlashtiradi;

- kapitalning kirib kelishi retsipient mamlakat to'lov balansining

yaxshilanishiga olib keladi.

O'z navbatida kapitalni jalb qilishning salbiy oqibatlari ham mavjud:

-xorijiy kapital milliy kapitalning o'rnini egallab, uni foyda normasi yuqori tarmoqlardan siqib chiqaradi, natijada ma'lum sharoitlar ta'sirida mamlakat iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishi va uning iqtisodiy holati xavf ostida qolishi mumkin;

-kapital importi ko'pincha retsipient mamlakat bozorlarida o'z xayotiy tsiklini o'tab bo'lgan tovarlarni o'tkazish bilan bog'liq, Shuningdek, ishlab chiqarishdan sifatsizligi aniqlanganligi bois olib tashlangan tovarlar bilan bog'liq buladi;

-ssuda kapitali importi mamlakat tashqi qarzining ko'payishiga olib keladi;

-moliyaviy inqirozlar natijasida va fond bozorlaridan kapitalning oqib ketishi mamlakat valyutasining barqarorligiga va umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatga jiddiy zarar etkazadi. Misol uchun 1997 yilda janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliyaviy inqiroz va uning jahon iqtisodiyotiga ta'sirini keltirish mumkin.

TMKlarning ko'plab filiallari orqali kapital qo'yish ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyalashuviga olib keladi. Turli mamlakatlarning mustaqil yuridik kompaniyalari bir xalqaro korporatsiya doirasida tarmoqli, texnologik, detalli ixtisoslashuv orqali yaqin aloqada bo'lishadi. Kapital eksporti esa bu aloqalarni mustahkamlaydi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sanoatning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish, bandlilikni oshirish uchun salmoqli hajmdagi xorijiy kapitalni jalb etish bilan bog'liq iqtisodiy siyosatlar ham kapitallar migratsiyasini ragbatlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa investitsiya muhitini erkinlashtirish orqali xorijiy kapitalni jalb etish va bu orqali iqtisodiy rivojlanishga turtki berishga harakat qilishadi. Kapitallarning xalqaro harakatini rag'batlantiruvchi omillardan yana biri xalqaro moliyaviy tashkilotlar faoliyati bo'lib, ular kapitallar oqimini tartibga solib turishadi.

Mamlakatlar o'rtasida tuzilgan daromadlar va kapitallarni ikki karra soliqqa tortishning oldini olish maqsadidagi xalqaro kelishuvlar o'z navbatida mamlakatlar o'rtasidagi savdo, ilmiy-texnik hamda investitsiyalarni jalb qilish borasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

Amalda dunyodagi barcha mamlakatlar BXIlarni faol qo'llab-

quvvatlashmoqda. Ularning erkin harakati uchun qulay muhit yaratishga intilmoqda, mavjud cheklanishlar bekor qilinmoqda, amaldagi bozor raqobati uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Hozirgi sharoitda O'zbekiston kapitalni import qiluvchi mamlakat sifatida jahon maydoniga chiqmokda. Bu borada bir qator milliy manfaatlar hisobga olinadi. Kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hozircha etishmayotgan milliy resurslarni to'ldirishi, zamonaviy texnologiyalar, uskunalar, «nou xau»ni olib kirishi, xorijiy mutaxassislar, ekspert va konsultantlarni jalb qilish tufayli maxsulot sifati va ishchi kuchi malakasini oshirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, qo'shimcha ish joylari yaratadi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy kooperatsiya tufayli mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Qisqacha xulosalar

Globallashuv jarayoniga qo'shilish - bu dunyoning etakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Globallashuv jarayoniga iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi, raqobatning kuchayishi va boshqa bir qator omillar ham xosdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni, salmog'i mazkur davlatdagi investitsion muhitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muhit ko'p jixatdan xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishning xususiyatlari bilan baholanadi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslar tomonidan xorijiy investorlarni jalb etgan holda jahon bozorida chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotib olishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun asos yaratadi. Kioto Protokoli - Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konventsiyasiga 1997 yil 11 dekabrda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1999 yil 20 avgustda ratifikatsiya qilingan va 2005 yil 16 fevraldan

boshlab kuchga kirgan, parnik gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirish mexanizmlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Investitsiya loyihasi (loyiha) - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar kompleksidir.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda etakchi o'rinlardan birini egallar ekan, u o'z navbatida jahon xo'jaligi rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sir, avvalombor, kapitallar migratsiyasining jahon iqtisodiyotini o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi.

Tayanch iboralar:

Iqtisodiyotning globalizatsiyalashuvi, integratsiya, Kioto protokoli, investitsiya loyihalarini joriy qilishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik me'zonlari, investitsiya eksporti, investitsiyalar importi.

Nazorat uchun savollar:

1. Globallashuv jarayoniga qo'shilish nimani anglatadi?
2. Globallashuv jarayoniga xos bo'lgan qanday belgilar mavjud?
3. Kioto Protokoli qanday hujjat hisoblanadi?
4. Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi va investitsiya loyihalarini tayyorlashning o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konventsiyasining asosiy maqsadi nima?
6. Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish nimalarni o'z ichiga oladi?
7. Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha investitsiya loyihalariga nisbatan qo'llanadigan Barqaror rivojlanish milliy mezonlarini tushuntirib bering.
8. O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog'liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari qanday izchillikda ishlab chiqiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 24 dekabr 1998 yil soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 30 aprel 1998 yil soni.
3. A. O'lmasov, N. To'xliiev "Bozor iqtisodiyoti" T. Qomuslar bosh tahririyati, 1991 yil.
4. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006.
5. Investitsii: uchebnoe posobie / M.V. Chinenov i [dr.]; pod red. M.V. Chinenova. - M.: KNORUS, 2007. - 248 s.
6. Neshitoy A. S. Investitsii: Uchebnik. — 5-e izd., pererab. i ispr. - M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. - 372 s.
7. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. - 384 s.
8. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl.- M.: INFRA- M, 1997
9. Ekonomika SNG: 10 let reformirovaniya i integratsionnogo razvitiya. M.: Finstatinform, 2001.
10. Serov V.M. Investitsionniy menedjment. M., 2000 g.
11. «Delovoy partner Uzbekistana» Investitsionniy forum Uzbekistana 2003 g 6 may.
12. «Delovoy partner Uzbekistana» Pryame inostrannie investitsii v stranax vostochnoy evropi. 2003 g 8 may.
13. «Investitsionniy potentsial Uzbekistana» X.X. Imomov 3-y Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii 20-21 noyabrya 2003 goda.
14. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, www.stat.uz

4-mavzu. Xorijiy investorlar huquqiy holatining o'ziga xos xususiyatlari.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlarning xuquqlari.
3. Investitsiya shartnomalari va shartnomalarni tuzish tartibi.

1. O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy asoslari

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'grisida», "Investitsiya faoliyati to'grisida"gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizdagi siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy barqarorlik chet el investitsiyasi uchun har tomonlama qulay sharoit yaratmoqda. Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati natijasida qabul qilinayotgan imtiyozli muhitni yaratuvchi qonunlar chet ellik investorlarda tobora katta qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, 2008 yil 8 aprelda matbuotda e'lon qilingan "Bojxona imtiyozlarining qo'llanilish tartibini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonun chet el investorlarini jalb qilish bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomidir.

Ma'lumki, chet el investorlari mamlakatimiz hududida o'z ishlab chiqarish faoliyatini, qoidaga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etish yo'li bilan amalga oshiradilar. O'z ehtiyojlari uchun yurtimiz hududiga zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar, ularga butlovchi buyumlar, Shuningdek, xomashyo va materiallar olib kirayotgan xorijiy investorlar uchun amaldagi qonun hujjatlarida muayyan imtiyozlar nazarda tutilgan. Jumladan, "Boj tarifi to'g'risida"gi qonunning 33-moddasi va «Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunning 12-moddasiga muvofiq, xorijiy investorlar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulkka bojxona boji solinmas edi. Yangi qonun asosida - chet ellik investorlar uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida - yuqorida qayd etilgan har ikki qonunga o'zgartishlar kiritildi. Endilikda nainki chet ellik investorlar, ayni chog'da, ustav fondida chet el

investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ham o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun

O'zbekiston Respublikasiga olib kiradigan mol-mulk bo'yicha boj undirilishidan ozod qilindilar. Mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida "Boj tarifi to'g'risida"gi qonunning 33-moddasida va «Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida belgilangan imtiyozlar ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi qo'shma korxonalarga ham tatbiq etiladigan bo'ldi. Yangi qonunda ko'zda tutilgan imtiyozlar ana shu xayrli maqsadlarga erishishimizda muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qonun xalqimiz farovonligini oshirishda ham ulkan ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Xususan, aholini ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlari ochish, eng zamonaviy texnologiya va jihozlarni keltirish hisobiga ish unumi va samaradorligi oshishi muqarrar.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatiga doir huquqiy hujjatlar tizimida xorijiy investitsiyalar masalasiga bevosita taalluqli bo'lgan qonunlar muhim o'rin tutadi. Vaqt o'tishi bilan iqqisodiy o'sishning jadal borishini ta'minlash, respublika iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini jalb qilish va umuman jahon andozalariga erishish uchun xorijiy investitsiyalar sohasidagi mavjud qonunchilik bazasini qayta ko'rib chiqish zarurati ob'ektiv ravishda paydo bo'ldi.

Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etish strategiyasi bo'lajak chet ellik investorlarning manfaatlarini hamda milliy iqtisodiyotga zarar keltirmagan holda ularni qondirish imkoniyatlarini o'rganishga asoslanadi. Buning uchun bir tomondan, iqtisodiyotni tarkiban qayta qurishga qaratilgan bir qator aniq, loyihalarni amalga oshirish zarur bo'ladi va ikkinchi tomondan, ichki investitsiya resurslari cheklangan bir sharoitda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati juda yuqori baholanadi. Investitsiya muhitini yanada yaxshilash shartlaridan biri bank tizimini takomillashtirish, moliya bozorida raqobatni vujudga keltirish, naqd puldagi va naqd bo'lmagan puldagi operatsiyalarni amalga oshirishni yaxshilash, Shuningdek xorijiy investorlarni axborot bilan ta'minlashni yaxshilashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni boshlanish davridan chet el investitsiyalarini jalb qilishga tuzilmaviy qayta

qurishning hamda umumjahon iqtisodiy hamjamiyatiga kirib borishini tezlashtiruvchi omil sifatida asosiy ustuvorlik berildi. Hozirda, Respublikada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha huquqiy baza yaratildi, investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma barpo qilindi va bu jarayon takomillashib bormoqda. Bu borada, «Valyutani tartibga solish» to'g'risidagi qonun qabul qilindi, tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining vazifalari qayta ko'rib chiqildi, va uning milliy valyutani konvertatsiyasi hamda import kontraktlarini ro'yxatdai o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan vazifalari bekor qilindi. Jumladan, 2003 yilni 15 oktyabridan milliy valyutani joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha erkin konvertatsiyasining ochilishi mamlakatdagi investitsiya iqlimini yaxshilashga va xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishiga katta imkoniyatlar yaratdi. 1998 yil 30 aprelda Oliy Majlis tomonidan yangi hujjat — "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va "Chet el investorlari huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoyalash maqsadida yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari, Respublika tomonidan Adliya vazirligiga ularning manfaatlarini himoya qiluvchi davlat organi vakolati berildi. Jumladan, Adliya vazirligining tarkibida 2003 yildan boshlab chet el investorlari manfaatlariga zarar etish holatlarini oldini olish bo'yicha maxsus bo'linmalar tashkil etildi. Olib borilayotgan amaliy ishlar natijasida, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha xorijiy kapitalning tarkibida ma'lum bir siljishlar yuz berdi.

1. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlarning huquqlari.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

O'zbekistonda Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini ta'minlash maqsadida chet el investitsiyalarini jalb etishga strategik ustuvor vazifa sifatida qaralib, mazkur masala davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi etib belgilangan. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda. Eng muhimi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan. Bular Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda chet el investitsiyasini jalb etishning tegishli tashkiliy-huquqiy, institutsional tuzilmalari va infratizimini yaratish hamda mavjud shart-sharoitlarni izchil rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganini yaqqol tasdiqlaydi.

Ayniqsa, bunda qonuniy kafolatlarni yaratish alohida ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimizda ushbu sohani huquqiy tartibga soluvchi «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonun hamda bir qator boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonunlarni qabul qilish, ularga zamon talablariga mos ravishda o'zgartish va qo'shimchalar kiritib borishning sababi bitta - qaerda imtiyoz, qaerda sharoit bo'lsa, qonuniy kafolat beriladigan bo'lsa, shu yoqqa investitsiya keladi. «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonun yigirma ikkita moddadan iborat bo'lib, uning o'ninchi moddasida chet ellik investorlarning huquqlari alohida belgilab qo'yilgan.

Chet ellik investor xalqaro huquq printsiplari va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga («Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasi) muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;
- investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;
- o'zining investitsiyalariga va investitsiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish. Chet ellik

investorning qaroriga binoan investitsiyalarga, ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;

-O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati natijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari chet ellarda va O'zbekiston Respublikasida patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

-investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan uni moneliqsiz repatriatsiya qilish);

-O'zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzlar tariqasida pul mablag'lari jalb etish;

-o'z hisobvarag'idagi milliy valyuta mablag'laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish;

-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda er uchastkalariga doir huquqlarni sotib olish;

-O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, o'ziga mulk huquqi asosida qarashli bo'lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo'yicha ta'min sifatida foydalanish;

-o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;

-davlat boshqaruv organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) hamda qarorlari natijasida etkazilgan zararlarni undirish.

-chet ellik investor O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

3. Investitsiya shartnomalari va ularni tuzish tartibi

Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 2 avgustdagi 180-son qaroriga asosan "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risida nizom ishlab chiqilgan. Mazkur Nizomga Vazirlar Mahkamasining 07.07.2006 y. 133-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar

kiritilgan.

Ushbu Nizom «Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasiga muvofiq chet ellik investorlarga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) berishda ular bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan investitsiya shartnomalari tuzish tartibini belgilaydi. Chet ellik investorlar bilan ularning qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) berish bilan bog'liq bo'lmagan investitsiya majburiyatlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan shartnomalarni tuzish va amalga oshirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq chet ellik investorlarga quyidagi kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar):

- barqaror iqtisodiy o'sishni, mamlakat iqtisodiyotini progressiv tarkibiy o'zgartirishlarni ta'minlovchi ustuvor tarmoqlarni;

- respublikaning ishlab chiqarish va eksport salohiyotini mustahkamlash va kengaytirishni, respublikani jahon xo'jalik aloqalariga integratsiyalashni ta'minlovchi ustuvor loyihalarni amalga oshirilishi;

- xom ashyo va materiallarni qayta ishlashga, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga, aholini ish bilan ta'minlashga yo'naltirilgan kichik tadbirkorlik sohasidagi loyihalarni investitsiyalashning har bir aniq holatida beriladi.

Bunda soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar xorijiy investorlar tomonidan tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga faqat aniq belgilangan muddatga beriladi va muddatsiz tusda bo'lishi mumkin emas. Qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) beriladigan chet ellik investorlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida investor bilan investitsiya shartnomasi tuziladi. Investitsiya shartnomasi investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiya faoliyati ob'ektlariga nisbatan xuquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi. Investitsiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi Hukumati hamda chet ellik investor (investorlar) o'rtasida tuziladi. Investitsiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan chet ellik investorga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha

kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) berilgan taqdirda majburiy tartibda tuziladi. Bunday kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolatlari berishni, maxsus bojxona, soliq va to'lov rejimi yaratishni, loyihalarni amalga oshirish davlat monitoringini yuritishni, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga ko'maklashishni, investitsiya dasturiga kiritishni yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Investitsiya shartnomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- investitsiyalar ob'ekti va hajmi;

- investitsiya shartnomasining amal qilish muddati va shartlari;

- investorning, shu jumladan investitsiyalash hajmi, ishlab chiqarishning muayyan hajmini ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sifatining kafolatlangan darajasi, o'zi ishlab chiqargan tovarlar eksporti va ko'rsatadigan xizmatlari hajmi, O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida jalb etiladigan kreditlarning qaytarilishini ta'minlash, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlariga, mehnat qonunchiligiga va texnika xavfsizligiga rioya qilish, ishlab chiqarish faoliyatining boshqa sohalari bo'yicha xuquq va majburiyatlari;

- O'zbekiston Respublikasi Hukumatining, shu jumladan qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari berish bo'yicha xuquq va majburiyatlari;

- loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, pudrat ishlariga shartnomalar tuzish muddatlari, moliyalashtirish manbalari, loyihani amalga oshirish jadvallari, investitsiya loyihasining amalga oshirilishini texnik nazorat qilish tartibi to'g'risidagi axborotlar;

- chet ellik investor tomonidan uning majburiyatlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etish tartibi va muddatlari;

- tomonlarning investitsiya shartnomasi shartlariga rioya qilmaganligi uchun javobgarligi;

- o'zgartirishlar kiritish tartibi;

- investitsiya shartnomasining amal qilishini to'xtatish tartibi;

- investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etish tartibi va ko'rib chiqish joyi.

Investitsiya shartnomasida investitsiya loyihasi xususiyatiga qarab boshqa shartlar, shu jumladan:

- tomonlarning mintaqaning ishlab chiqarish va ijtimoiy

infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha o'zaro majburiyatlari;

- investorning shartnomani bajarish natijasida o'ziga tegishli mahsulotni va olingan foydani (daromadlarni) O'zbekiston Respublikasidan chetga chiqarish xuquqi;

- chet ellik investorning O'zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslari bo'lgan xodimlarni yollash va o'qitish bo'yicha majburiyatlari, texnologiyalardan foydalanish shartlari, Shuningdek investorning investitsiya loyihasini amalga oshirish tugallangandan keyin tashkil etilgan tashkilotning xodimlarini o'qitish bo'yicha majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

Chet ellik investor investitsiya shartnomasini tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga quyidagilarni taqdim etadi:

- investitsiya shartnomasining loyihasi;

- qonun hujjatlarida belgilangan hollarda vakolatli organlarda ekspertizadan o'tkazilgan texnik-iqtisodiy asoslash (texnik-iqtisodiy hisoblash) asosida bajarilgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar;

- investitsiya shartnomasi loyihasining huquqiy ekspertizasi yuzasidan - Adliya vazirligining xulosasi;

- chet ellik investorlarga va (yoki) tashkil etiladigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha ravishda soliq solish bo'yicha imtiyozlar va preferentsiyalar berish yuzasidan - Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi xulosalari.

Zarurat bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi chet ellik investordan investitsiya shartnomasi loyihasini baholash bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha materiallarni so'rab olishi mumkin. Chet ellik investor tomonidan taqdim etilgan investitsiya shartnomasi loyihasi va boshqa materiallar investitsiya shartnomasi loyihasi olingan kundan boshlab o'n to'rt ish kuni mobaynida vakolatli organlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Zarurat bo'lgan taqdirda, investitsiya shartnomasi qoidalarini kelishib olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda chet ellik investor (investorlar) o'rtasida muzokaralar o'tkaziladi. Chet ellik investor hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan imzolangan investitsiya shartnomasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga uni tasdiqlash to'g'risida Hukumat qarorini qabul qilish uchun kiritiladi. Agar investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisobi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lsa investitsiya shartnomasini tasdiqlash to'g'risidagi tegishli band investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisobi)ni tasdiqlash haqidagi Hukumat qarori loyihasiga kiritilishi mumkin. Agar investitsiya shartnomasida soliq hamda bojxona imtiyozlari va preferentsiyalari berish nazarda tutilsa bunday shartnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Chet ellik investor bilan investitsiya shartnomasi uni tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi, agar ushbu qarorda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa. Chet ellik investor investitsiya shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga (TIAISC) qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishi to'g'risida hisobotlar taqdim etadi. TIAISV investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning chet ellik investor tomonidan bajarilishini nazorat qiladi.

Qisqacha xulosalar

Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda chet el investitsiyasini jalb etishning tegishli tashkiliy-huquqiy, institutsional tuzilmalari va infratizimini yaratish hamda mavjud shart-sharoitlarni izchil rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, bunda qonuniy kafolatlarni yaratish alohida ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimizda ushbu sohani huquqiy tartibga soluvchi «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonun hamda bir qator boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonunlarni qabul qilish, ularga zamon talablariga mos ravishda o'zgartish va qo'shimchalar kiritib borishning sababi bitta - qaerda imtiyoz, qaerda sharoit bo'lsa, qonuniy kafolat beriladigan bo'lsa, shu yoqqa investitsiya keladi. «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonun yigirma ikkita moddadan iborat bo'lib, uning o'ninchi moddasida chet ellik investorlarning huquqlari alohida belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'grisida», "Investitsiya faoliyati to'grisida"gi qonunlar va

boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoyalash maqsadida yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari, Respublika tomonidan Adliya vazirligiga ularning manfaatlarini himoya qiluvchi davlat organi vakolati berildi. Jumladan, Adliya vazirligining tarkibida 2003 yildan boshlab chet el investorlari manfaatlariga zarar etish holatlarini oldini olish bo'yicha maxsus bo'linmalar tashkil etildi. Olib borilayotgan amaliy ishlar natijasida, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha xorijiy kapitalning tarkibida ma'lum bir siljishlar yuz berdi.

Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 2 avgustdagi 180-son qaroriga asosan "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risida nizom ishlab chiqilgan. Mazkur Nizomga Vazirlar Mahkamasining 07.07.2006 y. 133-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

Ushbu Nizom «Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasiga muvofiq chet ellik investorlarga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) berishda ular bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan investitsiya shartnomalari tuzish tartibini belgilaydi. Chet ellik investorlar bilan ularning qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) berish bilan bog'liq bo'lmagan investitsiya majburiyatlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan shartnomalarni tuzish va amalga oshirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar:

Investitsiya shartnomasi, fors-major holatlar, investitsiya hajmi, investitsiya shartnomasining amal qilish muddati, loyiha-smeta hujjatlari, pudrat shartnomalar,

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlar uchun berilgan xuquqlarni tavsiflab bering.
2. «Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
3. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning qanday huquqiy asoslari mavjud ?
4. "Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya

qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining mazmunini tushuntirib bering.

5. "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risidagi nizomning mohiyati nimalardan iborat ?
6. "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risidagi nizomga muvofiq chet ellik investorlarga qanday kafolatlar va himoya choralariga ega bo'ladi?
7. Investitsiya shartnomasining tarkibiga nimalar kiradi ?
8. Investitsiya shartnomasida investitsiya loyihasi xususiyatiga qarab qanday shartlar bo'lishi mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni xalq so'zi gazetasi 24 dekabr 1998 yil soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 30 aprel 1998 yil soni.
3. A. O'lmasov, N. To'xlijev "Bozor iqtisodiyoti" T. Qomuslar bosh tahririyati, 1991 yil.
4. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006.
5. Investitsii: uchebnoe posobie / M.V. Chinenov i [dr.]; pod red. M.V. Chinenova. - M.: KNORUS, 2007. - 248 s.
6. Neshitoy A. S. Investitsii: Uchebnik. — 5-e izd., pererab. i ispr. - M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. - 372 s.
7. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. - 384 s.
8. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl.- M.: INFRA- M, 1997
9. Ekonomika SNG: 10 let reformirovaniya i integratsionnogo razvitiya. M.: Finstatinform, 2001.
10. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, www.stat.uz

5-mavzu. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy - uslubiy asoslari

Reja:

1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga jalb qilishning ob'ektiv zarurligi.
2. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish shakllari va uni tartibga solishning jahon tajribasi.
3. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlari.
4. O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati.

1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga jalb qilishning ob'ektiv zarurligi.

Jahon iqtisodiyoti globallashib, savdo yo'lidagi to'siqlar kamayib, soliq qonunlari va tartibga soluvchi rejimlar erkinlashib borayotgan hozirgi sharoitda Chetdan kiritiladigan investitsiya oqimlari tez sur'atlar bilan o'smoqda. Bevosita chet el investitsiyalarining dunyo bo'yicha umumiy hajmi 1980 yildagiga qaraganda 14 baravardan ziyod o'sib, 2007 yil holatiga, jami 11 trln AQSH dollariga etdi. Hozirgi vaqtda butun dunyoda 64 mingga yaqin mamlakatlararo kompaniyalar mavjud bo'lib, ular 870 mingta xorijiy shu'ba korxonalari faoliyatini nazorat qilib turadi. Ushbu korxonalar sotilayotgan mahsulotlar hajmi taxminan 18 trln. AQSH dollarini tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida, butun jahon eksporti hajmidan 2 baravaridan ziyoddur.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o'rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to'liq aks ettirilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida», "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mulkchilikning turli shakllari tarkib topishi investitsiyalarning rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Mulkchilikning turli shakllarining vujudga kelishi munosabati bilan kapitalning sohalardagi o'zgaruvchanligi, uning oqimi, hududlarga taqsimlanishi tezlashdi.

Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir xuquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar:

1. Ko'rilgan zararlarni qoplanishi uchun kafolatlar;
2. Xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar;
3. Soliqqa tortish tizimida xorijiy investorlarga oid belgilangan imtiyozlar;
4. Foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;
5. Milliy so'mda va chet el valyutasida olingan foydalarni o'tkazish va olib chiqib ketish imkoniyati;
6. Bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
7. Xorijiy investorlarning mulklari va ularning o'zlarini xavf-xatarlardan sug'urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi.

2007 yilda davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganidek, 2007 yilgi investitsiya dasturi doirasida 1 milliard AQSH dollaridan ko'proq miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb etilishi mo'ljallangan edi. Bu mablag'ning salkam 700 million dollari yoki qariyb 68 foizini to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etishi ko'zda tutilgan edi. Bunda to'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalari va kreditlar hajmining oshganligi ijobiy holdir. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida 2007 yil 20 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2007-2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora - tadbirlari to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi.

Bu qarorga asosan, investorlar tomonidan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritiladigan mablag' va mulk daromad (foyda), ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish hamda qo'shilgan qiymat soliqlariga tortilmaydi, xorijiy valyutadagi

qo'yilmalar esa majburiy tarzda sotilmaydi, Shuningdek, investitsiya davri mobaynida tuziladigan oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq korxonaning oldingi qarzini qoplash hisob raqamiga majburiy tarzda undirib olinmaydi. Bundan tashqari davlat ulushi potentsial investorlarga sotilayotgan korxonaning byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari restrukturizatsiya qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu Qarori O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan yuksalishi va halqaro jahon xo'jalik munosabatlariga integratsiyalashuvining g'oyat muhim va texnik qayta jihozlashga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish yo'lidagi strategik yo'nalishini ham belgilab beradi.

Mamlakatda 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'ni 9 milliard 700 million AQSH dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi.

Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi. Shu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 28,8 foizni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 2 milliard 400 million dollardan ziyodni tashkil etdi.

Barcha moliyaviy manbalar hisobidan texnik va texnologik qayta jihozlash uchun yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmi 3 milliard 600 million dollardan oshgani yoki 2010 yildagi barcha kapital qo'yilmalarning 37,5 foizini tashkil etgani prinsipial muhim ahamiyatga egadir.

Investitsiya dasturi doirasida 2010 yilda 200 dan ziyod loyiha amalga oshirildi. Jumladan, yiliga 50 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan "M-300" rusumidagi yengil avtomobil ishlab chiqarishni o'zlashtirish", 200 ming tonna kaliy o'g'itlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan "Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodi qurilishi", "Xonjiza konida polimetall rudalarga ishlov berish" kabi yirik loyihalar, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "Navoiyazot" kompaniyasining bir qator yangi obyektlarini barpo etish ishlari va boshqa loyihalar nihoyasiga yetkazilgan.

2010 yilda "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida xorijiy investorlar bilan erishilgan bitimlar doirasida 19 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Ana shu loyihalar doirasida jahon

bozorida xaridorgir bo'lgan zamonaviy mahsulot ishlab chiqaradigan 7 ta korxona foydalanishga topshirildi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqiyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o'z mablag'larini mamlakat iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Ular quyidagi chizmada o'z ifodasini topgan.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

2..Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish shakllari va uni tartibga solishning jahon tajribasi

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud. Ular quyidagi chizmada aks ettirilgan.


Qo'shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo'shma

korxonalarni tashkil etishdir. O'zbekiston Respublikasida qo'shma korxona deganda, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150 ming AQSH dollariga teng bo'lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytiladi. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona nizom jamg'armasining 150 ming AQSH dollaridan kam bo'lmasligi sifatsiz mahsulotlarining oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan kichik qo'shma korxonalarning keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarni tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqda. O'zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli sohalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o'z muluklari bir qismini ajratib, shu'ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu'ba korxonalarga ham qo'shma korxonalarga qo'yilgan talablar belgilangan.

1-chizma

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish usullari



1-chizmada aks ettirilgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllarini quyida alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o'z kapitallarini jamlagan holda halqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.

Kontsessiya shartnomalari - bu tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o'zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi esa chet el investitsiyalari ishtirokida asbob - uskunalar, texnika - texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olish.

Tenderlar esa tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir.

Erkin iqtisodiy hudud - bu ma'lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiyot hududlar to'g'risida"gi qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta'rif berilgan: "Erkin iqtisodiy hududlar - mintaqani jadal ijtimoiy — iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir". Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo'llab-quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohotchi bo'lishi lozim. Davlatning bosh islohotchi sifatida qatnashishi xorijiy tajribasida aniq namoyon bo'ladi, masalan, Xitoy hukumati 1 dollar chet el investitsiyalarini jalb etish uchun 4 dollar o'z mablag'larini safarbar etgan. Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kiritib boshlagan, bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Rossiyada yaratilgan erkin iqtisodiy hududlarga Naxodka, Kaliningrad viloyati, Sankt-Peterburg shahri va boshqalar kiradi. Qozog'istondagi birinchi erkin iqtisodiy hududlar 1991 yilda paydo bo'lgan. Bular: Jezqozg'on viloyatdagi Jayren-Atasu, Kostanay viloyatdagi Lisakov va Olmaota shahardagi "Otakent" erkin iqtisodiy hududlaridir.

Moliyaviy aktivlar - bu qimmatli kog'ozlar bo'lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, Shuningdek, investitsiya faoliyatining sub'ekti va ob'ektlarida ham investitsion

jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish muvofiq hisblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada rag'batlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. Barcha xorijiy investitsiyalargarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy havfsizlik bilan bog'liq. Shunisi harakterliki, kapitalni chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

3.O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlari

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. 2008 yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 6,4 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. Bu 2007 yil bilan taqqoslaganda, 28,3 foizga ko'p bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investitsiyalar hajmi 23 foizni tashkil etdi. O'zlashtirilgan barcha investitsiyalarning 50 foizga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilganini ta'kidlash darkor.¹¹

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan. Bugungi kunda

¹¹ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.

yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda. Eng muhimi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan. 2007 yil davomida iqtisodiyotimizga kiritilgan investitsiyalarning 70 foizdan ortig'i ishlab chiqarish ob'ektlari qurilishiga, jumladan, salkam 50 foizi korxonalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilishga yo'naltirildi. O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 58 foizga ortdi. Ularning 76 foizi to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalardir.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan va to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmining yillar bo'yicha dinamikasi

Yil	Xorijiy investitsiyalar (mln. AQSH dollari)	To'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar (mln. AQSH dollari)
2001	823.9	96.5
2002	516.5	80.1
2003	602.1	166.7
2004	754.6	333.8
2005	746.6	545.5
2006	895.7	683.8
2007	1009,3	768,4
2008	1700	1258

Manba: Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ma'lumotlari

Investitsiya dasturi doirasida 2007 yili 300 dan ziyod yirik investitsiya loyihasi nihoyasiga etkazildi, xorijiy investitsiyalar ishtirokida 700 dan ziyod yangi korxona barpo etildi. Qo'shma korxonalar birinchi galda yuksak texnologiyaga asoslangan tarmoqlarda - engil, oziq-ovqat, elektrotexnika, kimyo va neftkimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari sanoatida, telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasida tashkil etilayotgani e'tiborga loyiqdir.

2.-jadvalda ko'rinib turibdiki, 2008 yilda jami 8483,7 mlrd.so'mlik investitsiya mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarining asosiy kapitaliga

kiritilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, investitsiyalarning asosiy qismi iqtisodiyotning transport va aloqa tarmoqlariga yo'naltirilgan bo'lib u 2227,6 mlrd.so'mni yoki umumiy investitsiya hajmiga nisbatan 26,3 % tashkil etdi. Shuningdek yoqilg'i-energetika sanoatiga 1170,2 mlrd. so'm yoki umumiy investitsiya hajmiga nisbatan 13,8 %, geologiya va geologiya qidiruv sohasi uchun 903,8 yoki umumiy investitsiya hajmiga nisbatan 10,7 % va metallurgiya sanoatiga 430,2 mlrd.so'm (5,1%) investitsiya kiritilgan.

2-jadval

2008 yilda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlarining asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi

Trmoqlar	Investitsiya hajmi (mlrd.so'm)	Jamiga nisbatan %
Hammasi	8483,7	100
Ishlab chiqarish sohasiga	6397,5	75,4
sanoat	2556,6	30,1
jumladan:		
yoqilg'i-energetika sanoati	1170,2	13,8
metallurgiya sanoati	430,2	5,1
kimyo va neft kimyosi sanoati	164,4	1,9
mashinasozlik sanoati	190,2	2,2
engil sanoat	240,1	2,8
Oziq-ovqat sanoati	198,1	2,3
qurilish materiallari sanoati	100,3	1,2
Qishloq xo'jaligi	258,4	3,1
Qurilish	191,5	2,3
Transport va aloqa	2227,6	26,3
Savdo	212,1	2,5
Geologiya va geolog.qidiruv	903,8	10,7
boshqalar	47,5	0,4
Ishlab chiqarish uchun mo'ljallanmagan maqsadlarda	2086,2	24,6
Uy-joy qurilishi	841,8	9,9
Kommunal xo'jalik	123,6	1,5
Ta'lim	134,4	1,6
Sog'liqni saqlash	748,9	8,8
Madaniyat va san'at	43,3	0,5
boshqalar	194,2	2,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi bu - davlat

tomonidan xorijiy investitsiyalarni ko'llab quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo'lgan davlat tomonidan rag'batlantiriluvchi yo'nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag'larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.

4.O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati

Davlatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan O'zbekiston Davlati o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda.

Tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar, tarmoqlar va korxona investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida yangi tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlari, ish joylarga bo'lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta'minlashga erishish yo'lida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;

- to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;

- ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta'minlash;

-mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni kuchaytirish;

-samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish soxasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg'unlashtirish;

-iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;

-aholining ish bilan bandligini va hamda iqtisodiy faolligini oshirish;

-hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to'liq shakllantirish.

O'zbekiston Respublikasining tuzilmaviy investitsiya siyosati:

1. Hududlar investitsiya siyosati;
2. Tarmoqlar investitsiya siyosati;
3. Korxonalar investitsiya siyosati.

Tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib borishda muhim strategiyalar ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning mohiyati kichik iqtisodiy sub'ektlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, investitsiya muhitini juda qulayligi xorijiy investorlar uzoq muddatli investitsiya loyihalarini tuzishda asos bo'lmoqda. Bundan tashqari, jalb etilgan chet el investitsiyalar va kreditlar uchun kafolatlar taqdim etish, soliq va bojxona ta'riflari bo'yicha imtiyozlar, zayom va foiz stavkalarini subsidiyalash kabi shart-sharoitlar yaratilmoqda, o'nlab qonuniy hujjatlar amal qilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining asosiy yunalishlari orasida quyidagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

-investitsiya jalb qilish uchun xalqaro me'yorlar va konventsionalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;

-respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni etkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochiq eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish;

-ishlab chiqarish bilan bog'liq investitsiyalarni kiritishga ko'maklashish;

-mamlakatning kredit kobiliyatini qo'llab-quvvatlash;

-mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya

muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarni kiritishga yordam berish.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi – ichki va tashqi siyosatning umumiy yo'nalishi hisobga olingan ijtimoiy-iqtisodiy va xususiy xo'jalik qarorlari majmuasi bo'lib, mablag'lardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida mamlakat ichiga va xorijga kiritilgan sarmoyalarning yo'nalishi va joylashuvini belgilaydi. Ishlab chiqarish salohiyatining o'sishi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish hajmi va sifatining ko'tarilishi va butun infrastrukturaning rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiya va investitsiya dasturiga bog'liq. Investitsiya dasturi davlatning investitsiya mablag'larini mamlakatda moddiy boyliklar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun safarbar kilish vazifasidan iboratdir. Tashkiliy-huquqiy jihatdan davlat siyosatining bu sohasi uning tegishli idoralari tomonidan ushbu siyosatning maqsad va vazifalari amalga oshiriladigan faoliyatdir. Investitsiya dasturining tashqi tomoni ham bor bo'lib, u iqtisodiyotni zamonaviy texnika, texnologiya va ishlab chixrishni tashkil etish asosida jadal rivojlantirish vazifasini hal etish uchun iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb etishni o'z ichiga oladi. Bu vazifani qo'shma korxonalar barpo qilish, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy xususiy investitsiyalardan foydalanish yo'li bilan hal etish mumkin. Shu munosabat bilan xorijiy investitsiyalarni huquqiy tartibga solish masalalari dolzarblashadi. Aniq, samarador va xayotiy rioya qilinadigan qonunlariga ega bo'lgan ochiq va liberal investitsiya dasturi xorijiy investitsiyalarni jalb etishning qudratli qurolidir. Bunday siyosatni ishlab chiqish respublikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolishi kerak.

Xorijiy investitsiya faqat ishlab chiqarish va bozor rivojlangan sharoitda, ya'ni xalqaro bozordagi sarmoya eksporti bungacha mavjud bo'lgan tovarlar eksportidan yuqori bo'lganda paydo bo'ladi.

Investitsiyalarning miqdoriy o'sishi ichki investitsiya dasturi (mablag'larni noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish hisobiga safarbar qilish) vositasida ta'minlanadi. Investitsiyalar sifatining o'sishi ichki (fan va texnika yutuqlarini tadbiq qilish) va tegishli tashqi investitsiya dasturi (xorijiy investitsiyalar-texnik tarkibi va xususiyatiga ko'ra yuqoriroq bo'lganlarini jalb etish) vositasida ta'minlanadi. Ichki investitsiya dasturi ham tashqi investitsiya dasturi ham, har ikkalasi investitsiyalashning turli manbalaridan turli shakllardagi investitsiyalarni jalb etish zaruriyatini nazarda tutadi. Investitsiya dasturining mohiyati va

mazmuni eng qulay huquqiy vositalarni topish – investitsiya jarayoni va investitsiyani huquqiy tartibga solishdan iborat. Ratsional investitsiya dasturini amalga oshirayotgan davlat ixtiyorida huquqiy tartibga solishning ikki vositasi mavjud: milliy-huquqiy va xalqaro-huquqiy. Davlatning tashqi investitsiya dasturi huquqiy nuqtai nazardan xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muxit yaratishdan iborat bo'lib, bu milliy huquqiy tartibot, milliy huquqiy shakllar va normalardan (konunlar va boshka me'yoriy aktlar) xamda xalqaro-huquqiy tartibot, xalqaro-huquqiy shakl va normalardan (ikki va ko'p tomonlama shartnomalar va bitimlar) foydalanishni nazarda tutadi. Bularning barchasida ham ichki ham tashqi investitsiya siyosatlari hisobga olinishi shart.

Investitsiya dasturining aniq maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan asosiy vazifasi davlatning jamiyatda moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun investitsiya mablag'larini safarbar qilish bo'yicha faoliyat yuritishdan iborat. Investitsiya faoliyati (ingl. investment activity) – bu investitsiya kiritish va investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha olib boriladigan amaliy harakatlarning yig'indisidir.

Investitsiya dasturi alohida davlatlar tomonidan investitsiya munosabatlari sub'ektlarining (davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy) investitsiya faoliyatini kuchaytirish maqsadida choralar tizimini nazarda tutadi. Investitsiya faoliyati esa uning sub'ektlarining investitsiyani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatlari yig'indisidir. Investitsiya faoliyati tushunchasi investitsiya dasturi tushunchasining tarkibiy qismi bo'lib, buni O'zbekiston Respublikasi «Investitsiya faoliyati haqida»gi qonunining 14 va 15 moddalarida o'z aksini topgan.

Investitsiya dasturi tovar-pul munosabatlarini takomillashtirish sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur siyosat rivojlangan tovar-pul munosabatlarida uncha katta ahamiyatga ega emas. Chunki o'z-o'zini boshqaruvchi iqtisodiyot sharoitida investitsiya dasturi asosan tartibga soluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Investitsion loyihalarning manziliy dasturi har yili ishlab chiqilib, moliyalashning asosiy manbalari asosida investitsion loyihalarning kerakli ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Investitsion loyihalarning manziliy dasturiga kiritishning zarur shartlari mavjud:

- texnik - iqtisodiy asoslarning mavjudligi;

- shartnomada ko'rsatilgan kreditlarning vaqtida qoplanganligi va moliyalashtirish manbalari tasdig'ining mavjudligi ham zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 420-sonli "O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha me'yoriy huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ishlab chiqildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi investitsion dasturi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning muhim qismi bo'lib davlat investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlarini aks ettiradi. Dasturning asosiy maqsadi bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotini dinamik rivojlanishiga, O'zbekiston iqtisodiyotning zarur strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirishga, iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar asosida jahon iqtisodiy tizimiga keng integratsiyasi, tabiiy mineral xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hisoblanadi.

Dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kapital qo'yimlarni moliyalashtirish manbalari yordamida prognoz qilish;
- muhim investitsion takliflarning taqqoslama ro'yxati;
- investitsion loyihalarning manzilli dasturi.

Dastur quyidagilarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kapital qo'yimlar prognozini o'z ichiga oladi:

- tabiiy mineral xom ashyo moliyaviy moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning samarasini oshirish;
- davlat byudjeti respublikaning ichki va tashqi qarzдорligi bilan bog'liqligi;
- moliyaviy mablag'lar bilan tasdiqlangan ob'ektlarni va kreditlar qaytarilishi, Shuningdek, qurilish va qurish materiallari sanoatidagi kuchlarning balanslashtirishni kiritish;
- iqtisodiy va ekologik jihatdan asoslangan yangi korxonalarni joylashtirish va regionlarning kompleks rivojlanishini hisobga olgan holda faoliyat yurituvchi korxonalarda qo'shimcha kuchlarni yaratish hamda ishlab chiqarish, noishlab chiqarish infrastrukturasidagi va mehnat resurslaridagi tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturining moliyalashtirishda asosan xorijiy investitsiyalar katta o'rin egallaydi.

Qisqacha xulosalar

Chet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir xuquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar, tarmoqlar va korxona investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada rag'batlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. Barcha xorijiy investitsiyalargarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy havfsizlik bilan bog'liq. Shunisi harakterliki, kapitalni chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi bu - davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni ko'llab quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo'lgan davlat tomonidan rag'batlantiriluvchi yo'nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va ular kiritgan mablag'larning yuqori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal huquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.

Tayanch iboralar:

Investitsiyalarni jalb qilish usullari va shakllari, tuzilmaviy investitsiya siyosati, tuzilmaviy investitsiya siyosati, hududlar investitsiya siyosati, tarmoqlar investitsiya siyosati, korxonalar investitsiya siyosati

Nazorat uchun savollar

1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishning ob'ektiv zarurligini asoslab bering.
3. O'zbekiston Respublikasida yaratilgan qanday imtiyozli moliyaviy sharoitlar mavjud?
4. O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati qanday o'ziga xos jihatlarga ega?
5. Tuzilmaviy investitsiya siyosati nima ?
6. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishning qanday shakllari mavjud ?
7. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni jalb qilishning qaysi asosiy yo'nalishlarini bilasiz ?
8. Investitsiya dasturining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ?
9. O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturining mohiyatini tushuntirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 24 dekabr 1998 yil soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 30 aprel 1998 yil soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2007 -2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora - tadbirlari to'g'risida»gi farmoni Xalq so'zi gazetasi 2007 yil 20 iyul soni. 1-2 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" n. 2009 y.
5. Nematov I.U. «Xorijiy investitsiyalar» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua -T.: TDIU, 2009.
6. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006.

7. Investitsii: uchebnoe posobie / M.V. Chinenov i [dr.]; pod red. M.V. Chinenova. - M.: KNORUS, 2007. - 248 s.
8. Neshitoy A. S. Investitsii: Uchebnik. - 5-e izd., pererab. i ispr. - M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. - 372 s.
9. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. - 384 s.
10. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, www.stat.uz

6-mavzu. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun imtiyozlar.
2. Qo'shma korxonalarni tashkil etishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish
3. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish.
4. O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini rivojlantirish muammolari
5. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihatdan yondashuv

1. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun imtiyozlar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator engilliklar, imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o'z ijobiy samarasini bermoqda. Masalan, Respublikamizda xorijiy investorlar o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkidan boj to'lovi olinmaydi, Respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga sarf etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari daromad (foyda) solig'idan 7 yil muddatga ozod etilgan, korxona jamg'armasida xorijiy investitsiya mablag'lari hissasi 50% va undan yuqori bo'lsa, ular 2 yil muddatga daromad (foyda) solig'idan ozod qilingan va boshqa soliq imtiyozlari belgilangan.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslanildi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;
- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb

etishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani etkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;

- mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab

chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi. Sir emaski, o'z mablag'ini biror mamlakat iqtisodiyotiga kiritmoqchi bo'lgan chet ellik sarmoyador birinchi navbatda o'zi uchun yaratilgan imtiyoz va engilliklarni bilishni istaydi. Shu o'rinda «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonunga muvofiq chet ellik investorlar o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, Shuningdek chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj to'lovi olinmasligini aytish mumkin.

O'zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlarsiz istalgancha chet davlatga o'tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari xorijiy investorlar Respublika banklarida hech bir cheklovlarsiz istalgan valyutada hisob raqamiga ega bo'lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxona amaldagi qonunlarga binoan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalanish va boshqa xo'jalik ishlarini yuritish uchun kontsessiyalar berilishi mumkin. Kontsession shartnomalar xorijiy investorlar bilan O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining

vakil qilingan organlari o'rtasida tuziladi. Xorijiy investitsiyalari bo'lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxona mulkidan o'zining hissasini korxona mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalarning xo'jalik ishlarida hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida olib borilishi lozim.

Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan shart-sharoitlar xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko'rsatilgan shart-sharoitlar farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yurgiziladi. Shunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O'zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga etkazildi va amalda qo'llanilmokda. Bu faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq iste'moli va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliylashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtlarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko'rsatilgan zarar miqdorida kompensatsiya qilanadi.

Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari orqali qilingan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish maqsadida investorlarga bir qator imtiyozlar (iqtisodiy platforma) beriladi.

Xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, xom ashyo etkazib beruvchilardan tashqari) ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab:

- daromad (foyda) solig'idan 1-yil – 25%, 2-yil – 50%, 3-yildan 100%, qishloq hududida 1-yil ozod qilinadi;

-mulk solig'idan 2 yilga ozod qilinadi;

-ishlab chiqargan mahsulotining 30% ortig'i eksportga chiqsa, 50%ga daromad (foyda solig'i), 15-30% eksportga chiqarilsa, 30% daromad (foyda) solig'idan ozod qilinadi;

-ishlab chiqarish bilan band bo'lsa, er solig'idan 2 yilga ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida alohida sohalarga imtiyozlar berish ko'zda tutilgan. Unga ko'ra neft va gaz konlarini ochish va qidirish ishlariga xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan korxonalar ushbu ishlarni amalga oshirish davrida barcha soliqlardan, Shuningdek ushbu ishlarni amalga oshirish uchun zarur uskunalarni import qilishda bojlardan ozod qilinadi.

Mazkur soha korxonasi chet ellik hamkorlar bilan birga ochilsa:

- neft va gaz qazib chiqarilgan kundan boshlab 7 yilga daromad (foyda) solig'idan;
- xorijiy hamkorlar ulushi kapitalidan olinadigan daromad va mulk solig'idan ozod qilinadi.

Engil sanoat sohasida:

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar qo'shimcha qiymat solig'idandan tashqari barcha soliqlardan ozod;
- o'z ehtiyoji uchun ishlab chiqarish uskunalari, ehtiyot qismlarini import qilishda korxonalar bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi.

2.Qo'shma korxonalarni tashkil etishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining rivojlanib borishi, foyda olishning turli yo'llarini amalga tatbiq etishga olib kelmoqda. Agarda avval korxonalarda asosiy daromad o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan iborat bo'ladigan bo'lsa, bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda investitsiya va moliyaviy daromad olishga kengroq e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda investor oldida turgan asosiy maqsad optimal investitsiya portfelini shakllantirish bo'lib, uning ushbu portfel tarkibiga kiruvchiga investitsiya qimmatliklarini, boshqacha aytganda, investtsiya mulk ob'ektlarini qanday joylashtirishi ham muhim hisoblanadi. Bozor munosabatlari rivojlanayotgan bugungi kunda investorning o'z mulkini faqat korxonaning muomalaviy faoliyatiga emas, Shuningdek

investitsiya faoliyatiga ham yo'naltirilganligi, oxir-oqibatda, investor olayotgan daromadning oshishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda investor mulkini qaysi faoliyatga biriktirishi ham muhim masalalar qatoriga kiradi. Jumladan, investor mulki tarkibida bo'lgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mulklari investitsiya jarayonlariga ko'proq jalb qilinsa, uning oladigan daromadi yanada oshishi mumkin. Investitsiya faoliyatining vositasi hisoblangan mulk barcha ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishlarda ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etib, ularning xususiyatlarini belgilab beradi. Har bir ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishda mulkchilik turli xil ijtimoiy munosabatlarda rivojlangan bo'lib, mulkchilikni tavsiflanganda uning iqtisodiy mazmunini hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri qo'shma korxonalar hisoblanadi. Qo'shma korxonalar tashkil etish korxona va tashkilotlarning chet ellik sheriklar bilan aloqasini yuksaltiradi, mamlakat hududida xorijlik tadbirkorliklarga keng sharoit yaratadi, mamlakat hududiga xorijiy investitsiyalarini jalb etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri bu qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berilishidir. Hozirgi kunda xorijlik ishbilarmonlar O'zbekistonni o'zlari uchun qulay va ishonchli sherik deb hisoblaydilar, chunki respublikamizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratildi. Natijada ularda o'z sarmoyalarini respublikamizda joylashtirish va biz bilan hamkorlik qilish istagi ortib bormoqda. Respublikamizda yaratilgan qulay investitsion muhitning asosiy omillari - respublikamizdagi qulay siyosiy barqarorlik, boy xom-ashyo resurslarining mavjudligi, qo'shma tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilganligidir.

Qo'shma korxonalarning tashkil etilishi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishni jadallashtiradi va xalqaro doirada mavqei ortishiga olib keladi. Qo'shma korxonalarning ahamiyatli tomoni olingan foydani taqsimlash, sarfni qoplash, korxona faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishdadir. Chet el investitsiyalarini respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etish to'g'risidagi qonun-hujjatlariga binoan, korxonaning nizom fondiga ta'sischilarning o'z ulushi bo'yicha ishtirok etishi, korxonalarning mulki, aktsiyasi va boshqa turdagi qog'ozlarni sotib olishi, mahalliy fuqarolar bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda erlarni sotib olish ko'rinishlarida ko'proq jalb etilmoqda.

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan maxsulotlar ishlab chikaruvchi eski texnikalardan tezrok kugilish imkonini beradi;

- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilror boshkaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orkali mexnat unumdorligi oshiriladi;

- jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli maxsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga erkin konvertatsiya qiliadigan valyutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

Yuqori texnik saviyadagi tayyor mahsulotlar ulushi oshirilishi quyidagi jihatlariga bog'liq:

- xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O'zbekistondagi eksport qiluvchi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko'maklashish;

- yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi maxsulotlar ishlab chiqarilishi soha va soha ichi tizimi yaxshilanishiga xizmat qiladi;

- eksportning intellektual mulk ob'ektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko'rsatish kabi turlarini rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarning jahon xo'jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish;

- ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yo'nalishini beruvchi shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;

- innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo'llab-quvvatlashning eng maqbul uyg'unlashuvi asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasigacha etkazish;

- o'zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldagi etakchi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan xamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;

- yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish, tijorat va texnologiya menejmenti sohasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy

bozorlarning konyunkturasi, sig'imi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan taxliliy ma'lumotlarni o'rganish.

3.To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish

Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, eksport hajmini oshirishga imkon yaratayotganligiga amin bo'lish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib va ortib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'lamdor demokratik va bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligidan dalolatdir.

Rivojlangan mamlakatlar orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, ya'ni foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga qiziqishi ortadi. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi echim hisoblanadi, ya'ni qaerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha erdagi bozorga ko'proq intiladi. Shuningdek, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biriga aylandi. Bu, shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni qabul qilindi. Ushbu farmomon mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan. Farmonning ahamiyatli tomoni

shundaki, u xususiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan. Farmonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni har tomonlama qulay, ortiqcha ishchi kuchiga ega bo'lgan bir qator viloyatlarning qishloq aholi punktlarida joylashtirilishining belgilanishi mamlakatimizda bandlik masalalarini ijobiy hal etishga qaratilgan. Huquqiy kafolatlarning aniq va oddiyliigi sarmoyadorlarning investitsiya kiritish haqida qaror qabul qilishini tezlashtirish bilan birga, ularga mavjud xatarlarni ham baholash imkoniyatini yaratadi. Davlatimiz iqtisodiy siyosati ko'proq to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilganligi bois, turli shakldagi investitsiyalar oqimi yildan-yilga oshib bormoqda. O'z navbatida, respublika mintaqalaridagi boy mineral-xom ashyo resurslari, etarli miqdordagi malakali ishchi kuchlari, toza atrof muhit, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi omillar shubhasiz xorijiy investitsiyalar oqimining yanada ko'payishiga, respublika mintaqalarida faoliyat yuritadigan korxonalar rivojiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz hududlarida bugungi kunda to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etish va chet el investitsiyasi ishtirokidagi qo'shma korxonalarning tashkil etilishini ayrim viloyatlar misolda ko'rish mumkin. Yurtimizning aholisi ko'p bo'lgan viloyatlari va qishloq aholi punktlarida to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar asosida xorijiy investitsiyali korxonalar tashkil qilingan bo'lib, farmonda keltirilgan imtiyozlardan foydalanmoqdalar. Xususan, Farmonda keltirilgan shartlar asosida 10 ta korxona daromad (foyda) solig'i, mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, va (yoki) yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod qilingan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Yuniver» qo'shma korxonasi, «To'rtko'lteks» qo'shma korxonasi, Andijon viloyatida «Oltinko'l Tekstil» qo'shma korxonasi, Namangan viloyatidagi «Marmar-F» qo'shma korxonasi, Sirdaryo viloyatidagi «Lola Model» qo'shma korxonasi, Surxondaryo viloyatidagi «Surxonteks» qo'shma korxonasi hamda Xorazm viloyatidagi «Urgench yog'» qo'shma korxonasi shular jumlasidandir. Shuningdek, Farg'ona viloyatining qishloq aholi punktlarida to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, yangi qo'shma korxonalar tashkil qilingan, masalan «Molochnaya Dolina», «Unimobile» va «Aziya Paints Keramik» qo'shma korxonalari Farmonda keltirilgan imtiyozlardan foydalanmoqdalar.

Mamlakatimizga bu tarzda sarmoya oqib kelayotgani esa xorijiy

investorlar, ya'ni chet ellik sheriklarimiz respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi demokratik va bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligini tan olgani, ularning biz bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanining yana bir tasdig'idir.

2005 yilning 1 iyulidan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovi to'lashdan to'lashdan ozod qilinadi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

1) 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha - 3 yil muddatga;

2) 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha - 5 yil muddatga;

3) 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

Soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida qo'llanilishi mumkin:

- mazkur korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi bo'lgan mintaqalar-Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

- xorijiy investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

- korxonaning nizom jamg'armasida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etishi lozim;

- ushbu korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni kiritish;

- xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo'yish;

- mazkur imtiyozlarni qo'llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadni korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirish.

Imtiyoz olgan korxonalar shunday imtiyoz berilgan muddat tugashidan keyin bir yil barvaqtroq faoliyatini to'xtatgan taqdirda foydani o'z mamlakatiga o'tkazish va xorijiy investorning kapitalini chet

elga olib chiqib ketish faqat berilgan imtiyozlar summasini byudjetga qaytargandan keyin amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonuni 3-moddasining to'rtinchi qismida xorijiy investorlar uchun belgilangan kafolatlar quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

- xorijiy investorlarga to'lanadigan, dividend tarzida olinadigan daromadlarga soliq miqdori (stavkalari) ko'payishi;

- xorijiy investorning chet elga o'tkaziladigan daromadlari (foydasini)ni o'z mamlakatiga qaytarish tartibotini murakkablashtiruvchi yoki ularning miqdorini kamaytiruvchi qo'shimcha talablar joriy etilishi, bunda davlat xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi va bankrotligi yoki kredit beruvchilarning huquqlarini himoya qilish, xorijiy investor - jismoniy shaxs sodir etgan jinoiy qilmish yoki ma'muriy huquqbuzarlik hollarida yoxud sud yoki hakamlikning qaroriga muvofiq daromad (foyda)ni o'z mamlakatiga qaytarishni to'xtatib turishning boshqa zarurati bo'lganda xorijiy investor mablag'larini qonun hujjatlarini kamsitmaydigan tarzda qo'llash shartlari asosida o'z mamlakatiga qaytarilishini to'xtatib turish hollari mustasno;

- investitsiyalarning miqdori bo'yicha investitsiyalash hajmlariga miqdoriy cheklashlar hamda boshqa qo'shimcha talablar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda xorijiy investitsiyalarning minimal miqdorini ko'paytirish tarzidagi talablar joriy etilishi;

- respublika korxonalarining nizom jamg'armalarida xorijiy investorning ulush bilan ishtirok etishi bo'yicha cheklashlar joriy etilishi;

- xorijiy investorlarning vizalarini rasmiylashtirish va uzaytirish borasidagi qo'shimcha tartibotlar, shuningdek xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha boshqa qo'shimcha talablar joriy etilishi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Radioelektronika sanoati buyumlari hamda kompyuter va hisoblash texnikasi butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish.

2. Engil sanoat:

- tayyor ip gazlama va jun gazlamalar ishlab chiqarish;

- tayyor tikuvchilik, trikotaj, paypoq mahsulotlari va to'qimachilik galantereyasi ishlab chiqarish;

- terini qayta ishlash; poyabzal, tayyor ko'n-galantereya buyumlari

ishlab chiqarish.

3. Ipakchilik sanoati:

-shoyi gazlamalar va ipakdan tayyor buyumlar ishlab chiqarish.

4. Qurilish materiallari sanoati:

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 24 martdagi PF 358-sonli Farmoni 1a-ilovasida ko'rsatilgan qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarish.

5. Parranda go'shti va tuxumni sanoat miqyosida etishtirish.

6. Oziq-ovqat sanoati:

-mahalliy xomashyodan sanoat miqyosida qayta ishlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (alkogolli, alkogolsiz ichimliklar va tamaki mahsulotlari bundan mustasno).

7. Go'sht-sut sanoati:

-go'sht va sut mahsulotlarining tayyor turlari, pishloq va sariyog' ishlab chiqarish.

8. Kimyo-farmatsevtika sanoati:

-dori-darmon vositalari ishlab chiqarish;

-sintetik kir yuvish vositalari, maishiy kimyo tovarlari ishlab chiqarish.

Prezidentimizning mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun o'ta muhim bo'lgan «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3594-son Farmoni ishlab chiqarish sohalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyani jalb etish, yurtimizning eksport salohiyatini yanada yuksaltirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilish bilan bir qatorda, iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida qo'yilgan yana bir muhim qadamdir.

4.O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini rivojlantirish muammolari

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotiga o'zlashtirilayotgan chet el investitsiyalari ko'lami mintaqalarda mavjud eksport imkoniyatlariga (tabiiy-iqtisodiy, mehnat va ishlab chiqarish salohiyatlari) nisbatan ancha past darajada bo'lmoqda. Mavjud holat sababini qo'shni Afg'onistonda davom etayotgan fuqarolar urushi kabi tashqi omillar bilan izohlash mumkin. Ma'lumki, xorijiy sarmoyadorlar nafaqat mamlakatdagi ichki siyosiy barqarorlikni, balki qo'shni davlatlardagi mavjud holatni ham

alohida e'tiborga olishadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda 2005-2008 yillarda iqtisodiyotga horijiy investitsiyalarni yo'naltirishda mavjud tashqi omillar sezilarli darajada salbiy ta'sir qildi. 2009-2010 yillar mobaynida ichki va tashqi sarmoya manbalarini jalb etish hisobiga iqtisodiy jihatdan etarli rivojlanmagan mintaqalarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga erishiladi. Bu esa mavjud resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlagani holda, mintaqalarga chet el investitsiyalarini yanada keng miqyosda o'zlashtirishga imkon beradi. Pirovardida barcha mintaqalar o'z eksport imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yuqori sifatli, raqobatbardosh xamda zamonaviy mahsulotlar bilan jahon bozordan munosib o'rin ola boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham rivojlanayotgan boshqa davlatlar kabi ma'lum bir valyutaviy cheklanishlar mavjud. Ularning eng asosiysi bo'lib, milliy valyutani erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarga to'laqonli konvertirlashning yo'qligidir. Hozirgi kunda respublikada bozor munosabatlari rivojlanayotgan davrda chet el investitsiyasini jalb qilishga ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Milliy valyutani erkin konvertatsiya qilinishiga erishish qiyin masala hisoblanadi va u iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish hamda pul – kredit va valyuta siyosatini takomillashtirishni talab qiladi. Chunki dunyoning hamma mamlakatlari ham erkin konvertatsiya qilinadigan valyutaga ega emas. Milliy valyutaning qadrini oshirish uchun har bir davlat o'z hududida valyutani tartibga solish usullari bilan milliy valyutani boshqa valyutalarga erkin ayirboshlanishini ta'minlaydigan barcha shart – sharoitlarni yuzaga keltirishi shart. Bir qator davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin konvertatsiyaga faqatgina iqtisodiyotning ma'lum bir rivojlanish bosqichida erishiladi.

O'zbekiston Respublikasida valyutani tartibga solish tizimining shakllanishi mustaqillikka erishilgandan so'ng 1991 yilda “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida” va “O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari to'g'risida”gi qonunlar qabul qilingandan so'ng yuzaga keldi. 1992 yildan hozirgi kungacha Markaziy bankning faoliyati asosiy yo'nalishlar sifatida milliy valyutani muomalaga kiritish uchun shart – sharoitlar yaratish va milliy valyutani qadrini oshirish tanlandi. 1993 yilda “Valyutani tartibga solish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi bilan Markaziy bank tomonidan valyutani tartibga solish bo'yicha qaytadan amaliy me'yoriy – huquqiy baza yaratildi. Bu

qonun Markaziy bank milliy valyuta qadrini oshirish uchun valyuta zaxiralarini tashkil etilishi va so'mning ichki konvertatsiyasini ta'minlash uchun ichki valyuta bozorini rivojlantirishini belgilab beradi. Valyuta zahiralarini shakllantirish nihoyasiga etmagan sharoitda, valyuta bozorini rivojlantirish maqsadida Markaziy bank Moliya vazirligi bilan birgalikda 1994 yili respublika korxonalarining eksportdan tushgan tushumlarining 15 foizini majburiy sotishni tasdiqladi. Bu vaqtda mazkur majburiy sotuvdan tashqari eksportdan tushgan tushumdan olinadigan 15 foizli soliq ham mavjud edi.

Hozirgi vaqtda import o'rnini bosuvchi yoki eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish texnologiyasini va respublikaga birinchi darajali xalq iste'moli mollari olib kelinishini ta'minlaydigan korxonalarga ichki valyutaga ustivor tarzda konvertatsiya qilishning ishlab chiqilgan mehanizmi amal qilmoqda. Bundan tashqari, respublika xukumatining qaroriga muvofiq, chet el investitsiyasi ishtirokidagi eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi maxsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga so'mdagi mablag'larni erkin ayrboshlanadigan valyutaga o'z vaqtida konvertatsiyalash, shu jumladan, chet el ta'sischilariga tegishli ulushning foydasini va divididentining konvertatsiyalanishi kafolatlangan.

Valyuta operatsiyalarini va valyuta bozorini rivojlantirishdagi keyingi qadam valyuta bozorini erkinlashtiruvchi, birjadan tashqari valyuta bozori yuzaga keltirildi. Bu – vakolatli banklarga talab va taklifdan kelib chiqib, mustaqil ravishda ayirboshlash kurslarini o'rnatish imkoniyatini yaratdi. Vakolatli banklarning birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalar o'tkazishining manbasi bo'lib, korxonalarning erkin konvertatsiyalanadigan valyutalarni majburiy sotishidan tashqari, ularning o'z resurslari hamda mijozlarining chet el valyutasidagi depozitlari va boshqa jalb qilingan mablag'lari xisoblanadi. Milliy valyutadagi vakillik aloqalarni rivojlantirish bevosita xalqaro savdo aloqalarida milliy valyuta – so'mdan keng miqyosda foydalanishga asos bo'ladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi bilan erkin savdo tizimi va eng yuqori darajada qulayliklar yaratilishini ko'zda tutuvchi bitimlar imzolangan davlatning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari bilan milliy valyutada tovarlarni eksport va import qilish uchun respublika korxona va tashkilotlari tomonidan shartnomalar imzolanishini maqsadga muvofiq xolda amalga oshirishini ta'minlash xalqaro moliya

munosabatlari tizimining ajralmas qismi bo'lgan valyuta operatsiyalarining samarasini oshirishga imkoniyat beradi.

5. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihatdan yondashuv

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihatdan yondashuv Respublikaning har bir hududining rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi.

Agarda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, hamda Navoiy va Farg'ona vodiysi viloyatlarining qishloq hududlarida bo'lsa, u holda quyidagi soliqlardan to'liq ozod etiladi:

- yagona soliq to'lovi;
- daromad (foyda solig'i;
- mulk solig'i;
- infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

1-jadval

Viloyatlarning etakchi tarmoqlari va potentsial investitsiya takliflari (tarmoqlar)

Viloyatlar	Mavjud etakchi va ilg'or tarmoqlar	Xorijiy Investitsiya kiritilishi mo'ljallangan ustuvor tarmoqlar, 2008-y	Investitsiyalar hajmi (mln AQSH doll.)
Andijon	Qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, mashinasozlik, to'qimachilik, turizm.	To'qimachilik Ipakchilik Kimyo Oziq-ovqat	5.0 3.0 3.0 3.0
Buxoro	Neft va gaz, to'qimachilik, qurilish materiallari, turizm.	To'qimachilik Qurilish material.	150.0 2.0
Farg'ona	Qishloq xo'jaligi, neft-gaz, kimyo (neftkimyo), to'qimachilik, mashinasozlik, oziq - ovqat, qurilish materiallari, turizm.	To'qimachilik Ipakchilik Oziq-ovqat	20.0 2.0 10.0
Jizzax	Qishloq xo'jaligi, kimyo, mashinasozlik	Qurilik material. Oziq-ovqat Kimyo Energetika	400.0 2.0 5.0 60.0
Qoraqalpog'is	Energetika, neftkimyo,	To'qimachilik	8.0

ton	kimyo, kon-metallurgiya.		
Xorazm	Qishloq xo'jaligi, engil, oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik, turizm.	To'qimachilik Gilamchilik	150.0 50.0
Namangan	Qishloq xo'jaligi, engil, to'qimachilik, mashinasozlik.	To'qimachilik Ipakchilik Qurilish material Oziq-ovqat	10.0 15.0 10.0 10.0
Navoiy	Kon-metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari, mashinasozlik, to'qimachilik	Kimyo Qurilish mater. Energetika To'qimachilik	170.0 100.0 250.0 10.0
Samarqand	Qishloq xo'jaligi, xalq iste'mol tovarlar i/ch, to'qimachilik, mashinasozlik, qurilish materiallari, kimyo, elektrotexnika, turizm	To'qimachilik Oziq-ovqat Kimyo	20.0 30.0 30.0
Sirdaryo	Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, to'qimachilik, engoil sanoat, turizm	To'qimachilik Mebel Farmatsevtika energetika	4.0 9.0 4.0 20.0
Surxondaryo	Qishloq xo'jaligi, neft va gaz, qurilish material., engil sanoat, oziq-ovqat, mashinasozlik, turizm	To'qimachilik Oziq-ovqat Tog'-kon sanoati	25.0 9.0 15.0
Toshkent sh.	To'qimachilik, engil, kimyo, farmatsevtika, qurilish mater., turizm, oziq-ovqat, mashinasozlik	Elektrotexnika Mashinasozlik, to'qimachilik Qurilish mater, Kimyo, farmatsevtika	16.0 50.0 25.0 100.0 6.0, 1.0
Toshkent v.	Engil sanoat, rangli metallar, qurilish mater., kimyo, yoqilg'i-energetika	Oziq-ovqat, kimyo Rangli metallurg. Tog'-kon, energetika Farmatsevtika	15.0, 10.0, 50.0 72.0, 600.0, 15.0
Qashqadaryo	Qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, neft-gaz, qurilish mater., mashinasozlik, engil, oziq-ovqat	To'qimachilik Oziq-ovqat Tog'-kon sanoati	100.0 10.0 13.0

Manba: www.uzinfoinvest.uz.

Hukumatimiz tomonidan berilayotgan imtiyozlar o'z natijasini

beriyapti. Xorijiy investitsiya hajmini 2007y.da cho'qqiga ko'tarilishi, buning yaqqol natijasi. Mazkur yildagi xorijiy investitsiyaning asosiy qismi (90%i) neft va gaz, telekom va to'qimachilik sohasiga hamda 90% dan ortig'i Toshkent shahridan tashqari viloyatlarga kiritildi.

2-jadval

Viloyatlar bo'yicha ba'zi ko'rsatkichlar natijasi (2007y.)

Viloyatlar	YAIM (2007y) mlrd. so'm	YAIM, (2007 y) mln. AQSH doll.	Eksport hajmi, mln. AQSH doll.	Investitsiya hajmi, mln. AQSH doll.	Qo'shma korxona- lar soni	Qo'shma korxonalar mahsulotining YAIM dagi ulushi, %
Andijon	532.7	422.7	916.9	798*	76	86.5
Buxoro	1577.5	1204.2	170.3	309.5	69	-
Farg'ona	2223.5	1764.7	479.8	120	81	20.0
Jizzax	782.8	597.6	97.7	200*	42	-
Qashqadaryo	2139.9	1700	629	136.4	30	25.0
Xorazm	1003.7	796.5	122.6	16.8	30	-
Namangan	-	-	61.4	10.45	53	23.7
Navoiy	1681.2	1330	538.1	333.2	40	-
Samarqand	1768.2	1403.3	239.9	-	159	25.1
Sirdaryo	484.8	384.8	22.7	-	45	-
Surxondaryo	1042.4	830	217.3	21.8	59	25.0
Toshkent sh.	4158.9	3300	2596.9	-	2635	-
Toshkent v.	-	-	1533.1	270	266	-
Qoraqalpog'iston	754.2	598.6	103.8	336.8	47	-
Jami	18149.8		7729.5	4648.7	3632	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

2008 yilda ham katta xajmdagi investitsiyalar kiritilishi mo'ljallangan edi. Ularning asosiy qismi (93%i) – yoqilg'i energetika, kon-metallurgiya, to'qimachilik, kimyo va qurilish materiallari ishlab chiqarishga kiritilishi kutilgandi. Buning albatta ob'etiv sababi bo'lib, imtiyozlarning kengligi, jahon bozori kon'yunkturasini shu soha mahsulotlariga talabini keskin oshganligi va rivojlanayotgan davlatimizning barqaror rivojlanish yo'lida ekanligiga misol bo'ladi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida keskin farqlanishni oldini olish borasida ko'rilayotgan choralarga qaramasdan, hozirgi vaqtda XIKlarni tashkil etish va faoliyat yuritishida hududiy nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida eksport-import

operatsiyalari hajmlarida katta farqlanishni yuzaga keltirmoqda. Andijon, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahri eksport darajasi barqaror yuqori bo'lgan hududlarga kiradi. Mazkur 3ta hududda xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan yirik mashinasozlik, metallurgiya va to'qimachilik tarmoqlari korxonalari joylashganligi sababli ularda respublikaning barcha XIK eksportining 80foizi shakllantiriladi.

Shu bilan birga, tashqi bozorlarga mahsulot chiqarish ulushlari past bo'lgan hududlarda ham eksport salhiyati o'sishida ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan. Eksport o'sishi indeksining respublika bo'yicha o'rtacha darajasidan yuqori bo'lgan ko'rsatkichlar Jizzax (3,5 marotabaga), Qashqadaryo (1,7 marotabaga), Surxondaryo (3,4 marotabaga), Sirdaryo (2,6 marotabaga) va Xorazm (2,8 marotabaga) viloyatlarida qayd etilgan. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida eksportning jadal o'sishi hisobiga eksport ulushi 1 foizdan kam bo'lgan hududlar soni kamaygan.

3-jadval

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportining hududlar tarkibi (foizda)

Hududlar tarkibi	2006 yil	2007 yil
Respublika bo'yicha jami Mln.AQSH doll.	1133,6	2063,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,9	0,4
Andijon viloyati	40,1	48,5
Buxoro viloyati	1,2	1,3
Jizzax viloyati	0,1	0,3
Qashqadaryo viloyati	0,9	1,3
Navoiy viloyati	19,3	15,1
Namangan viloyati	2,0	1,8
Samarqand viloyati	2,2	3,7
Surxondaryo viloyati	0,4	1,2
Sirdaryo viloyati	0,3	0,6
Toshkent viloyati	9,4	4,2
Farg'ona viloyati	7,9	4,7
Xorazm viloyati	0,3	0,6
Toshkent shahri	15,0	16,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Mamlakatimiz va uning alohida hududlari iqtisodiyoti samaradorligi bevosita investitsiya siyosatining xarakteri va miqyoslariga bog'liq.

Investitsiyalar respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi hududiy tafovutlar va nomutanosibliklarni qisqartirishning muhim vositasi bo'lib, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hududlarda mavjud tabiiy-iqtisodiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga va shu orqali iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirishga imkon beradi. Hozirgi kunda Surxondaryo, Jizzax va Namangan kabi ba'zi viloyatlar va ko'plab qishloq tumanlari byudjetlarining dotatsiyada qolib ketayotgani, ya'ni respublika byudjeti hisobidan ta'minlanayotgani birinchi navbatda mazkur hududlarda zamonaviy korxonalar, kichik biznes sohasi, savdo tarmoqlari, umuman infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor berilmayotgani bilan bog'liq, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Jizzax va Qashqadaryo, Navoiy, Namangan va Surxondaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham ahvol bundan yaxshi emas. Mazkur hududlar ulkan iqtisodiy salohiyatga ega bo'lishiga qaramasdan, ularda 2007 yilda o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1-2 million dollardan oshmagani buni ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakat va uning hududlari iqtisodiyotini tizimli qayta qurishning muhim omili sifatida chet el investitsiyalarni ushbu jarayonga faol jalb qilishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiy o'sishga erishish uchun nafaqat investitsiya hajmini ko'paytirish, balki ular yo'nalishini va tuzilmasini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalarni tanlash zarurki, ular tezda o'zini qoplab, yuqori darajada iqtisodiy va texnologik samara bera olsinlar. Bunday holatda investitsiyaning tezda qaytarilishi va qanchalik samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu investitsion jarayonni jonlantirish uchun turtki berish, keyinchalik esa investitsiyalash uchun afzal tarmoqlar va xo'jalik yuritish sub'ektlarini tanlashga imkoniyat yaratish mumkin.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida keskin farqlanishni oldini olish borasida ko'rilayotgan choralarga qaramasdan, hozirgi vaqtda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish va faoliyat yuritishida hududiy nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida eksport-import operatsiyalari hajmlarida katta farqlanishni yuzaga keltirmoqda. Andijon, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahri eksport darajasi barqaror yuqori bo'lgan hududlarga kiradi. Mazkur 3ta hududda chet el investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan yirik mashinasozlik, metallurgiya va to'qimachilik tarmoqlari korxonalari joylashganligi sababli ularda Respublikaning barcha xorijiy

investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportining 80 foizi shakllantiriladi.

Shu bilan birga, tashqi bozorlarga mahsulot chiqarish ulushlari past bo'lgan hududlarda ham eksport salohiyati o'sishida ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan. Eksport o'sishi indeksining respublika bo'yicha o'rtacha darajasidan yuqori bo'lgan ko'rsatkichlar Jizzax (3,5 marotabaga), Qashqadaryo (1,7 marotabaga), Surxondaryo (3,4 marotabaga), Sirdaryo (2,6 marotabaga) va Xorazm (2,8 marotabaga) viloyatlarida qayd etilgan. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida eksportning jadal o'sishi hisobiga eksport ulushi 1 foizdan kam bo'lgan hududlar soni kamaygan. 2007 yilning 1-choragida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar eksporti 344,7 mln. AQSH dollarni, o'tgan yilga nisbatan 156,6 foizni tashkil etgan. Hududlar bo'yicha chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksporti eng yuqori ko'rsatkich Andijan viloyatida – 139,2 mln. AQSH dollarni, o'tgan yilga nisbatan 142,7 foizni, Toshkent shahrida – 58,9 mln. dollarni, o'tgan yilga nisbatan 161,9 foizni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Jizzax viloyatida – 0,7 mln. dollar, Xorazm – 2,5 mln. dollar, Sirdaryo viloyati – 3,8 mln. dollarni tashkil etdi. (7.3.3-jadval)

Mamlakatimiz hududlari bo'yicha chet el investitsiyalari va kreditlarni o'zlashtirishning umumiy miqdori 2007 yilning 1-choragida 162,8 mln. AQSH dollarni etdi. Bevosita kiritilayotgan chet el investitsiyalari va kreditlari qariyb 207,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2007 yilning 1-choragida umumiy o'zlashtirilgan investitsiyaning 16,9 foizini chet el investitsiyalari va kreditlari tashkil etdi. Hududlar bo'yicha chet el investitsiyalari va kreditlari Navoiy- 46,1 foiz, Toshkent shahri – 44,4 foiz, Xorazm – 21,2 foiz, Andijon – 13,8 foizni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Qoraqolpog'iston Respublikasida -3,4 foizni, Toshkent viloyatida – 3,7 foizni, Qashqadaryoda – 4,3 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi hududlarda qulay investitsiya muhitini, bir qator makroiqtisodiy omillarini keskin darajada kuchaytirilishini taqozo etadi. Bu sohada ro'y berayotgan jarayonlar voqealarning shiddatli almashinuvi bilan izohlanadi. Hududlarning iqtisodiy o'sishini va qulay investitsion muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jadallashtirishda hal qiluvchi rolni ishlab chiqarish investitsiyalari o'ynashi kerak.

Faqat investitsiyalar bazasidagina asosiy kapitalni yangilash hamda shu asosda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatini

yaxshilash evaziga mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Biroq bu hozirgi yuksak darajada integratsiyalashgan xo'jalik sharoitida davlatning muvofiqlashtiruvchi roli ob'ektiv ravishda ancha salmoqli bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan investitsiya muhitni yaxshilashda barcha hududlarga olib kelayotgan investorlar faoliyatiga davlatning faol aralashuviga yaqin yillar mobaynidagi makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa strategik maqsad – hududlar iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun amalga oshirilmog'i, bu raqobatbardoshlik va hudud iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi mezonlariga javob berishi lozim. Strategik maqsadga erishish qulay investitsion muhitni yaratish asosida ta'minlanishi mumkinki, investitsiya jarayonlarini davlat yo'li bilan makro boshqarib turish bunday rejalab turishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Hududlardagi investitsion muhitini shakllantirishning hozirgi bosqichi iqtisodiy o'sish yo'liga o'tib olish bilan izohlanadi. Bunday o'sish alohida investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadiki, u taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga, investitsiya resurslari va chet el investitsiyalarini jalb qilish sifatida mablag'lardan foydalanishning mavjud imkoniyatlariga tayanishi lozim bo'ladi. Chet el investitsiyalarini jalb etmay turib, hozirgi zamon talablariga javob beradigan ishlab chiqarishning tashkil etilishini ta'minlash mumkin emas.

Hududlar investitsiya jarayonlarini izga solib turishning iqtisodiy asoslarini yaratish, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon tug'diruvchi shart-sharoitni ta'minlash investitsiya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, hududlarda qulay investitsion muhit yaratishga aynan shu yo'l bilan erishish mumkin.

Respublika hududida investitsiya muhit bilan o'zaro bog'langan amalga oshirish jarayoniga qaratilgan sub'ektlar tarkibiy o'zgartirishlar strategiyasi ma'nosini chuqur anglab olishlari, globallashtirish, iqtisodiyotlarning xalqaro raqobat va o'zaro hamkorligi natijalarini, mamlakat hududlari taraqqiyoti va hududlar korxonalarining xalqaro bozorlarga chiqish istiqbollarini oldindan ko'ra bilishlari kerak. Bularniig hammasi investitsion muhitni faol ta'minlashda ishlab chiqish, tanlab olish, amalga oshirish va ularni ichki manbalar hamda tashqaridan jalb qilinadigan

Qisqacha xulosalar

Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, eksport hajmini oshirishga imkon yaratayotganligiga amin bo'lish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib va ortib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'lamdor demokratik va bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligidan dalolatdir.

Rivojlangan mamlakatlar orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, ya'ni foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga qiziqishi ortadi. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi echim hisoblanadi, ya'ni qaerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha erdagi bozorga ko'proq intiladi. Shuningdek, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biriga aylandi. Bu, shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada kuchaytiradi.

Mamlakatimizga bu tarzda sarmoya oqib kelayotgani esa xorijiy investorlar, ya'ni chet ellik sheriklarimiz respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi demokratik va bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligini tan olgani, ularning biz bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanining yana bir tasdig'idir.

Mamlakatimiz va uning alohida hududlari iqtisodiyoti samaradorligi bevosita investitsiya siyosatining xarakteri va miqiyoslariga bog'liq. Investitsiyalar respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi hududiy tafovutlar va nomutanosibliklarni qisqartirishning muhim vositasi bo'lib, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hududlarda mavjud tabiiy-iqtisodiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga va shu orqali iqtisodiyotning hududiy tarkibini takomillashtirishga imkon beradi.

Hududlardagi investitsion muhitini shakllantirishning hozirgi bosqichi iqtisodiy o'sish yo'liga o'tib olish bilan izohlanadi. Bunday o'sish alohida investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadiki, u taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga, investitsiya

resurslari va chet el investitsiyalarini jalb qilish sifatida mablag'lardan foydalanishning mavjud imkoniyatlariga tayanishi lozim bo'ladi. Chet el investitsiyalarini jalb etmay turib, hozirgi zamon talablariga javob beradigan ishlab chiqarishning tashkil etilishini ta'minlash mumkin emas.

Hududlar investitsiya jarayonlarini izga solib turishning iqtisodiy asoslarini yaratish, ishlab chiqilgan siyosatni amalga oshirishga imkon tug'diruvchi shart-sharoitni ta'minlash investitsiya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, hududlarda qulay investitsion muhit yaratishga aynan shu yo'l bilan erishish mumkin.

Respublika hududida investitsiya muhit bilan o'zaro bog'langan amalga oshirish jarayoniga qaratilgan sub'ektlar tarkibiy o'zgartirishlar strategiyasi ma'nosini chuqur anglab olishlari, globallashuv, iqtisodiyotlarning xalqaro raqobat va o'zaro hamkorligi natijalarini, mamlakat hududlari taraqqiyoti va hududlar korxonalarining xalqaro bozorlarga chiqish istiqbollarini oldindan ko'ra bilishlari kerak. Bularniig hammasi investitsion muhitni faol ta'minlashda ishlab chiqish, tanlab olish, amalga oshirish va ularni ichki manbalar hamda tashqaridan jalb qilinadigan mablag'lar hisobidan moliyalashtirish istiqbollarini belgilashda asosiy o'rinda turadi.

Tayanch iboralar:

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar, qo'shma korxonalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, valyuta operatsiyalari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hududiy yondashuv.

Nazorat uchun savollar

1. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga qanday imtiyozlar belgilangan?
2. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda qaysi tamoyillarga asoslanildi?
3. O'zbekistonda xorijiy investorlar qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini istalgancha chet davlatga o'tkazishi mumkinmi?

4. Qo'shma korxonalarining tashkil etishning ahamiyati qanday?
5. Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizga qanday ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi?
6. Imtiyoz olgan korxonalar shunday imtiyoz berilgan muddat tugashidan bir yil barvaqtroq faoliyatini to'xtatgan taqdirda foydani o'z mamlakatiga o'tkazishi mumkinmi?
7. O'zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonun asosida xorijiy investorlar qanday kafolatlarga ega bo'ladilar?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 24 dekabr 1998 yil soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 30 aprel 1998 yil soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2007 -2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora - tadbirlari to'g'risida»gi farmoni Xalq so'zi gazetasi 2007 yil 20 iyul soni. 1-2 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" n. 2009 y.
5. Nematov I.U. «Xorijiy investitsiyalar» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua -T.: TDIU, 2009.
6. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006.
7. Neshitoy A. S. Investitsii: Uchebnik. — 5-e izd., pererab. i ispr. - M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. - 372 s.
8. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. - 384 s.
9. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, www.stat.uz

7-mavzu. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni xorijiy investitsiyalar yordamida rivojlantirish masalalari

Reja:

1. Mamlakatimizning eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari
2. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish kontsepsiyasi
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni kreditlash
4. Xorijiy investitsiyali korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyati

1. Mamlakatimizning eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish, Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining eksport faoliyatini takomillashtirish iqtisodiy qayta qurishning hozirgi bosqichida muhim hisoblanadi. Shu bilan birga O'zbekiston oldida mamlakatning xom – ashyo tovarlari eksportiga qaramligini pasaytirish, import va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish hamda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tovarlar eksportini jadallashtirish kabi masalalar turibdi.

Ba'zi mamlakatlar va chet el iqtisodchilarning fikriga ko'ra, eksportni mo'ljal qilib tashqi savdoni rivojlantirish xom ashyo bo'lmagan tovarlar eksport ulushini oshirishga asos bo'lishi mumkin. O'zbekiston ko'p afzalliklarga ega ekanligi umuman tan olingan, ularning ba'zilar quyidagicha:

- mineral xom-ashyo ko'p turlarining boy sanoatbop turi;
- ko'pgina qishloq xo'jalik o'simliklarini etishtirish uchun qulay, Shuningdek issiqlik va elektr energiyasini tejash imkonini beruvchi tabiiy iqlimiy sharoit;
- turizm va tadbirkorlikning turdosh xillarini rivojlantirish imkonini yaratuvchi butun olamga dong'i ketgan boy madaniy va tarixiy meros;
- yuqori malaka bilan birga nisbatan arzon ishchi kuchi;
- salmoqli ilmiy salohiyat va amaliy tadqiqotlarning yuqori darajasi;
- rivojlangan infratuzilma va boshqalar.

Biroq, mamlakatning solishtirma afzalliklarini baholash kompleks

reyting usuli qo'llanishini talab etadi. Oddiyroq shaklda solishtirma afzalliklar ishlab chiqarish xarajatlarining nisbati yoki shunday o'xshash tovarlarning jahon bozoridagi narxlari nisbati bo'yicha chamalanashi mumkin. Standart usul ekspert chamalash asosida O'zbekistonning raqobatbardoshlik darajasi (xarajatlarni bo'yicha, mahsulot sifati omili hisobga olinmagan holda) bo'yicha solishtirma afzalliklari eksportning tovar guruhlari bo'yicha shartli ravishda raqobatbardosh, raqobatbardoshga yaqin va hozirgi paytda raqobatbardosh bo'lmagan tovarlar guruhlari tasniflash mumkin.

Shu bilan birga, raqobat muhitini yaratish mamlakat eksport imkoniyatlarini o'stirish va yanada rivojlantirish uchun eng muhim shart hisoblanadi. Bir qator mamlakatlar va chet el iqtisodchilarining fikriga ko'ra, mamlakat ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagilar shart:

- xo'jalik faoliyatining barcha sub'ektlari uchun teppa-teng sharoitlarni yaratish, ya'ni har qanday imtiyozlar barcha tarmoqlarga taalluqli bo'lishi shart;

- resurslarning mobilligini oshirish, eng avvalo bank tizimi samaradorligini oshirish orqali sarmoyani erkin o'tishini ta'minlash, Shuningdek, tovar – xom ashyo resurslari bozorini erkinlashtirish va ma'muriy boshqarishdan voz kechish va xom ashyo tovarlarini sanoat ishlab chiqarish va eksport uchun taqsimlash;

- mahsulotlar importiga chegaralangan tarzda yo'l qo'yilishi bilan birga texnologik zanjir bo'ylab narxlarning oshishiga olib kelayotgan yuqori narxlarni yakka tarzda saqlab turish amaliyoti saqlanib kelayotgan kontsernlar, assotsiatsiyalar, xoldinglar va milliy kompaniyalar tizimini monopoliyadan chiqarish;

- soliq tizimini va uni ma'muriylashtirishni takomillashtirish;

- tashqi savdoni erkinlashtirish.

Ayniqsa qayta ishlash sohalarining eksportini rivojlantirish xorijiy mamlakatlar bozorlariga chiqish imkoniyatlariga ham yuqori darajada bog'liq. Xom ashyo eksporti amalda xorijiy bozorlarga chiqishda to'siqlarga uchramagan bir sharoitda tayyor tovarlar eksporti xorijiy mamlakatlarda ko'pincha tarif va notarif to'siqlarga duch keladi.

Bugungi kunda mamlakat eksportini rivojlantirishning asosiy muammolaridan biri importga nisbatan tarif va notarif proteksionizmning yuqori darajada mavjudligidir. Ayni vaqtda yuqori savdo to'siqlari nafaqat iste'mol tovarlarini (pirovardida foydalanish

uchun tovarlarni) import qilishni, shu bilan birga ham eksportga, ham ichki bozorga yo'naltirilgan milliy ishlab chiqarishlarni rivojlantirish zarur bo'lgan oraliq tovarlar importini ham cheklab qo'yadi. Bundan tashqari, ichki bozorda tashqi raqobatni cheklash iqtisodiy resurslarni samarasiz taqsimlash uchun omil yaratadi. Natijada o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda importdan himoya qilingan tarmoqlarning nisbatan raqobatbardoshlik qobiliyati pasayib ketadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga va investorlarga barqaror sharoit va qo'llab-quvvatlashni ta'minlab beradigan, odilona raqobatga rivojlanishiga yordam beradigan va suiste'molning oldini oladigan qulay sharoitni yaratish eksportni rivojlantirish va diversifikatsiya qilish va oqibatda iqtisodiy o'sishning zarur sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlarning natijasida tashqi savdo aylanmasi yildan yilga o'sib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi*

	O'lchov birligi	Yillar				2010 yil 2007 yilga nisbatan, %
		2007	2008	2009	2010	
Tashqi savdo aylanmasi	mln AQSH doll.	15719,6	21197,3	21209,6	21842,4	139,0
MDH mamlakatlari	mln AQSH doll.	7679,1	8659,5	8006,2	9424,5	122,7
Boshqa mamlakatlar	mln AQSH doll.	8040,5	12537,8	13203,4	12417,9	154,4
Eksport	mln AQSH doll.	8991,5	11493,3	11771,3	13044,5	145,1
MDH mamlakatlari	mln AQSH doll.	4273	3926,6	3921,3	5898,7	138,0
Boshqa mamlakatlar	mln AQSH doll.	4718,5	7566,7	7850	7145,8	151,4
Import	mln AQSH doll.	6728,1	9704	9438,3	8797,9	130,8
MDH mamlakatlari	mln AQSH doll.	3406,1	4732,9	4084,9	3525,8	103,5
Boshqa mamlakatlar	mln AQSH doll.	3322	4971,1	5353,4	5272,1	158,7
Qoldiq	mln AQSH doll.	2263,4	1789,3	2333	4246,6	187,6
MDH mamlakatlari	mln AQSH doll.	866,9	-806,3	-163,6	2372,9	273,7
Boshqa mamlakatlar	mln AQSH doll.	1396,5	2595,6	2496,6	1873,7	134,2
Tashqi savdo aylanmasi tarkibi						
MDH mamlakatlari	%	48,9	40,9	37,7	43,1	88,1
Boshqa mamlakatlar	%	51,1	59,1	62,3	56,9	111,4

*O'zR Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulot ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday holat eksportimiz-ning xomashyo resurslari narxi tez-tez o'zgarib turadigan jahon bozori ta'siriga bog'liqligini kamaytirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Jahon iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitda bunday o'zgarish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Nega deganda, bugungi kunda eksport asosan xomashyo etkazib berishdan iborat bo'lib, dunyo bozoridagi narx-navo o'yinlariga haddan tashqari bog'lanib qolayotgani ayrim mamlakatlarda valyuta tushumlarini kamaytiradigan, moliyaviy barqarorlikning yomonlashuviga olib keladigan, iqtisodiyotni izdan chiqaradigan jiddiy faktorga aylanmoqda.

Ta'kidlash kerakki, tashqi savdo munosabatlarimiz geografiyasi, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobidan sifat jihatidan o'zgarmoqda.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari va ularning butun bog'lanishlarining holati tahlil qilish imkonini beradigan umulashtiruvchi ko'rsatkich- to'lov balansidir (2-jadval). U mamlakatning rezidentlari bilan tashqi dunyo o'rtasidagi muayyan davrdagi barcha savdo va moliyaviy oqimlarni kamrab oladigan statistika hisobotidir. To'lov balansini mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalar jarayonida amalga oshirilgan amaldagi to'lovlr bilan unga kelgan tushumlarning qiymatda ifodalangan o'zaro nisbatidir.

Haqiqatdan ham mamlakatning bir-birlari bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlari tuzilishi murakkab bo'lganligi tufayli to'lov balansini tarkibiy qismlar sifatida savdo balansini, xizmatlar va notijorat to'lovlari balansini, kapitallar va kreditlar harakati balansini o'z ichiga oladi. Ko'pincha savdo balansini bilan xizmatlar va notijorat to'lovlar balansini joriy operatsiyalar balansiga birlashtiriladi. Binobarin, to'lov balansini o'z tarkibida tashqi iqtisodiy aloqalarning hamma shakllarini aks ettirishi kerak.

Mamlakatning savdo balansini tovarlar import qilinganida undan chiqib ketadigan mablag'lar bilan tovarlarni chet elga eksport qilganda ketadigan mablag'lar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi.

To'lov balansining shu tarkibiy qismi mamlakatning tashqi iqtisodiy ahvoliga baho berishda eng muhim ko'rsatkichdir. Agar

mamlakatning eksporti ma'lum davrda chet eldan import qilishdan ortiq bo'lsa, savdo balansi aktiv bo'lishi (musbat saldo balansiga ega bo'lishi) mumkin.

2-jadval.

Mamlakat to'lov balansining ko'rinishi

TUSHUMLAR (+)	TO'LOVLAR (-)
I. JORIY OPERATSIYALAR BALANSI	
I A SAVDO BALANSI	
1. Tovarlar eksporti	1. Tovarlar importi
I B. Xizmatlar va notijorat to'lovlar balansi	
Nofaktor xizmatlar bo'yicha tushumlar. YUK tashish va sug'urta Safarlar Boshqa nofaktor xizmatlar Faktor daromadlar tushumlari Transfert tushumlar	Nofaktor xizmatlar bo'yicha to'lovlar. YUK tashish va sug'urta Safarlar Boshqa nofaktor xizmatlar Faktor daromadlar to'lovi Transfert to'lovlar
II Kapitallar va kreditlar harakati balansi	
Bevosita investitsiyalar kelishuvi Majmua investitsiyalar kelishi Ssuda kapitalning kelishi	Bevosita investitsiyalarnig ketishi Majmua investitsiyalarnig ketishi Ssuda kapitalining ketishi
III. Mamlakat oltin va valyuta zahiralaridagi I va II balanslar o'rnini to'ldiruvchi o'zgarishlar	
Oltin va valyuta zahiralarining ko'payishi (sof mablag' kelishining yutilib ketishi -)	Oltin va valyuta zahiralarining kamayishi (sof chiqib ketishning o'rnini to'ldirish +)

Agar import eksportdan ortiq bo'lsa, savdo balansi shunga muvofiq manfiy (manfiy saldo) bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar O'zbekiston muayyan yilda savdo balansi saldosiga ega bo'lsa, o'sha yili iste'mol qilinganiga qaraganda kamroq ishlab chiqarilgan bo'ladi. Va aksincha, savdo balansining musbat saldosini O'zbekistonda tegishli yilda iste'mol qilinganiga qaraganda ko'proq tovarlar ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi. Savdo balansining musbat yoki manfiy bo'lishi ko'pgina tashqi va ichki omillarga bog'liq.

Agar jahondagi kon'yuktura natijasida jahon xom-ashyo bozorlarida paxtaning narxi syozilarli darajada ortib, shu darajada barqaror tursa, biz O'zbekistonning eksportda (bunda "o'ltinning" salmog'i ancha katta) savdo balansi musbat saldogaga ega bo'ladi, deb taxmin qilishimiz mumkin.

Xizmatlar va nosavdo operatsiyalar balansi mamlakatning boshqa

mamlakatlarga ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha kelgan pul bilan shu mamlakatga boshqa mamlakatlar ko'rsatadigan xizmatlar bo'yicha chiqib ketgan pul o'rtasidagi nisbatdan iboratdir. Iqtisodchilar faktor va nofaktor xizmatlarni farqlaydilar. Faktor xizmatlar mamlakatning Chet elga tadbirkorlik yoki ssuda kapitali shaklidagi investitsiyalaridan tushgan pullarni o'z ichiga oladi. Bunga dividendlar shaklidagi pul tushumlari, mamlakat firmalari va kompaniyalarining foyda repatriatriyasi, Chet elliklarning mamlakat patentlari, litsenziyalari va menejmentidan foydalanganlik uchun to'lovlar va hoqazolar kiradi. Nofaktor xizmatlar oqimiga sayyohlik, transportda yo'lovchilar va yuklar tashish, sug'urta, teleradiokommunikatsiyalar uchun tushumlar va to'lovlar kiradi.

Mamlakatlar o'rtasida mavjud bo'lgan ammo savdo bilan bog'liq bo'lmagan xizmatlar bo'yicha to'lovlar va tushumlar nosavdo oqimlar yoki operatsiyalar deb ataladi. Ular jumlasiga pul mablag'larini rasman o'tkazish (masalan, tabiiy ofatlar, urush, epidemiyalar va boshqalarni boshdan kechirayotgan mamlakatlarga chet eldan yordam ko'rsatish), qarindoshlar va yaqin kishilarga shaxsiy pul o'tkazmalari va shu kabilar kiradi. Xizmatlar balansining moddolari bo'yicha harakatni ko'pincha "ko'rinmas operatsiyalar" deb atashadi.

Mamlakatimizdagi va chet ellik iqtisodchilar O'zbekistonning jahonshumul miqyosdagi diniy va madaniy-tarixiy boyliklarini hisobga olib, uni sayyohlik faollashishi kutilayotgan mamlakat deyishmoqda. Shuni aytishimiz mumkinki, ushbu omil kelajakda xizmatlar balansi bo'yicha chet el valyutasi chiqib ketishining o'rnini to'ldiradi.

Kapital va kreditlar harakati balansi xalqaro kapital va kredit shaklida valyuta mablag'lari kelishi va chiqib ketishining nisbatini aks ettiradi. Kapitalning harakati tadbirkorlik va ssuda investitsiyalari shaklida yuz berishi mumkin. U rezidentlar hamda norezidentlarning chet el va mamlakatning moliyaviy aktivlari-obligaiyalar, korxonalarga qarashli aksiyalar, boshqa qarz majburiyatlari, shu jumladan kreditlar va qarzlarni olish-Sotish jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekistonda yashaydichilarning Rossiyaning yirik kompaniyalar aksiyalarini sotib olishi valyuta mablag'larining chikib ketishini anglatadi. Agar O'zbekistonning davlat aksiyalari chet mamlakatlaridagi investorlar tomonidan sotib olinsa, chet el kapitali kelgan bo'ladi. To'lov balansining kapital bilan bog'liq moddalarining harakati rezidentlar va norezidentlar chet el moddiy aktivlari - kuchmas mulk hamda

kompaniyalarni olgan yoki sotgan paytda yuz beradi. Agar ishi yurishgan O'zbekistonlik bizneschi Italiyada tomat pastasi ishlab chiqaradigan firmani yoki shahar tashqarisidagi villani sotib olsa, kapital chiqib ketgan bo'ladi.

Shunday qilib, kapitallar harakatining balansi moddiy va moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalar qilishdan keladigan sof tushumlarni ko'rsatadi. Agar ularni sotishdan kelgan tushumlar sotib olinadigan Chet el aktivlari bo'yicha to'lovlardan ortiq bo'lsa, unda kapitallar harakati balansining musbat sal dosiga ega bo'linadi va biz kapitalning sof kelishi yuz berishini ko'ramiz. Aksincha, biz Chet elliklarga o'z aktivlarimizni sotishga qaraganda Chet el aktivlarini ko'proq sotib olsak, kapitallar harakati balansining manfiy sal dosi, kapitalning mamlakatdan sof chiqib ketishi kuzatiladi.

Kapital harakati hisob varag'i ko'pincha savdo balansi va xizmatlar balansi taqchilliklariga nisbatan o'rnini to'ldiruvchi hisobvaraq vazifasini o'taydi. Mamlakat ma'lum vaqt davomida ishlab chiqarganiga qaraganda ko'proq tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilsa, unda chet el davlat va xususiy qarzlari hamda kreditlari, chet el kapitalining boshqa oqimlari kundalik iste'molning kundalik ishlab chiqarishdan ortiq bo'lishini, ya'ni manfiy sof eksportni pul bilan ta'minlashga yordam beradi.

Asosan joriy operatsiyalar balansi va kapitallar harakati balansi jami taqchilligining o'rnini to'ldiruvchi yana bir muhim tarkibiy qism - mamlakat oltin va valyuta zahirolari hisobvarag'idir. Agar to'lov balansining aktiv sal dosi kundalik operatsiyalar balansining manfiy sal dosini qoplamasa yoki, aksincha, kundalik operatsiyalar balansining aktiv sal dosi kapital mablag'lar harakati hisobvarag'i bo'yicha manfiy sal doni qoplamasa va nihoyat, mazkur balanslarning ikkalasi ham manfiy sof qoldikka ega bo'lsa, mamlakatda ilgari jamg'arib qo'yilgan valyuta zahirolari tashqi qarzni qoplash uchun ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan

ishlarning natijasidir.

Eksport hajmining o'sishi biz uchun an'anaviy resurslar bo'lmish paxta tolasi, qimmatbaho metallar va turli xomashyo etkazib berish hisobiga emas, balki asosan avtomobillar, neft-kimyo va metall mahsulotlari, mineral o'g'itlar, ip-kalava va gazlama, trikotaj buyumlar, sim-kabel mahsulotlari, qurilish materiallari va boshqa shu kabi ko'plab eksport tovarlari hajmi va turlarini ko'paytirish evaziga ta'minlangan (3-jadval).

3-jadval

Eksport va importning tarkibiy o'zgarishi*

Tovar va xizmatlar	Tarkibi, %		2008 yilga nisbatan, %
	2008 y.	2009 y.	
Eksport	100,0	100,0	100,0
Paxta tolasi	9,3	8,6	92,5
Oziq – ovqat mahsulotlari	4,5	6,0	133,3
Ulardan iste'mol buyumlari	4,2	5,6	133,3
Kimyo va kimyo mahsulotlari	5,6	5,0	89,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	24,7	34,2	138,5
Qora va rangli metallar	7,0	5,0	71,4
Mashina va uskunalar	7,6	2,9	38,2
Xizmatlar	10,4	8,8	84,6
Boshqalar	30,9	29,5	95,5
Import	100,0	100,0	100,0
Oziq – ovqat mahsulotlari	8,3	9,0	108,4
Shundan ishlab chiqarishga mo'ljallangan iste'mol mahsulotlari	5,4	4,8	88,9
Kimyo va kimyo mahsulotlari	11,6	11,1	95,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	4,6	3,5	76,1
Qora va rangli metallar	7,7	6,3	81,8
Mashina va uskunalar	52,4	56,5	107,8
Xizmatlar	4,4	4,4	100,0
Boshqalar	11,0	9,2	83,6

*O'zR Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Buni eksport hajmida tayyor mahsulotlar ulushi oshgani, xizmatlar eksportining 8,8 % ni tashkil etgani, paxta tolasining ulushi esa 7,5 % kamaygani ham yaqqol tasdiqlaydi. 2009 yilda mamlakatimiz eksport umumiy hajmiga nisbatan mashina va asbob-uskunalar 2,9 %, rangli va qora metallar 5,0 %, energiya tashuvchilar 34,2 %, kimyo mahsulotlari 5,0 %, oziq-ovqatlar 6,0 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda eksportni rivojlantirish bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, investitsion faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas bir qismidir.

Eksport salohiyatini yuksaltirish, uning hajmini oshirish, tarkibini takomillashtirish, geografiyasini kengaytirish muhim va dolzarb vazifadan biri bo'lib, bir vaqtning o'zida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng murakkab vazifalari qatoriga kiradi.

Jahonda oshib borayotgan talablarni hisobga olgan holda tashqi savdo siyosatini rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishiga va Butunjahon Savdo Tashkilotining talablarini savdo siyosatida hisobga olishga imkon yaratadi. Masalan, Xitoy tajribasi ko'rsatishicha, O'zbekistonning Butunjahon Savdo Tashkilotiga qo'shilishi jiddiy institutsional islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Qo'shilish jarayoni tarif to'siqlarini pasaytirilishi va notarif to'siqlarining asta-sekin bartaraf etilishi bilan birga kechadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishi mavjud savdo rejimini Butunjahon Savdo Tashkiloti talablariga moslashtirishdan iboratdir. Butunjahon Savdo Tashkiloti talablariga muvofiq tashqi savdoni liberallashtirish milliy iqtisodiyot ochiqligini oshirish, raqobat muhitini yaratish, narxlar nomutanosibligini tuzatish, resurslarni samaraliroq taqsimlash va ulardan foydalanish, xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan to'liqroq foydalanish hamda aholining turmush farovonligini oshirish imkonini yaratadi. Eksport salohiyatini rivojlantirish strategiyasi, bulardan tashqari, MDH, janubiy-sharqiy osiyo, g'arbiy va sharqiy Evropa mamlakatlari bozorlari bo'yicha keng miqiyosda marketing tadqiqotlari o'tkazish talab qilinadi. Rivojlangan mamlakatlarning eksportni kengaytirish va eksportchilarni qo'llash bo'yicha tajribasini o'rganish alohida e'tiborga sazovordir. Bu tajribani o'rganish O'zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar va eksportchilar uchun shu mamlakatlar bozorlariga kirib borishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Ma'lumki, mintaqalar eksport salohiyati samaradorligani oshirish ko'p jihatdan jahon xom ashyo bozoridagi talab va taklif jarayonlariga uzviy bog'liqdir. Jahon bozorida kuzatilayotgan talab-ehtiyojlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mintaqalari eksport salohiyatining yaqin

istiqboldagi rivojlanishi kimyo, rangli metallurgiya sanoat mahsulotlari, Shuningdek, mashina-jihozlar va chuqur qayta ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlari eksport hajmining keskin ortishiga bog'liq bo'lib qoladi. Chunki oxirgi o'n yilliklar mobaynida jahon bozorida aynan shu mahsulotlarga nisbatan barqaror narx va doimiy talab kuzatilmoqda.

O'zbekistonda investitsiya faoliyati yildan yilga rivojlanib bormoqda (4-jadval).

4-jadval

O'zbekistonning investitsiya ko'rsatkichlari*

Ko'rsatkichlar	Yillar				2010 yil 2009 yilga nisbatan, %
	2001	2005	2009	2010	
Asosiy kapitalga investitsiya	1320,9	3165,2	12531,9	15409,1	122,9
Markazlashgan investitsiya	669,5	755,8	2517,9	2855,3	113,4
Byudjet mablag'lari	284,1	387,6	1019,5	1136,5	111,4
Nobyudjet jamg'armalar	1,5	151,7	927,8	498,3	53,7
Davlat kafolati asosidagi chet el investitsiyalari	305,8	216,5	570,6	575,4	100,8
Markazlashmagan investitsiya	651,4	2409,4	10014,0	12553,8	125,4
Korxona mablag'lari	410,1	1457,5	4550,0	4862,1	106,8
Aholi mablag'lari	136,2	361,1	1325,0	2430,4	183,4
Chet el investitsiyalari va kreditlar	63,7	470,5	3487,5	3863,6	110,7
Tijorat banklari kreditlari va zayom mablag'lari	41,4	120,3	651,5	1397,7	2,1 marta

*O'zR Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

4-jadval ma'lumotlari 2010 yilda o'tgan yilga nisbatan jami investitsiyalar 22,9 foizga, xorijiy investitsiyalar miqdori 10,7 foizga oshgan.

2011 yilda Tiklanish va taraqqiyot fondining mablag'lari hisobidan qiymati 780 million dollardan ortiq bo'lgan 24 tadan ziyod loyihani moliyalashtirish ko'zda tutilayotgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 2,1 barobar ko'pdir.

Bu loyihalar sirasiga, eng avvalo, Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Qalmoqqir konini kengaytirish va rekonstruksiya qilish, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bug'-gaz moslamasini qurish, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasining beshta energiya blokini yil davomida ko'mir asosida ishlash tizimiga o'tkazish,

Olmalik kon-metallurgiya kombinatining misni boyitish fabrikasini rekonstruksiya qilish va boshqa loyihalar kiradi.

Fondning xorijiy sheriklarimiz bilan birgalikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasidagi samarali hamkorligiga misol sifatida Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasida umumiy qiymati 1 milliard 280 million dollarlik ikkita bug‘-gaz moslamasini qurish loyihasini keltirish mumkin.

Ushbu loyihani amalga oshirishda O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot fondidan tashqari Osiyo taraqqiyot banki va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi kabi xorijiy sheriklar investor sifatida ishtirok etmoqda.

Mintaqalar eksport salohiyatini kimyo sanoati bo‘yicha oshirishda asosiy e‘tibor mavjud kimyo qayta ishlash korxonalarini ta‘mirlashga qaratilmokda. Ayniqsa, Navoiy, Farg‘ona, Qashqadaryo, Namangan, Toshkent, Samarqand viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida kulay shart-sharoitlar mavjud. Hozirda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan kaprolaktamning 70-80% qayta ishlovchi vositalarni ishga tushirishda qo‘llanilmoqda. Yaqin kelgusida kapron iplar ishlab chiqaruvchi fabrikalarni qurish taxmin qilinmoqda. Shuningdek, ko‘pgina mintaqalarda qisman mahalliy ehtiyoj uchun hamda eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan engil sanoat korxonalarini qurish mo‘ljallanmoqda.

Mintaqalar bo‘yicha mashinasozlik eksport salohiyatini oshirish masalasi chet el investorlari va firmalarini keng jalb qilish asosida yangi tarmoqlarni rivojlantirish mo‘ljallanmoqda. Davlat investitsiya dasturiga muvofiq, Andijon, Jizzax, Toshkent, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida mashinasozlik majmuini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini, amalga oshirish bo‘yicha aniq rejalar loyihasi ishlab chiqilmoqda. 2009-2010 yillarda qayta ishlangan mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda xorijiy sarmoyadorlar ishtirokidagi qo‘shma korxonalar faoliyati ijobiy ahamiyat kasb etish kutilmoqda. Bu turdaga hamkorlik Toshkent shahri, Andijon, Surxondaryo, Jizzax va Farg‘ona viloyatlarida yanada rivoj topgan. Turkiya, Xitoy, Yaponiya, Italiya, Shveytsariya, Amerika, Frantsiya, Angliya va Litva davlatlari bilan tuzilgan qo‘shma korxonalarda paxta tolasidan ip, shoyi, trikotaj velyur, sun‘iy teri, jinsi, jakard gazlama, teridan tayyorlangan oyoq-kiyim mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmokda. Xulosa qilib aytganda, yaqin istiqbolda qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini qayta ishlashda xorijiy

sarmoyadorlar bilan o'zaro hamkorlikni qo'shma korxonalar shaklida yanada keng yo'lga qo'yish mintaqalar eksport faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda investorlar uchun, aytish mumkinki, ko'p jihatdan beqiyos, o'ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy kompaniyalar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlar asosida 2011 yilda iqtisodiyotimizning real sektoriga 3 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritish ko'zda tutilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, bu mablag'ning 2 milliard 200 million dollardan ortig'i yoki 73 foizdan ziyodini to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari tashkil etadi.

To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari hisobidan iqtisodiyotimizning ko'plab tarmoqlarida 70 tadan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish mo'ljallanmoqda.

Bu, avvalambor, gazni qayta ishlaydigan zamonaviy zavod qurishni o'z tarkibiga olgan Qandim guruhi konlarini, shuningdek, Xauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish, istiqbolli uglevodorod xomashyo konlarida geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo'yicha yirik loyihalardir.

Ayni vaqtda Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi barpo etish, Qoraqalpog'iston Respublikasida sement zavodi qurish, Toshkent viloyatida turli mato va tikuvchilik mahsulotlari, tayyor dori preparatlari ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha loyihalar ham shular qatoriga kiradi. Bular – to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan barpo etiladigan istiqbolli obyektlarning bir qismi, xolos.

2. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish kontseptsiyasi

O'zbekiston Respublikasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Respublikamizning yaqin sharq va janubiy – sharqiy osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarga yaqinligi, chegaradoshligi, Evropa va Osiyo mamlakatlari savdo yo'lida joylashganligi tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojigi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Buning natijasida eksportga ixtisoslashgan qo'shma sub'ektlarni yaratish, tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha chegaradosh

xo'jaliklarni tashkil qilish, erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish negizida tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish imkoniyatlari vujudga keladi.

Hozirgi kunda respublikamizda importning o'rnini qoplash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab – quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish uchun xorijiy sarmoyalarni ustuvor yo'nalishlarga jadalroq jalb qilishga, ularga kafolat va imtiyozlar berishga, litsenziyalar, “nou - xau”lar sotib olishga, valyuta tushumlarini kadrlarni tayyorlashga sarflashda erkinliklar berishga qaratilgan izchil siyosat olib borilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish – ushbu sohadagi boshqaruvni takomillashtirish, eng avvalo, sanoat yo'nalishidagi sub'ektlarini boshqarish va iqtisodiy rag'batlantirish tizimini yaratishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Jahon talablari darajasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun sub'ektlarni zamonaviy ilg'or texnologiya, eng yangi uskunalar, ayniqsa kichik va o'rta sub'ektlar uchun mo'ljallangan ixcham uskunalar bilan jihozlash talab qilinadi.

O'zbekistonda eksportga nisbatan quyidagi imtiyozlar berilgan. Bu imtiyozlarning ayrimlari quydagilardan iborat:

- sub'ekt o'zi ishlab chiqargan erkin almashtiriladigan valyutada sotadigan bo'lsa, unga oldindan to'lash va akkreditivsiz eksport qilish xuquqi berildi;
- tovar eksporti ichki bozor bahosidan past bahoda amalga oshirilganda soliqqa tortish haqiqatda sotiladigan baho bo'yicha amalga oshirildi;
- eksportga chiqarilayotgan tovarlarning hajmi umumiy sotish hajmining 30 foizini yoki undan ortig'ini tashkil qilsa, daromad solig'ining miqdori ikki martaga qisqartirildi;
- MDHga mahsulot eksport qiladigan sub'ektlar 1998 yil 1 yanvardan boshlab aktsiz solig'i va qo'shimcha qiymat solig'idan ozod qilindilar;
- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha ishlab chiqarish sub'ektlari chet davlatlarda o'zlarining uylarini, vakolatxonalarini ochishlari mumkin. shu bilan birga, ularga konsignatsiya shartlari asosida tovar etkazib berishlariga ruxsat berildi;

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay shart – sharoitlar yaratishga, hamda zarur bo'lgan infrastrukturallarni yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Xorijiy sarmoyalar bo'yicha agentlik, "O'zbekinvest" eksport – import milliy sug'urta kompaniyasini kiritishimiz mumkin. Bu tashkilot va muassasalarning respublikamizga xorijiy sarmoyalarning kirib kelishini tezlashtirishda, ustuvor yo'nalishlarni aniqlashda, ularni sug'urtalashda, bank va konsalting xizmatlari ko'rsatishda beqiyos ahamiyatga egadir.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni kreditlash

Bugungi kunda Respublikamizda pul-kredit dastaklarining tijorat banklari faoliyatida ta'siri mexanizmi nuqtai nazaridan olib karaganda, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalaridagi beriladigan kreditlar miqdori markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga, markaziy bankning so'mdagi depozitlar bo'yicha majburiy zahira stavkasiga va kreditlarning o'rtacha foiz stavkasiga teskari mutanosibdir. Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) Milliy bankining kredit resurslari miqdoriga esa to'g'ri mutanosibdir. Buning sababi shundaki, Markaziy bankning majburiy zahira stavkalari oshirilishi tijorat banklarining kreditlash salohiyatlarini to'g'ridan to'g'ri pasaytiradi. Majburiy zahira ajratmalari tijorat banklarining jalb qilingan resurslariga nisbatan hisoblanadi. O'z navbatida jalb qilingan resurslarning asosiy qismi tijorat banklarining kredit resurslari hisoblanadi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan kreditlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan kreditlar hajmi, kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi, Markaziy bankning so'mdagi depozitlari bo'yicha majburiy zahira stavkasi, TIF Milliy bankining kredit resurslari kabilarni keltirish mumkin.

TIF Milliy bankining xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning kreditlash salohiyatiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan yana biri, kredit resurslarining etarlilik darajasi hisoblanadi. Kredit resurslarining etarli darajada bo'lishi tijorat banklariga o'z mijozlarini barqaror tarzda kreditlash imkonini beradi. Xalqaro bank amaliyotida

kredit resurslarining etarlilik darajasi kuyidagi ikkita ko'rsatkich orqali aniqlanadi:

1. Transaksion depozitlar ko'rsatkichi.

Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun transaksion depozitlar summasi tijorat bankining jami depozitlari summasiga bo'linadi va olingan natija 100% ga ko'paytiriladi. Jahon Tiklanish va Taraqqiyot Banki ekspertlarining fikriga ko'ra, agar tijorat banklari depozitlarining salmog'i 30% dan oshmasa, bankning depozit bazasi barqaror hisoblanadi.

2. Tijorat banki umumiy kapitalining etarlilik darajasi.

Buni aniklash uchun umumiy kapital summasi bank aktivlarining riskka tortilgan summasiga bo'linadi va olingan natija 100% ga ko'paytiriladi. Xalqaro Bazel standarti bo'yicha tijorat banklari umumiy kapitalining etarlilik koeffitsientini minimal darajasi 8% ni tashkil etilishi lozim. Agar bu koeffitsientining haqiqatdagi darajasi 8% dan past bulsa u holda tijorat bankining umumiy kapitali etarli emas deb hisoblanadi.

Jahon Tiklanish va Taraqqiyot banki ekspertlarning tavsiyasiga ko'ra, sof foizli marja ko'rsatkichining me'riy darajasi 4,5% ni sof foizli spread ko'rsatkichining me'riy darajasi esa, 1,25% ni tashkil etadi. Milliy bank tizimida sog'lom raqobat muhiti mavjud bo'lgan sharoitda tijorat banklari ana shu belgilangan darajalarda faoliyat yurita oladilar. Agarda bank tizimida sog'lom raqobat muhiti shakllantirilmagan bulsa, u holda monopol banklar ushbu ko'rsatkichlarning yuqori darajasida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lishadi, kichik va o'rta tijorat banklari esa bu ko'rsatkichlarning me'riy darajasini ham ta'minlay olishmaydi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda TIF Milliy bankining xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni kreditlash salohiyatiga asosan uchta omil ta'sir kilmokda. Bular Markaziy bankning majburiy zaxira talabnomasining o'zgarishi, kreditlarning foiz stavkalari o'zgarishi va TIF Milliy banki kredit resurslarining etarlilik darajasidir. Shu sabali, ushbu omillar bankning kreditlash salohiyatiga nisbatan yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan salbiy ta'sirlarga barham berish muxim amaliy ahamiyat kasb etadi.

4. Xorijiy investitsiyali korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati

O'zbekiston Respublikasida me'yoriy-huquqiy asoslarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini rag'batlantirish, kelgusida xorijiy kapitalni jalb qilish, yangi qo'shma

korxonalar yaratish uchun qulay iqtisodiy zaminni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar maqsadli yo'naltirilgan holda amalga oshirilmoqda.

Korxonalarni xususiylashtirishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha so'mning konvertatsiyasini joriy qilish, ayrim iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari boshqa soliq to'lovlaridan ozod qilish, Shuningdek, bojxona tariflari yordamida tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar xorijiy investitsiyali korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyati va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining ijobiy o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatadi (4-jadval).

5-jadval

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi
korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2006 yil	2007 yil	O'sish sur'ati, 2007 yilda 2006 yilga nisbati % da
Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni (davr oxirida)	birlik	2919	3579	x
Tashqi savdo aylanmasi	mln. doll.	2988,6	4427,9	148,2
Eksport	mln. doll.	1133,6	2063,4	182,0
Import	mln. doll.	1855,0	2364,5	127,5
Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi	%	26,8	31,1	X
Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning respublika umumiy eksportidagi ulushi	%	17,7	22,9	X
Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning Respublika umumiy importidagi ulushi	%	38,8	45,2	X
Eksportning importga nisbati	koef-t	61,1	87,3	X

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

O'zbekiston Respublikasida ko'plab korxona va birlashmalar,

korporatsiya va kompaniyalar, firma va boshqa tashkilotlar xorijlik sheriklar bilan tashqi savdo aloqalarini muvaffaqiyatli rivojlantirmoqda, xorijlik investorlar ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

2008 yilning oxirigacha umumiy qiymati 180,6 mln. doll.ga etadigan 19 ta qo'shma korxonani ishga tushirildi. To'qimachilik tovarlari eksporti 2 baravar o'sishi kutilmoqda. Loyihalarning asosiy hamkorlari AQSH, Germaniya, Shveytsariya va Turkiya mamlakatlaridir. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda ustuvor loyihalarni amalga oshirish respublika bozorini to'ldirishdan tashqari, yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozorlariga eksport qilish imkonini beradi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning faoliyat yuritishi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit mavjudligi yangi XIK tashkil etilishiga xizmat qildi. 2007 yil mobaynida XIK soni 660 taga oshdi. Tahlil qilinayotgan davrda XIKlarning Respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 4,3 foiz bandiga oshgan (5-jadval).

5-jadval

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportining tovarlar bo'yicha o'sish sur'atlari va tarkibi

Tovar turlari	O'sish sur'atlari, %da		Eksport umumiy hajmidagi ulushi, %da	
	2006 yilda 2005 yilga nisbatan %da	2007 yilda 2006 yilga nisbatan %da	2006 y.	2007 y.
Paxta tolasi	127,4	135,0	4,7	3,5
Oziq-ovqatlar	120,5	137,4	4,0	3,0
Kimyo mahsulotlari	48,4	303,7	1,5	2,5
Energiya resurslar	107,1	1807,1	2,7	27,3
Qora va rangli metallar	121,6	104,11	2,8	1,6
Mashinalar va uskunalalar	165,0	140,4	51,9	40,0
Xizmatlar	150,4	149,7	5,3	4,4
Boshqalar	100,0	119,2	27,1	17,7
Jami	137,7	182,0	100,0	100,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Respublikaning jami eksportida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ulushi 5,2 foiz ko'paygan.

2007 yil oyi mobaynida paxta tolasi eksportining o'sish sur'ati kamaydi. Chunki eksport mahsulotlarini tarkibida paxta tolasidan

tayyorlanadigan tayyor mahsulotlarning hissasi ortib bormoqda. 2007 yilda kimyo sanoati mahsuloti bo'yicha eksport deyarli 3 marotabaga o'sgan. Buning sababi kimyo sanoati tizimidagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning sanoat mahsuloti ishlab chiqarishdagi ulushini ko'payganligi bilan izohlanadi.

2007 yilda 2006 yilga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari (137,4 foiz), xizmatlar (149,7 foiz) kimyo mahsulotlari (303,7 foiz) va energiya resurslar (1807,1 foiz) eksportining o'sishi XIK jami importida ularning ulushi ko'payishiga sabab bo'lgan.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston Respublikasi eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish, Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining eksport faoliyatini takomillashtirish iqtisodiy qayta qurishning hozirgi bosqichida muhim hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, tashqi savdo munosabatlarimiz geografiyasi, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobidan sifat jihatidan o'zgarmoqda.

Keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarning natijasidir. Bugungi kunda eksportni rivojlantirish bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, investitsion faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas bir qismidir.

Eksport salohiyatini yuksaltirish, uning hajmini oshirish, tarkibini takomillashtirish, geografiyasini kengaytirish muhim va dolzarb vazifadan biri bo'lib, bir vaqtning o'zida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng murakkab vazifalari qatoriga kiradi.

Hozirgi kunda respublikamizda importning o'rnini qoplash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab – quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish – ushbu sohadagi boshqaruvni takomillashtirish, eng avvalo, sanoat yo'nalishidagi sub'ektlarini boshqarish va iqtisodiy rag'batlantirish tizimini yaratishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Bugungi kunda Respublikamizda pul-kredit dastaklarining tijorat banklari faoliyatida ta'siri mexanizmi nuqtai nazaridan olib karaganda, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalardagi beriladigan kreditlar miqdori markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga, markaziy bankning so'mdagi depozitlar bo'yicha majburiy zahira stavkasiga va kreditlarning o'rtacha foiz stavkasiga teskari mutanosibdir.

Tayanch iboralar:

Eksport, import, to'lov balansi, kapitallar harakati balansi, savdo balansi, kapitallar harakati, kapital eksporti, kapital importi

Nazorat uchun savollar

1. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy mohiyatini tushuntirib bering.
2. Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o'zgarishlarni misollar yordamida izohlang.
3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri qaysi yo'nalishlarda namoyon bo'ldi?
4. Tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish qaysi omillarga bog'liq?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni roli nimalardan iborat?
6. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni kreditlashning iqtisodiy mohiyatini tushuntirib bering.
7. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan kreditlarga qaysi omillar ta'sir qiladi?
8. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportini rivojlantirishning ahamiyatini tushuntirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 24 dekabr 1998 yil soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 30 aprel 1998 yil soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2007 -2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora - tadbirlari to'g'risida»gi farmoni Xalq so'zi gazetasi 2007 yil 20 iyul soni. 1-2 b.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" n. 2009 y.
5. Nematov I.U. «Xorijiy investitsiyalar» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua -T.: TDIU, 2009.
6. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006.
7. Investitsii: uchebnoe posobie / M.V. Chinenov i [dr.]; pod red. M.V. Chinenova. - M.: KNORUS, 2007. - 248 s.
8. Neshitoy A. S. Investitsii: Uchebnik. - 5-e izd., pererab. i ispr. - M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. - 372 s.
9. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. - 384 s.
10. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, www.stat.uz

8-mavzu. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash va tavakkalchilik

Reja:

1. Investitsiya faoliyatiagi xavf-xatarlar.
2. O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining rivojlanishi.
3. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash.
4. O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlarni qo'llash masalalari

1. Investitsiya faoliyatiagi xavf-xatarlar.

Xavf-xatarlarning korxona faoliyatidagi ayrim ko'rinishlari investitsiya faoliyati bilan shug'ullanayotgan sub'ektlar ham, investitsiya faoliyati bilan shug'ullanmayotgan korxonalar uchun ham bir xil bo'lishi mumkin. Masalan, korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xavf-xatarlar (avariya va yong'inlar, mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilmasligi, sifatsiz mahsulot tayyorlanishi, ishchilarning ish tashlashi, o'g'rilik va b.), siyosiy xavf-xatarlar, harbiy, davlat boshqaruvi organlari bilan bog'liq, uchinchi shaxs bilan bog'liq xavf-xatarlar korxona investitsiya faoliyati sub'ekti bo'lishidan qat'iy nazar barcha korxonalar uchun xosdir.

Investitsiya faoliyati sohasidagi xavf-xatarlarni ma'lum bir tizim sifatida qarash mumkin va uning sinflashuvini ko'rsatib o'tish mumkin. (1-chizma)


Bu sohadagi xavf-xatarlar ikki yirik guruhga ajraladi: korxona faoliyati bilan bog'liq va korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xavf-xatarlar.

Yuqoridagi xavf-xatarlarning guruhlarini korxona faoliyatiga bog'liq holda, ichki va tashqi xavf-xatarlarga bo'linadi. Korxona faoliyati bilan bog'liq (ichki) xavf-xatarlar faqat korxona boshqaruvi bilan bog'liq holda sodir bo'lishi mumkin va o'z navbatida 4 guruhga ajratiladi.

Avariya va yong'inlar korxona faoliyatini to'xtatib qo'yishgacha olib keladigan xavf bo'lib, ishlab chiqarishda texnika xavfsizligiga rioya qilinmaganligi, xodimlarning e'tiborsizligi sababli kelib chiqadi.

Ishchilarning mas'uliyatsizligi, ish tashlash, boykot e'lon qilishlari hamda o'g'rilik, korxonaga mas'uliyatsizlik tufayli o'z vazifalarini bajarmasliklari natijasida tashqi iqtisodiy aloqalar borishiga to'sqinlik yuzaga keldi.

Investitsiya faoliyatidagi bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning asosiy ko'rinishlari.



Korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yoki tashqi bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar 6 xil ko'rinishga ega. Tashqi bozor kon'yukturasi bilan bog'liq xavf-xatarlar xorijiy bozorlarda bo'lib turadigan o'zgarishlar va ularning investitsiya faoliyati sub'ektlari faoliyatiga salbiy ta'sirlarini o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu xavf-xatarlar valyuta kursi o'zgarishidagi xavf-xatar, xorijiy bozorlardagi mahsulot narxi o'zgarishidagi xavf-xatar, korxona mahsulotiga talabning pasayishi xavf-xatari, raqobatning kuchayishi xavf-xatari kabi turlari mavjud. Tashqi bozor bilan bog'liq bunday xavflar korxona faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tashqi xavf-xatarlardan yana biri xorijiy hamkorlar bilan bog'liq xavf-xatar bo'lib, xorijiy hamkorlarning bankrotlik holatiga kelib qolishlari, to'lovni o'z vaqtida to'liq etkazmasliklari oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, xorijiy hamkorlarning o'z vaqtida sifatli

tovarni etkazib bermasliklari va turli xildagi boshqa majburiyatlarni (sug'urtalash, tovarni etkazib berish, xarajatlarni to'lash, bojxonadan o'tkazish va boshqalarni) bajarmaslik turi ham mavjud.

Investitsiya faoliyatida bo'lishi mumkin bo'lgan korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xavf-xatarlar ham mavjud bo'lib, bo'lar siyosiy xavf-xatarlar, harbiy xavf-xatarlar, davlat boshqaruvi bilan og'liq xavf-xatarlar, uchinchi shaxs bila bog'liq xavf-xatarlar, tabiiy ofatlar bilan bog'liq xavf-xatarlar hisoblanadi. Yuqorida aytilgan xavf-xatarlar ham, korxona investitsiya faoliyatiiga turli darajadagi salbiy ta'sirlarni o'tkazadi.

Investitsiya faoliyati sohasidagi xavf-xatarlarning salbiy ta'sirlarini bartaraf qilish uchun bo'lishi mumkin bo'lgan bunday xavf-xatarlarning oldini olish zarur. Bu sohadagi xavf-xatarlarning oldini olish uchun ularning har bir ko'rinishi uchun turli xildagi maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Korxona faoliyati bilan bog'liq (ichki) xavf-xatarlarni bartaraf qilish uchun korxona faoliyatida ijobiy o'zgarishlar qilish zarur. Avariya va yong'inlar, o'g'rilik, korxonaga tajovuzni bartaraf uchun qulayligini nazorat qilish, xodimlarga texnika xavfsizligi chora-tadbirlarini tushuntirish ishlarini olib borish kerak. O'g'rilik va korxonaga tajovuzni yo'qotish uchun qo'riqlash ishlarini ko'chaytirish, korxona mol-mulkining nazoratini yaxshilash maqsadga muvofiq.

Belgilangan muddatda hajm bo'yicha rejaning bajarilmasligining oldini olish uchun operativ reja ishlab chiqish, ya'ni yillik bajarilishi lozim bo'lgan rejaning har bir kvartal, har bir oy, har bir hafta uchun taqsimlash zarur. Sifat bo'yicha talablarning bajarilmasligining oldini olish uchun mahsulotlar sifatini nazorat qiladigan, laboratoriyalar, maxsus komissiyalar ishlarini tashqil qilib, mahsulot sifatini muntazam kuzatish lozim. ishchilarning mas'uliyatsizligi, ish tanlash, boykot e'lon qilish kabi salbiy hodisalar oldini olish maqsadida ishchilar ruhiyatini chuqur o'rganish, ularning turmush farovonligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

O'g'rilik, korxonaga qilinadigan tajovuzning oldini olish maqsadida korxona rahbariyati tomonidan nazoratni ko'chaytirish, tashqaridan bo'ladigan o'g'rilik, tajovuzkorlik ishlari uchun himoya choralarini qo'llash lozim.

Korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xavf-xatarlarning birini guruhi tashqi bozor konyu'kturasi bilan bog'liq xavf-xatarlar bo'lib,

bularga valyuta kursi, narxlar, talab, raqobat o'zgarishlarini misol keltirish mumkin. Bunday xavf-xatarlarning salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida bozor kon'yukturasini tahlil qilish va bashoratlash hamda sug'urtalash chora-tadbirlari qo'llaniladi.

Xorijiy hamkor bilan bog'liq xavf-xatarlar ham korxona investitsiya faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday xavf-xatar oldini olish maqsadida investitsiya faoliyatida eng qulay hisob-kitob shakllarini va bitimlarini tanla maqsadga muvofiqdir.

Tashqi, ya'ni korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xavf-xatardan siyosiy, harbiy, davlat boshqaruvi organlari bilan bog'liq, uchinchi shaxs bilan bog'liq, tabiiy ofatlar bilan bog'liq xavf-xatarlarga sug'urtalash faoliyati qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining rivojlanishi.

Sug'urta - bu yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum bir to'lov evaziga sug'urta qilingan shaxsga baxtsiz xodisa tufayli etkazilgan zararni qoplash.

Unda bir tomondan-sug'urtadan, ikkinchi tomonga-sug'urtalovchiga ma'lum mukofot evaziga o'tkazish yo'li bilan ta'minlashning o'ziga xos tizimidir. Sug'urtaning iqtisodiy moxiyati sug'urtalanganlarga etkazilgan zarar to'lanadigan va sug'urtachilarning ko'p sonli (badallari) evaziga shakllanadigan markazlashgan sug'urta jamg'armasini yaratadi. O'zbekiston iqtisodi bozor sharoitida xususiylashtirish va chet el sarmoyalarining yuksalish bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu narsa sug'urta mahsulotlari va ko'rsatiladigan xizmatlar darajasiga yangi talablar qo'yadigan sug'urtaning yangi mijozlarini paydo bo'lishiga olib keladi. Bozor tizimi o'zgardi, shu munosabat bilan sug'urta kompaniyalari bu o'zgarishlarni xisobga olib yangi imkoniyatlarni o'z foydasiga ishlatmoqda. Sug'urta summasi va sug'urta to'lovini to'lash tizimini mukammallashtirishni rivojlantirishning muxim omili hisoblanadi. Xozirgi vaqtda aholi, korxonalar, muassasalar, ijtimoiy tashqilotlarning har xil sug'urta ko'rinishlari etkazib berishga yo'naltirilgan tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan, mamlakat moliyaviy bazasini mustahkamlash uchun kasbdoshlar orasida tajriba almashish, umumiy masala va vazifalarni muhokama qiladigan "O'zbekiston sug'urta klubi" mutaxassislar birlashmasi tashqil etilgan, O'zbekiston sug'urtachilari Assotsiatsiyasini yaratish uchun tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

Islohatlarni amalga oshirishda chet el sarmoyalarini himoya qilishda muxim qadamlar qo'yildi. Shu bilan bir vaqtda sug'urtachilar ularning

aktivlari etariligi chet el sarmoyadorlari uchun kafolat bo'lib xizmat qiladigan umumdavlat kapitalining to'ldirish manbalaridan biri bo'lishi mumkin deb xisoblaydilar.

Sug'urta kompaniyalari bu moliyaviy idoralar va sug'urtachilarning erkin vositalarini qo'yilishi bo'lib, mamlakat olib borayotgan siyosat omili bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta bozorida yangi sug'urtachilarning paydo bo'lishi, jamiyat va tadbirkorlarda sug'urta to'g'risidagi bilimlarning yo'qligi, sug'urtada qatnashuvchi tomonlarni olingan majburiyatlarni vijdotsizlarcha bajarilishidan himoya bilan ta'minlanishiga zarurat tug'diradi.

Ta'kidlash joizki sug'urtachilar- bu Davlat tartibiga olishning ma'lum muolajasini o'tadigan maxsus moliyaviy tashqilotdir. Ammo bunday tashqilot O'zbekiston Respublikasi territoriyasida sug'urta faoliyatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi va sug'urtachi kompaniyalar faoliyati ustidan nazorat qiluvchi davlat jamiyati organi - O'zbekiston davlat sug'urta litsenziyasi - maxsus ruxsatnoma olgandan so'ng bevosita sug'urtachilik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Ko'pgina O'zbekiston fuqorlari uchun "sug'urta" ko'p yillar davomida Davlat sug'urta bilan bog'liq sug'urta shartnomasi, to'langan sug'urta to'lovi va sug'urta to'lovini "bildirar"-umuman ixtisosligi va etarli darajada murakkab iqtisodiy munosabatlar soxasini bildirar edi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda sodir bo'lgan voqealar bizning iktisod, moliya, pul va sug'urtaga, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'zgartirdi. Xozirgi vaqtda sug'urta har bir oila, har bir xo'jalik, tadbirkor, korxona va butun davlat uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Mulkka ega bo'lish farovonlikdan tashqari mulkning tasodifiy xalokati yoki tasodifiy zarari va egalik huquqlarini yo'qotish xavfi ham emas.

Xususiy tadbirkorlikning o'sishi bilan vujudga kelgan sug'urta soxasidagi zamonaviy sharoit va o'zgarishlar sug'urta kompaniyalariga ham, sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi davlat organlariga ham yuqori talablar qo'ymoqda. Bu sug'urta faoliyati xususiyati, qisman sug'urta xizmati iste'molchisi amaldagi qonunchilikdan ham sug'urtaning xususiyatlaridan ham xabardor bo'lmagan fuqaroligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari sug'urta xavfini baholash, sug'urta hodisasining bo'lish ehtimoli, sug'urtachining moliyaviy majburiyatlarini hisob-kitobi kabi sug'urta xususiyatlari maxsus bilim, kasbiy tayyorgarlik va ish tajribasini talab qiladi.

“O‘zbekinvest” EISMKsi yuridik shaxs bo‘lgan tashqilot, korxona va mulkchilikning barcha ko‘rinishi muassasalari bilan ishchilarni ishlab chiqarishda baxtsiz xodisalardan sug‘urta shartnomalarini tuzadi.

Sug‘urta, sug‘urta qilingan shaxs foydasiga sug‘urta qiluvchi xisobidan sug‘urta mukofoti (vznosi) to‘lash bilan amalga oshiriladi.

EISMK “O‘zbekinvest”ning sug‘urta ob‘ektlari sug‘urta qilingan shaxsning foydaning kamayishi natijasida umumiy ishga layoqatni yo‘qotish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar yoki sug‘urta qilingan shaxsiy ishdagi baxtsiz xodisalar oqibatida o‘tish kabi hodisalar bo‘lishi manfaatidir.

“O‘zbekinvest” EISMK ishchilarni jamoali sug‘urta qilish qoidalariga sug‘urta shartnomasi amalda bo‘lgan vaqtda sodir bo‘lgan quyidagi hodisalarni tan olishini ajratgan:

a) sug‘urta qilingan shaxs mehnat qilish qobiliyatini baxtsiz hodisa, tasodifiy qattiq zaharlanish va sug‘urta qilingan shaxs sog‘ligiga tegishli boshqa hollarda umumiy mehnat qilish qobiliyatini doimiy (butunlay yoki qisman) sug‘urta shartnomasi amal qilish muddatida yo‘qotsa;

b) sinish, chiqish, mushaklarning butunlay uzilishi, to‘qimalar uzilishi, ichki organlar shikastlanishi va boshqa baxtsiz hodisalar, tananing boshqa shikastlanishlari oqibatida umumiy mehnat qilish qobiliyatini;

v) nafas olish yo‘llariga begona jinslar kirishi, cho‘kish oqibatida o‘lim.

Inson sog‘ligiga zarar yoki kalofat etkazgan aybdor tomon bu ish uchun javobgar bo‘ladi va jabrlanuvchi tomonga pul to‘lovi to‘lashi shart. Ta’kidlash kerakki keltirilgan zararning miqyosi yoki xususiyatiga qarab to‘lov summalari aybdorni sindiradigan darajada katta bo‘lishi mumkin.

Polis egasi o‘z majburiyatlarini sug‘urta qilishga qaror qilsa, kelib tushgan da’vosini ma’lum yillik mukofot evaziga sug‘urta kompaniyasiga o‘tkazishi mumkin, u esa o‘z navbatida to‘lovlar to‘lashning barcha da’volar bo‘yicha to‘lovini amalga oshiradi.

Sug‘urta kompaniyasining ishonchliligini belgilashda moliyaviy balans hujjatlari muhim omil bo‘lishi mumkin. Faqat balansgina mijozga “O‘zbekinvest” kompaniyasi javobgarlikning kerakli hajmini qabul qilish uchun etarli kapitalga egaligiga mijozni ishontirishi mumkin. Balans qabul qilingan va qabul qilish rejalashtirilgan xavfni qoplash uchun etarli rezervlar borligini isbot qila oladi. Moliyaviy hujjatlar yordamida kompaniya o‘z kapitallarini sarmoyalashda hisob-kitoblar to‘g‘riligini isbot qiladi.

“O‘zbekinvest” milliy sug‘urta kompaniyasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunlari asosida amalga oshiradi. “O‘zbekinvest” O‘zR

VMning 13 aprel 1994 yildagi qaroriga ko'ra tashqil topdi va 1994 yil 1 iyundan o'z faoliyatini boshladi. Sug'urta kompaniyasi har xil ko'rinishdagi mulk shakllari, korxonada ishlovchilar hayotini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega. O'zR VM 28 fevral 1997 yildagi qarorining qabul qilinishi bilan "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi "O'zbekinvest" maishiy eksport-import sug'urta kompaniyasi deb qayta nomlandi, kompaniyaning nizom kapitali 10 mln. dollar va 200 mln. o'zbek so'mini tashqil etadi. O'zR hukumati kompaniyasining moliyaviy faoliyatini nazorat qiladi va o'z nizom kapitalida kompaniya jamg'armasi O'zR zahira jamg'armalari bilan bog'langan, ularning umumiy summasi 500 mln. so'mni tashqil etadi.

Sug'urta kompaniyasi uchun mijoz bilan uzoq muddatli asosda ishlash masalasini ko'rib chiqish juda muhimdir. Ko'p korxonalar hozirdanoq, o'z mulki va ishchilarini ongli ravishda sug'urta qilish niyati bor ammo hozirda ular polis sotib olmaydilar. Keyinchalik ular o'z navbatida biznesni rivojlanishi bilan, sug'urta polisi sotib olishlari mumkin.

Bozor sharoitlarida sug'urtaning o'ziga xosliklaridan biri, sug'urta mukofotining qaytimidir. Sug'urta da'volarining yo'qligi sug'urta atrofini o'rab turgan psixologik atmosferani xisobga olib mijozlar chaqirishning yaxshi usuli bo'lishi mumkindir.

Tabiiyki, har qanday biznes mijozlari baho ko'tarilishini salbiy hisoblaydilar. Shuning uchun kompaniya baholarni belgilashda puxtalik qilish yo'li bilan barqaror bo'lish maqsadini qo'zlaydilar. Sekin, ammo barqaror o'sish, tez o'sish va oqibatda tez pasayishdan ko'ra katta ahamiyatga egadir.

Har birimiz har kungi turmushimizda juda ko'p xatolarga duch kelamiz, ularning ko'pchiligini sug'urta kompaniyalari elkasiga qo'yishimiz mumkin. Sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatida polis shartlaridan birini da'vogarsiz deb olishi mumkin, u olgan xatoni boshqa sug'urta kompaniyasi bilan bo'lishishi yoki uni "qayta sug'urtalash" imkoniga ega bo'lishi mumkin.

Tashqi iqqisodiy faoliyatning tovar va xizmatlar eksporti va importi amaliyoti eksportchi va importchilarga ko'zda tutilmagan holat va xodisalarda ma'lum bir kafolatlar bera oladigan sug'urta shartnomalari tizimiga suyanadi. Juda ko'p hollarda tashqi savdoga dengiz transporti xizmat ko'rsatadi.

Shuning uchun ham investitsiya faoliyatini sug'urta qilish masalalari dengiz sug'urta shartnomalari tizimi orqali ko'rib chiqiladi.

Dengiz sug'urtasi masalalari doirasiga dengiz kemalari, kargo (yuklar) sug'urtasi va kema egalari majburiyatlarini sug'urtalash kiradi. Kargoni sug'urta qilish ham yuklarni transport sug'urtasiga kiradi. Keyingi yillarda konteynerli tashuvlarni rivojlanishi konteynerlarni sug'urta qilish, mustaqil sug'urta qilishga olib keldi.

Sug'urta shartnomalarini standartlashtirish maqsadida kemalarni sug'urta qilishning amaliyotiga ko'ra xavf guruhlarni birlashtiruvchi har xil shartlar qo'llaniladi.

Halokat va shikastlanish uchun javobgarlik shartlariga ko'ra to'lanishi ta'lluqlidir:

a) olov, yashin, bo'ron va boshqa tabiiy ofatlar, xalokat, kemani erga chiqib ketishi, kemalarning bir-biri, yoki boshqa xarakatlanuvchi yoki suzuvchi predmetlar bilan to'qnashuvi, ortishda, yukni taxlash, tushurishda yoki yonilg'i olayotganda, kema bortidagi yoki tashqaridagi portlash, qozonlar portlashi, vallar sinishi, korpusning ko'rinmas kamchiligi kapitanning xatosi yoki sovuqqonligi yoki boshqa komanda a'zolari xatosi oqibatida kemaning butunlay xalokati yoki qisman shikastlanishdan kelgan zararlar;

b) qutqarish yoki yong'inni o'chirish choralari ko'rilishi oqibatida kemaning shikastlanishidan kelgan zarar;

v) kemani xabarsiz sotilishidan tushgan zarar;

g) umumiy avariya gacha bo'lgan zarar, badallar va chiqimlar;

d) kema egasining kemalar to'qnashuvi oqibatida boshqa kema egasiga to'lashi kerak bo'lgan zarar;

e) kemani qutqarish, zararni kamaytirish va uning o'lchamini belgilash bo'yicha barcha zarur va maqsadga muvofiq hisob-kitoblar, agarda zarar sug'urta shartlari asosida qoplanadigan bo'lsa.

Sug'urta mukofoti deb sug'urtachi sug'urta (kemaning taxminiy shikasti yoki halokati uchun javobgarlikni o'ziga olish) uchun oladigan to'loviga aytiladi; sug'urta mukofoti summasi mukofot stavkasini sug'urta summasiga sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan va sug'urta qilinayotgan paytdagi amaldagi qiymat summasidan oshmaydigan summa ko'paytirish orqali olinadi.

Mukofotning tarifli yoki shartnoma setkasi - sug'urta uchun biladigan, sug'urta summasining yuzi yoki minglik ulushida ifodalangan summasini sug'urta summasidan foizlardagi ko'rinishdir.

Investitsiyalar tavakkalchilik darajasi bo'yicha yuqori tavakkalli va past tavakkalli investitsiyalarga ajratiladi. Moliya sohasida

tavakkalchiliklik deganda investitsiyalarga mutloq yoxud nisbiy miqdordagi foyda kutilganidan ancha kam bo'ladi, boshqacha aytganda «tavakkalchilik» atamasi kutilmagan natija olish imkoniyatini anglatadi. Qo'yilma mablag'lariga foydani mutloq yoxud nisbiy miqdorlarini yoyilishi qanchalik keng bo'lsa tavakkalchilik shunchalik katta bo'ladi va aksincha. Yakka investor eng kam tavakkalchilikka ega bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlardan tortib eng yuqori tavakkalli tovarlarga bo'lgan vositalarni keng tanlash imkoniyatiga ega. Albatta, tavakkalchilik ko'p hollarda emitentning, vositachining yoki muayyan moliyaviy vositalarni sotuvchisini sofdilligiga bog'liq.

Past tavakkallik investitsiyalar muayyan daromad olishni xavfsiz vositasi hisoblanadi. Aksincha, yuqori tavakkalli investitsiyalar chayqovchilik hisoblanadi. Investitsiyalash va chayqovchilik atamaları investitsiyalashga ikki turlicha yondashuvni anglatadi. Aytib o'tilgandek, investitsiyalash deganda qiymati barqaror turadigan va nafaqat daromadni ijobiy miqdorini olish, balki oldindan daromadni aytish mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlarni sotib olish jarayoni tushiniladi. Chayqovchilik shunday aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishdan iborat bo'lib, faqat ularni bo'lajak qiymati va kutilayotgan daromad darajasi ishonchli bo'lmagan holatdir.

3. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash.

Zamonaviy tashqi savdo va dengiz tashuvlari sug'urtasiz mavjud bo'la olmaydi. Ko'p hollarda sug'urta shartnomalari savdo bitimlarining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

Sug'utani kim va kimning hisobidan olib borishi bu bitimlar tuzilayotganda hal qilinadi.

Xalqaro savdoda uning shakllarini ko'pligidan u yoki bu tovar bilan savdo shartlari va ular tomonidan kelishilgan savdo shartnomalari profillari ishlab chikiladi. Bu profillarda bitimda tomonlar tomonidan olinadigan tovarlar bahosini yaratish mexanizmi beriladi.

SIF, KAF, FOB va FAS qisqartmalari bilan 4 xil asosiy savdo bitimlari keng tarqalgan.

SIF inglizcha so'z bo'lib tovarlar bahosi sug'urta va fraxt degan ma'noni anglatadi. Bu shartnomaning maxsus ko'rinishi bo'lib, unda asosiy oldi-sotdi shartnomalari masalalari maxsus asoslarda echiladi:

xaridorga o'tish davrida boisdan halokatga uchrash xavfi, tovarni shikastlanishi yoki boshqacha o'tishi sotuvchining vijdonli harakati,

hisoblar tartibi va boshqa masalalar ko'rib chiqiladi. SIF sharoitlarida tovar sotilganda sotuvchi yukni tushurishidan boshlab portiga olib borishi, uni kema bortiga ortishi, tonnajni fraxtlashi, fraxtni tulashi, yukni yil davomida egasiga etib borguncha dengiz xavflaridan sug'urta qilishi va xaridorga yukni jo'natish bo'yicha barcha kerakli hujjatlarni junatishi shart.

Angliya, Germaniya, Frantsiyada va boshqa mamlakatlarda qoidalarini qo'llash jarayonida qo'shimchalar ko'rinishida bu mamlakatlarning urf-odatları; bitimlar shartlarining o'ziga xosligini u yoki bu yuklarning xususiyatlaridan kelib chiqib tavsiyalar ishlab chiqilgan (masalan, un, o'simlik yog'i, don, paxta va boshqalar).

Ba'zi hollarda bu tavsiyalar rasmiy hukumat aktları bilan rasmiylashtiriladi. Ammo ular asosan tavsifiy depozit harakteriga ega bo'lib, bu narsa xalqaro savdoda har xil bitim va tipovoy shartlarning proformalari shuningdek SIF bitimlari shartlarini har xil talqinlarini yuridik jihatdan tekshirishi va qo'llanishi mumkin.

1936 yildan to 1956, 1980, 1990 yillargacha xalqaro savdo palatasi xalqaro savdo shartnomalarini interpretatsiyasi va norasmiy kodlash, shakllangan odatlar qabul qilib, keng tarqalgan tashqi savdo terminlari va tijorat tushunchalarini birlashtirish borasida katta ishlar qilgan.

Bu ish natijasida "Inkoterms 2000" deb nomlangan yig'ma axborot materialı chiqdi va xalqaro savdo amaliyotida, shuningdek SIF shartlaridagi bitimlarda keng qo'llanila boshladi. 2000 yilgacha (1936, 1953, 1967, 1976, 1980, 1990, 2000) yillar tahririda chiqdi. Shu yillarda xalqaro savdoda yuzaga kelayotgan amaliyotni hisobga oluvchi o'zgarishi va qo'shimchalar qoidalariga kiritildi.

"Inkoterms 2000"ning maqsadi tashqi savdodagi oldi-sotdi shartnomalarida qo'llaniladigan eng muhim atama va tushunchalarni talqin qilish bo'yicha yagona xalqaro qoidalarini o'rnatishdir. Yuqorida aytib o'tilganidek bu qoidalarning qo'llanishi majburiy emas, ammo hozirgacha bo'lgan noaniq qoida va talqinlardan ko'ra aniq va bir xil xalqaro qoidalarini afzal ko'ruvchi savdo bitimlari qatnashchilari qo'llashlari mumkin.

CAF bitimlari - inglizcha so'z bo'lib qiymat va fraxt degan ma'noni anglatadi, etkazib berish CAF bitimiga ko'ra sotuvchi o'z hisobidan manzilgacha shartnomada ko'rsatilgan dengiz tashuvi shartnomasini tuzishi va yukni kemagacha olib borishi zarur. Sug'urta majburiyati xaridorda bo'ladi.

FOB bitimlari o'z nomini inglizcha “bortda erkin” ifodasidan olgan. Bu turdagi bitimga ko'ra sotuvchi, xaridor fraxtlashdan kemaga yukni ortishi zarur. U tovarni tashish vaqtiga sug'urta qiladi. Odatda ichki punktdan ortish partiyagacha va keyinchalik oxirgi yo'nalish nuqtasigacha.

FAS bitimlari inglizcha “bort bo'yicha erkin yoki kema borti bo'yicha erkin” ifodasini bildiradi.

FAS bitimlarni mazmuni FOB bitimlariga o'xshaydi, birgina farqi shuki FOB bitimga ko'ra sotuvchi tovarni kemaga ortadi va tovar kema bortiga o'tishi bilan xavf xaridor zimmasiga o'tadi, FAS bitimga ko'ra esa sotuvchi yukni kemaga olib keladi, lekin javobgarlik uning o'zidan olinmaydi.

Dengiz yuklarini sug'urta qilish shartnomasi sug'urtachining yozma arizasi asosida tuziladi, unda quyidagilar bo'lishi zarur. Yukning aniq nomi, qadoqlash turi, joylar soni, yukning og'irligi, konosament yoki boshqa yo'l hujjatlari raqami va kunlari; kemaning nomi, qurilgan yili, bayrog'i va yuk sig'imi; yukning joylashishi; joylashish nuqtalari, qayta ortish va borish nuqtalari; kemaning jo'natilish vaqti, yukning sug'urta summasi, sug'urta shartlari.

U yoki bu modifikatsiyasi guruhlar London sug'urtachilari institutining butun xavflar uchun javobgarlik, qisman avariya uchun javobgarlik, bilan; halokat holatlaridan tashqari shikastlanishlar uchun javobgarliksiz kabi namunaviy shartlariga to'g'ri keladi.

Barcha xavflar uchun javobgarlik sharti eng ko'p tarqalgan, ammo u “barcha xavflarni” qoplamaydi. Bu shartlardan quyidagi shikastlar istisno. Yukni har xil harbiy harakatlar oqibatida shikastlanishi yoki radiatsiya xavfi; sug'urtachi yoki uni vakillarini sovuqqonligi oqibatidagi shikast, yuk tashish, va saqlash qoidalarini qo'pol ravishda buzish, olov yoki portlash, sug'urtachiga bildirmasdan yuk bilan bir joyda portlash xavfi bo'lgan moddalar joylanishi, yukni kelishuvchi, hashoratlar tomonidan shikastlanish; yukni tashish va baho tushumida cho'zish.

Qisman avariya uchun javobgarlik shartlari birinchisidan farq qilib, unda qoplanishi kerak bo'lgan shikastlarning aniq ro'yxati mavjud. Tabiiyki bu erda sug'urtachining javobgarligi kam. Bu shartga ko'ra “Barcha xavflar” sharti bilan qoplanmagan barcha xavflar bu erda ham javobgarlikdan istisnodir.

Shikastlar uchun javobgarliksiz sharti sug'urta shartlarining ro'yxatidagi halokatdan tashqari umuman avariya uchun javobgarlik

bilan shartlariga mos keladi. Farq shundaki oxirgi shart bo'yicha sug'urtachi oddiy sharoitlarda faqat yuk yoki uning qismiga to'la nobud bo'lganligi uchun javobgar bo'ladi.

Polis bo'yicha huquq va manfaatlarini o'tkazish yoki sug'urta bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summadan o'tkazish, sug'urtachi yoki uning vakilining shu o'tkazishlar to'g'risidagi imzolangan yozma rozilgisiz amalga oshirilmaydi va tan olinmaydi ham.

Konteyner sotish hollarida uning sotilgan kundan boshlab sug'urta bekor qilinadi. Sug'urta shartnomasi sug'urtachi tomonidan bekor qilinsa, netto mukofot ulushiga teng ulush qaytariladi. Shartnoma sug'urtalovchi tomonidan bekor qilinsa, tomonlar tomonidan kelishilgan mukofot qaytariladi.

Konteynerlardagi barcha xavflardan sug'urta qilish shartlarining maxsus sharti sug'urtachini musodara, bosib olish, qamash, ta'kidlash yoki ushlab turish va ularning oqibatlari va boshqa Shunday harakatlar qilishga urinish bilan kelib chiqadigan yo'qotish bo'yicha javobgarlikdan ozod etiladi. Undan tashqari bu shart qoidalariga ko'ra sug'urtachi oldindan aniq bo'lmagan harakatlar yoki harbiy harakatlar, ular to'g'risida e'lon qilinganidan qat'iy nazar ular oqibatidan kelib chiqqan shikastlanishlar uchun javobgar bo'lmaydi.

Sug'urta, fuqarolar urushi, inqilob, qurolli chiqish, ko'zg'olon, fuqarolar to'qnashuvlari va qaroqchilik harakatlari oqibatidagi yo'qotishlar uchun ham javobgar bo'lmaydi.

Sug'urta shartnomasini tuzish sug'urtachining yozma arizasi asosida olib boriladi, unda ob'ekt to'g'risidagi quyidagi asosiy axborotlar bo'lishi kerak: konteynerlar turi, hajm ko'rsatkichlari, baho, tashuvchi kema nomi, kemaning reysga chiqish vaqti, jo'nash nuqtasi, yukni etib borish nuqtasi va boshqalar.

Sug'urta qilingan yuk sug'urtada qayd qilingan hollarda shikastlanganini isbot qilish sug'urta qiluvchi zimmasida bo'ladi. Agar shikastlanish shartnoma shartlariga to'g'ri kelmasa, to'lov kemani yoki konteynerni ta'mirlash ishlariga teng summadan avariya vaqtidagi qismlarning eskirganligini hisobga olish bilan to'lanadi.

Paydo bo'lgan bahslarni hal qilish uchun shartnomalarda arbitraj ajrimi joyi va tartibi ko'rsatiladi.

Konteynerlarni sug'urta qilishning "to'liq halokatdan" deb nomlanuvchi boshqa shartnomalarida faqat konteyner halokatidan kelgan zarar to'lanadi hamda sug'urta shartlariga ko'ra konteynerlarni saqlab

qolish va sarflarning oldini olish yoki kamaytirish bo'yicha xarajatlar, konteynerga umumiy avariya tushadigan qismi to'lanadi. Sug'urtaning bu sharti bo'yicha konteynerlarni ta'mirlash uchun xarajatlar (umumiy avariya holatidan tashqari) to'lanmaydi. Boshqa hollarda bu ikki shart turlari o'xshashdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbuslari bilan moliyaviy bozorni yanada rivojlantirish, uning oshkoraligi va barqaror faoliyatini ta'minlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan investitsiyalar jalb etilishini faollashtirish borasida tegishli vazirlik va idoralar tomonidan jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida, aholi turmush tarzini yaxshilanishiga, ishsizlikni oldini olishga va eng asosiysi kambag'allikni yo'qotishga turtki bo'ladi. Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barcha sohalarida shu jumladan, sug'urta sohasida ham chuqur islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuniga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi 618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2008 yil 21 maydagi 872-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, sug'urta, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirishning yaqqol misolidir.

Bundan tashqari, mazkur Prezident qarori asosida, mol-mulk sug'urtasi va hayotni uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha aholi va korxonalarning to'lagan sug'urta mukofotlari ularning daromad solig'i bazasidan chiqarilishi belgilandi, bu bilan shaxsiy sug'urtani va avvalo jamg'arib boriladigan sug'urta turlarini rivojlanishiga ulkan baza yaratib berildi. Hozirda O'zbekistonda 29 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sug'urta kompaniyalaridan 4 tasi davlat ulushiga ega sug'urta kompaniyalari hisoblanadi, bular "O'zbekinvest" EIMSK, "O'zagrosug'urta" DASK, "Kafolat" DASK va "Madad" Sug'urta agentligidir. "O'zbekinvest hayot" sug'urta kompaniyasi hayot sug'urtasi sohasida faoliyat yuritadi va yana bitta qayta sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi "Transinshurans" sug'urta kompaniyasi mavjud. Qolgan 27 ta sug'urta kompaniyasi umumiy sug'urta sohasida faoliyat yuritmoqda.

2007 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalarining jami nizom jamg'armasi 26,7 mlrd. so'mni va xorijiy valyutada 67,1 mln. AQSH doll. tashkil etadi. Takidlash joizki jami nizom jamg'armasining so'mdagi qismi o'tgan yilga nisbatan 1,5 barobar oshdi.

O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari tomonidan 2007 yilda barcha sug'urta turlari bo'yicha 72.0 mlrd. so'm, sug'urta mukofotlari yig'ilgan bo'lib, bu 2006 yilga nisbatan 44,7 %ga ko'pdir.

Yig'ilgan sug'urta mukofotlarining 95,3% i ixtiyoriy sug'urta turlariga to'g'ri keladi, majburiy sug'urta turlarining ulishi esa 4,7% ni tashkil qiladi. Mazkur holat respublikamizda ixtiyoriy sug'urta turlarining jadal rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Sug'urta bozori bo'yicha jami to'lab berilgan sug'urta qoplamalarining hajmi 7,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 14,5% ga ko'pdir. 2007 yil yakunlariga ko'ra sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar miqdori 207,9 mlrd. so'mdan oshgan, bu ko'rsatkich 2006 yildagi ko'rsatkichga nisbatan 12,5 %ga ko'pdir.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishga katta e'tibor qaratilib, investorlarga ko'maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to'lovlari sohalarida ma'lum imtiyozlar, sharoitlar va kafolatlar tizimi shakllantirildi. Bunday tizimning tarkibiy qismi bo'lgan sug'urtaning shakllantirilishi xorijiy investorlarga siyosiy va tijorat xatarlaridan sug'urta kafolatini taqdim etish imkoniyatini yaratdi.

O'zbekiston hukumati tomonidan sug'urta sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, sug'urta bozorini bosqichma-bosqich isloh qilish amalga oshirilmoqda.

Hozirgi paytga kelib, sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi, umumiy, maxsus qonunchilik hamda qonunga asoslangan va ma'muriy - me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oluvchi qonunchilik tizimi yaratildi. Bunday sug'urtalash huquqiy tizimining mavjudligi respublika sug'urta bozorini rivojlantirishga va takomillashtirishga asos bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasining sug'urta qonunchiligi O'zbekiston hududida xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta tashkilotlarini tashkil etishda investorlarning nizom sarmoyasida qatnashish ulushini qattiq chegaralashni nazarda tutmaydi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda xorijiy investitsiyalarni,

umuman, investitsiya faoliyatini sug'urtalash mexanizmi yaratildi.

Mavjud mexanizmni yanada takomillashtirish, xorijiy investorlarga sifatli, arzon va kulay sug'urta xizmatlarini ko'rsatish milliy va qo'shma sug'urta kompaniyalarimizning asosiy maqsadidir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish va jahon talablariga to'la javob bera oladigan sug'urtalash tizimini yaratish uchun:

- birinchidan, sug'urta bozorida ma'lumotlarning ochiq namoyon etilishi, ya'ni sug'urtalanuvchi va sug'urta nazorati organlarining sug'urta kompaniyalarining ishonchlilik darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi;

- ikkinchidan, sug'urta kompaniyalari faoliyatini boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish, ya'ni samarali boshqaruvni tashkil etish;

- uchinchidan, xorijiy sug'urta institutlari ustidan faol nazorat olib borilishi;

- to'rtinchidan, xo'jalik - moliyaviy ahvoli yomon holatda bo'lgan yoki bankrotlik ehtimoli yuqori bo'lgan sug'urta kompaniyalari bilan ishlash uslublarini yaratish;

- beshinchidan, sug'urta sohasi bo'yicha etuk mutaxassislarni tayyorlash, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhimdir.

Chet el investorlari uchun zarur moliya-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan chet el investorlarini himoyalashning Milliy sug'urta jamg'armasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Bu jamg'arma respublika hududida ta'sis etilgan chet el banklarida O'zbekiston Respublikasi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari valyuta qadriyatlarining bir qismini deponentlash yuli bilan hosil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyasini himoyalash rasmiy davlat sug'urta agentligi hisoblangan sug'urtalash tizimi va chet el sug'urta kompaniyalari ishtirokidagi qo'shma sug'urta kompaniyalari orqali ta'minlanadi.

4. O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlarni qo'llash masalalari

Xalqaro kafolatlar - tovarlar va kapitallar xarakatini uzluksiz va doimiy xarakat kilinishi ta'minlanishiga xizmat kiladi. Xalqaro kafolatlar import qiluvchilarni sifatsiz tovarlar kabul kilishdan, eksport qiluvchilarni esa tovarlar xakini ololmay kolish xavfidan saklaydi.

Xalqaro kafolatlar xalqaro operatsiyalarning barcha asosiy turlarida

kullaniladi Jumladan, bularga:

- xalqaro kreditlar bo'yicha beriladigan kafolatlar;
- eksport-import operatsiyalari bo'yicha beriladigan kafolatlar;
- to'g'ri va portfelli investitsiyalar bo'yicha beriladigan kafolatlarni kiritish mumkin.

Xalqaro kafolatlar markaziy banklar, tijorat banklari, korporatsiyalar, xukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladi. Xalqaro kafolatlar banklar va boshka kafolat beruvchi tashkilotlar uchun muhim daromad manbai hisoblanadi, ammo bular yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi.

Xalqaro kafolatlarda uchinchi bir tomonning ishtirok etishi shartdir. Aynan mana shu kafolat beruvchi tomonning to'lovga layoqatliligi asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Xalqaro kafolatlar xalqaro miqyosda tan olingan sub'ektlar tomonidan beriladi.

Xalqaro kafolatlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

To'g'ri kafolatlar - kafolat beruvchi tomon bevosita eksport-import operatsiyalariga kafolat beradi. Bunda mazkur to'lov bo'yicha majburiyatlarni to'liq o'z zimmasiga oladi. Bunday kafolatlar to'lov talabnomalari bo'yicha hisob-kitoblar, hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblarda keng qo'llaniladi.

Vositlashgan kafolatlar. Bunda kafolat beruvchi uziga xos tarzda vositachilik vazifasini utaydi. Bunday kafolatlar eksport-import operatsiyalarida keng ishlatiladi.

Tasdiqlangan kafolatlar. Bunday kafolatlar berilgan kafolatlarni tasdiqlash shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, bank o'z mijozi bo'lgan import qiluvchining to'lov majburiyatlari bo'yicha kafolat bergan bo'lsa, eksport qiluvchining banki ham ushbu kafolatlar bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Bu esa mavjud kafolatlarni tasdiqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xalqaro kafolatlarning yana quyidagi asosiy shakllari ham mavjud:

1.To'lov bo'yicha berilgan kafolatlar.

2.Sifatli maxsulotlar etkazib berish bo'yicha berilgan kafolatlar (jarima, qo'shimcha xarajatlar).

O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlardan foydalanish masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Respublikada katta summada moliyalashtirilayotgan loyihalarning aksariyatida davlat ulushining ko'pligi sababli, xalqaro kafolatlarni ishlatuvchi sub'ekt hukumatdir. Bunday yirik loyihalarga Kukdumalok neft majmuini misol

qilib keltirishimiz mumkin.

Olinayotgan xalqaro kreditlarning asosiy qismi O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati bilan olinmokda. Xalqaro kafolatlar berishda tijorat tuzilmalari va banklarning ahamiyati kattadir. O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlar o'rnini bosuvchi majburiyatlarni pul mablag'lari bilan ta'minlash tizimi keng qo'llaniladi.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuniga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar hamda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi 618-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2008 yil 21 maydagi 872-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, sug'urta, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirishning yaqqol misolidir.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirishga katta e'tibor qaratilib, investorlarga ko'maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to'lovlari sohalarida ma'lum imtiyozlar, sharoitlar va kafolatlar tizimi shakllantirildi. Bunday tizimning tarkibiy qismi bo'lgan sug'urtaning shakllantirilishi xorijiy investorlarga siyosiy va tijorat xatarlaridan sug'urta kafolatini taqdim etish imkoniyatini yaratdi.

O'zbekiston hukumati tomonidan sug'urta sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, sug'urta bozorini bosqichma-bosqich isloh qilish amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyasini himoyalash rasmiy davlat sug'urta agentligi hisoblangan sug'urtalash tizimi va chet el sug'urta kompaniyalari ishtirokidagi qo'shma sug'urta kompaniyalari orqali ta'minlanadi.

Xalqaro kafolatlar — tovarlar va kapitallar xarakatini uzluksiz va doimiy harakat qilinishi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Xalqaro kafolatlar import qiluvchilarni sifatsiz tovarlar qabul qilishdan, eksport qiluvchilarni esa tovarlar xaqini ololmay qolish xavfidan saqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro kafolatlardan foydalanish masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Respublikada katta

summada moliyalashtirilayotgan loyihalarning aksariyatida davlat ulushining ko'pligi sababli, xalqaro kafolatlarni ishlatuvchi sub'ekt hukumatdir.

Tayanch iboralar:

Investitsiya faoliyatidagi xavf-xatar, sug'urta faoliyati, sug'urta kompaniyalari, sug'urta bozori, sug'urta kafolati, xalqaro kafolat

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining rivojlanishi borasidagi o'zgarishlarni sanab bering.
2. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari va ularning xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashdagi ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning mohiyati nimalardan iborat?
4. Sug'urta kafolatini taqdim etish nimani anglatadi?
5. O'zbekiston Respublikasining sug'urta qonunchiligi nimalarni nazarda tutmaydi?
6. O'zbekiston eksportchilariga sug'urta himoyasini taqdim etish maqsadida qaysi sug'urta kompaniyasi tashkil etildi?
7. Siyosiy xatarlardan sug'urtalash bo'yicha xalqaro tamoyillarga asoslangan holda qaysi sug'urta kompaniyasi tuzilgan?
8. Chet el investorlari uchun zarur moliya-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan chet el investorlarini himoyalash bo'yicha qanday qaror qabul qilingan?
9. Xalqaro kafolatlar qachon va nima uchun qo'llaniladi?
10. Xalqaro kafolatlarning asosiy turlari va ularning mazmunini tushuntirib bering.
11. Investitsiyalarning tavakkalchilik darajasini tushuntirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 24 dekabr 1998 yil soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 30 aprel 1998 yil soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2007 -2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy

investitsiyalarni faol jalb qilish chora - tadbirlari to'g'risida»gi farmoni Xalq so'zi gazetasi 2007 yil 20 iyul soni. 1-2 b.

4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., "O'zbekiston" n. 2009 y.
5. Nematov I.U. «Xorijiy investitsiyalar» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua -T.: TDIU, 2009.
6. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006.
7. Investitsii: uchebnoe posobie / M.V. Chinenov i [dr.]; pod red. M.V. Chinenova. - M.: KNORUS, 2007. - 248 s.
8. Neshitoy A. S. Investitsii: Uchebnik. — 5-e izd., pererab. i ispr. — M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. — 372 s.
9. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. — 384 s.
10. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, www.stat.uz

9–mavzu: Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Reja:

1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasini aniqlash.
2. Investitsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini baholash usullari.
3. Investitsion faoliyatda e'tibor beriladigan jihatlar.

1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samarasini aniqlash

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo'jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko'proq foyda, qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi. Bu qoidadan chetga chiqish resurslarni yo'qotish, jamiyatning ilgarigi va hozirgi mehnatini yo'qqa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba'zan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag'lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab qiladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar ikkita vazifani hal qilishlari lozim:

birinchisi - kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati va daromadlilik nuqtai nazaridan, eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;

ikkinchisi - mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

Birinchi vazifaning echimi mos keluvchi marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni ko'zda tutib, bu tadqiqot davomida talab va undan kelib chiquvchi taklif, bozor segmentatsiyasi, bahoni shakllantirish strategiyasi, moliyalashtirish manbalari va boshqalar aniqlanishi lozim. Investitsion loyihani muqobillik asosida tanlagandan so'ng birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni, texnik va boshqa qarorlarni, jumladan,

muhandislik ta'minoti, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar tayyorlashishlari amalga oshiriladi.

Mamlakatlarning xalqaro kapital migratsiyasi (XKM) jarayonlarida qatnashishi bir qator ko'rsatkichlar orqali namoyon buladi. Bularga kapital eksporti (importi) hajmi, kapital eksporti-importi saldosi, mamlakatdagi xorijiy kapitalli korxonalar soni, ularda band bo'lganlar soni va boshqalar kiradi. Saldodan kelib chiqib, jahon xo'jaligi mamlakatlarini quyidagicha guruxlash mumkin:

- kapitalni eksport kiluvchi mamlakatlar;
- kapitalni import kiluvchi mamlakatlar;
- taxminiy muvozanatdagi mamlakatlar.

Boshka gurux ko'rsatkichlar esa kapitalni eksport-import qilish darajasiga bog'liq holda mamlakatlarning XKM dagi taksimlanishini aks ettiradi. Ular quyidagilardir:

1) Kapital importi ko'effitsienti (K_{ik}) - xorijiy kapital (Xor.Kap)ning mamlakat YAIMdagi ulushini aks ettiradi:

$$\hat{E}_{ik} = \frac{\partial \hat{E}_{ik}}{\partial Y_{AIM}} \times 100 \% ,$$

2) Kapital eksporti ko'effitsienti (K_{ek}) - eksport kilinadigan kapitalni (EK) mamlakat YAIMga nisbatini aks ettiradi:

$$K_{ek} = \frac{\partial K}{\partial Y_{AIM}} \times 100 \% ,$$

evropa mamlakatlari ichida maksimal ko'rsatkich Niderlandiyaga tegishli;

3) Mamlakat iqtisodiyotiga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida xorijiy kapitalni ulushini aks ettiruvchi ko'rsatkich:

$$\hat{E}_{yo} = \frac{\partial \hat{E}_{yo}}{\partial D(\hat{E})} \times 100 \% ,$$

bu erda K_{ex} – ehtiyoj ko'effitsienti, Xor.Kap. – xorijiy kapital, $D(K)$ – mamlakatda kapitalga bo'lgan talab. AQSHning kapitalga bo'lgan ichki ehtiyojlarining 33% xorijiy kapital hisobiga qondiriladi;

4) Boshqa nisbiy ko'rsatkichlar – milliy ishlab chiqarishda xorijiy yoki aralash kompaniyalarning ulushi, o'tgan davrga nisbatan kapital eksporti (importi)ni o'sish sur'atlari, mamlakat aholisining har biriga to'g'ri keladigan xorijiy investitsiyalar summasi va boshqalar.

2. Investitsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini baholash usullari

Investitsion loyihani tayyorlash va shunga mos ravishda investitsiyalar samaradorligini baholash zarurati ko'p holarda yangi korxona, tsexlar qurish yoki mavjud ishlab chiqarishni qayta tiklash va kengaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi nafaqat makonda, ya'ni ma'lum bir hududda, er maydonida, balki vaqtda amalga oshirilishi sababli, vaqt muddati loyihani amalga oshirish, jumladan, korxonani tashkil qilish (qayta tiklash, kengaytirish) hamda ekspluatatsiya qilish va tugatish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi:

1) Sof diskontlangan daromad (SDD) - butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig'indisining boshlang'ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$CDD = \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Bu erda:

N_t – hisob-kitoblarning t -qadamida erishiluvchi natijalar;

X_t – xuddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

T – hisob-kitoblarning vaqt muddati;

E - diskont normasi.

Agar investitsion loyihaning SDD miqdori ijobiy bo'lsa, u holda loyiha samarali, ya'ni investitsiya mablag'lari darajasining qabul qilingan diskont normasini ta'minlovchi hisoblanadi.

Xarajatlar va ularning natijalari miqdorini keltirish ularni *diskontlash koeffitsienti* (d_t) ga ko'paytirish asosida amalga oshirilib, bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$d_t = \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Bu erda:

t - natijalarni olish (xarajatlarni amalga oshirish) davridan taqqoslash davrigacha bo'lgan muddat bo'lib, yillarda o'lchanadi.

Diskont normasi (E) - boshqa investorlar o'z mablag'larini xuddi shu turdagi loyihalarni amalga oshirish uchun kiritishga rozi bo'luvchi,

kapitalning daromadlilik koeffitsienti (daromad miqdorining kapital qo'yilmalarga nisbati).

Agar diskont normasi vaqt davomida o'zgaradigan bo'lsa, diskont koeffitsienti (d_t) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$d_t = \frac{1}{\prod_{k=1}^t (1 + E_k)}$$

Bu erda:

E_k – k-yildagi diskont normasi;

t- hisobga olinuvchi vaqt muddati, yil.

Investitsion loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda mahsulot va iste'mol qilinuvchi resurslarning bazis, bashorat qilinuvchi, jahon va hisobiy baholaridan foydalaniladi.

2) Investitsiyalarning daromadlilik indeksi (ID) - keltirilgan samaraning investitsiyalar miqdoriga (K) nisbati bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ID = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Agar daromadlilik indeksi birga teng yoki undan katta bo'lsa, investitsion loyiha samarali, aks holda esa samarasiz hisoblanadi.

3) Ichki daromadlilik normasi (IDN) - keltirilgan samara miqdori keltirilgan investitsiya miqdoriga teng bo'lgan xoldagi diskont normasi (E_{ich}), ya'ni E_{ich} (IDN) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$\sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E_{uq})^t} = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1 + E_{uq})^t}$$

Ushbu formula asosida aniqlangan daromadlilik normasi miqdori investorning kapitalga talab qiluvchi daromad miqdori bilan taqqoslanadi. Agar IDN talab qilinuvchi daromad normasiga teng yoki undan katta bo'lsa, u holda loyiha samarali hisoblanadi.

4) Investitsiyalarning qoplanish muddati (T_i) - investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo'lgan minimal vaqt muddati. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_u = \frac{I_c}{\Pi_m}$$

Bu erda:

I_s – sof investitsiyalar;

P_m – loyiha keltiruvchi o'rtacha yillik pul mablag'lari oqimi, so'm.

SHu bilan birga qoplanish muddati loyiha daromadlilik ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Shu sababli amaliyotda investitsiyalar birlamchi kapital (qo'yilma)ga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichi orqali ko'rib chiqiladi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D_u = \frac{M}{K} \times 100$$

Bu erda:

D_u – investitsiyalar daromadi, % da;

M_n – soliqlar to'langandan so'ng qolgan foyda, so'm;

K – investitsiyalar (boshlang'ich).

U yoki bu investitsion loyihani tanlash to'g'risida qaror qabul qilishda korxonalar quyidagi savollarga javob berishi lozim:

- * ishlab chiqarishdagi bugungi holat qancha davom etishi mumkin va bozorda mahsulotga (ish, xizmatga) bo'lgan talab qanday;
- * kapital kiritish uchun imkoniyatlar qanday;
- * raqobatchilik faoliyati qanday;
- * qanday muvaffaqiyat omillari mavjud;
- * yangi bozorga kirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashning *ikkinchi uqolatida*, ya'ni mablag'larni mavjud ishlab chiqarishga kiritishda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

a) investitsiyalarning har bir so'miga to'g'ri keluvchi qo'shimcha mahsulot quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\Theta = \frac{(YAM_1 - YAM_0)}{I_k}$$

Bu erda:

E – investitsiyalar samaradorligi;

YAM_0 , YAM_1 – yalpi mahsulot, mos ravishda birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

I_k – qo'shimcha investitsiyalar miqdori.

b) investitsiyalarning har bir so'miga tannarxning pasayishi:

$$\Theta = \frac{Q (TH_0 - TH_1)}{H_{\kappa}}$$

Bu erda:

TN_0, TN_1 - mahsulot birligi tannarxi, mos ravishda, birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

Q – qo'shimcha investitsiyalar kiritilgandan keyingi yillik mahsulot hajmi, natural o'lchov birl.

v) investitsiyalarning har bir so'miga mahsulot ishlab chiqarishdagi mehnat xarajatlarini qisqartirish:

$$\Theta = \frac{Q (M_0 - M_1)}{H_{\sigma}}$$

Bu erda:

M_0, M_1 – mahsulot birligiga ishlab chiqarishda sarflanuvchi mehnat xarajatlari, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng

g) investitsiyalarning har bir so'miga foydani oshirish:

$$\Theta = \frac{Q (\Phi_1 - \Phi_0)}{H_{\sigma}}$$

Bu erda:

F_0, F_1 – mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi foyda, mos ravishda qo'shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so'ng.

e) investitsiyalarning qoplanish muddati.

Investitsiyalar samaradorligini keltirilgan formulalar asosida (boshqaruv darajasini inobatga olgan holda) aniqlash ishlab chiqarishni rivojlantirishga qancha miqdorda investitsiya kiritilgan va uning natijasi qanday degan savolga javob beradi, ya'ni u investitsiyalarning mutlaq (absolyut) samaradorligini tavsiflaydi.

Iqtisodiy samardorlikni baholash jarayonida kiritiluvchi investitsiyalarning qoplanish muddatini aniqlashning o'ziga xos o'ri bo'lib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_{OK} = K / (F_{r1} - F_{r0})$$

Bu erda:

K - asosiy ishlab chiqarish fondlariga kiritiluvchi kapital qo'yilmalar hajmi;

F_{r1} - rejalashtirilayotgan davrning so'nggi yilidagi foyda;

F_{r0} - bazis yildagi foyda (rejadan oldingi davrning so'nggi yili).

Kapital qo'yilmalarning samaradorlik koeffitsienti qoplanish mudatiga teskari bo'lgan kattalikdir. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$E = (F_{r1} - F_{r0}) / K$$

Vaqt omili, ayniqsa, investor (buyurtmachi) nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslarning haqiqiy samaradorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qurilish, qayta tiklash va kengaytirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish ishlari qanchalik tez bajarilsa, investor va pudratchi uchun shunchalik foydali bo'ladi. qurilgan ob'ektni muddatidan avval foydalanishga topshirishdan olinuvchi qo'shimcha foyda (E_{kf}) orqali iqtisodiy samara quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E_{kf} = E_n F (T_{sh} - T_a)$$

Bu erda:

E_n - samaradorlikning normativ koeffitsienti;

F - muddatidan avval foydalanishga topshiriluvchi asosiy fondlar qiymati;

T_{sh} - ob'ektni foydalanishga topshirishning shartnomadagi muddati;

T_a - ob'ektni foydalanishga topshirishning amaldagi muddati.

Ob'ektlarni foydalanishga topshirishning shartnomadagi va amaldagi muddatlari o'rtasidagi farq mazkur formulada ($T_{sh} - T_a$) yil ulushida aks ettirilishi lozim (vaqt ko'rsatkichi). Agar $T_{sh} < T_a$ bo'lsa, ya'ni ob'ektni foydalanishga topshirish muddati o'tib ketadigan bo'lsa, investor kutilayotgan foydani olishdan mahrum bo'ladi va boshqa chiqimlarga duch kelib, bu narsa hisobiy samaraning salbiy bo'lishiga olib keladi. Shu sababli qurilish yoki korxonani qayta tiklash va kengaytirish ishlari, ob'ektlarning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik tez amalga oshirilsa, investitsiyalar samaradorligi mos ravishda shunchalik yuqori bo'ladi.

3. Investitsion faoliyatda e'tibor beriladigan jihatlar.

Investitsiya kiritish asosida kelajakda foyda olish ko'zda tutiladi. Buning uchun albatta, puxta o'ylab ish tutish lozim. Dastlab investitsiya kiritish loyihasi tuzib olinishi shart. Har qanday loyiha tuzish asosida albatta, bir qancha fikrlar majmuasi, nazariy yoki amaliy tadqiqotlar asosida malakali konstruktorlarni yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratishga undaydi. Bunday fikrlarni albatta, mutaxassislar, olimlar va

malakali ishchi xizmatchilar bildirishadi. Fikrlar marketing tadqiqotlarida unumli samara berishi mumkin. Shulardan real fikrlarga ko'prok e'tibor berish lozimki, bu fikrlar quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotni raqobatbardoshligi;
- foydaning o'sish darajasi;
- mahsulot hajmini ortishi;
- mahsulotni boshqa bozorlarga chiqish imkoniyati;
- mahsulotni turib qolishini kamayishi;
- foydalanilayotgan kapitalning samaradorligi;
- firma imidjining o'sishi.

Bundan ko'rinadiki, har qanday firma yoki korxonaning samaradorligini yuqoridagi faktorlar yordamida aniqlash mumkin. Har qanday loyihalar ma'lum bir muddatga tuzilib, vaqt o'tishi bilan o'z samarasini yo'qotadi. Investitsiya loyihalarini baholashda yana bir doimiy asosiy o'rinda turadigan vaqtlilik omili mavjuddir. Bu omil investitsiya jarayonining lokomotivi bo'lib hisoblanadi.

SHuni alohida ta'kidlash mumkinki, investitsiyalashtirish va uni moliyalashtirish investorning talabiga muvofik o'zgarib turishi mumkin.

Investitsiyalashtirishdan oldingi o'rganish jarayonini quyidagilarga ajratiladi:

- imkoniyatlarni o'rganib chiqish;
- tayyorlov yoki loyihalashtirishdan oldingi izlanish;
- iqtisodiy-texnik izlanish.

Investitsiyaviy izlanishning oraliq farq darajalari doim shartli belgilanadi. Investitsiyalashtirishdan oldingi kuzatish ishlarini olib borish uchun kapital qo'yilmaning umumiy qiymatidan 0,8%-5% gacha ajratiladi. Investitsiyallashtirishdan oldingi bosqichni muddatini aniq belgilash juda murakkab bo'lib bu loyihalashtirishga bog'lik bo'ladi.

Loyihalarni investitsiyalash jarayoni davomida korxona aktivlari ya'ni, o'z mablag'lari shakllanib boradi. Shu bilan birga boshqa korxonalar bilan mahsulotlar etkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzilib boradi, ishchi xizmatchilarni ishga qabul qilish jarayoni boshlab yuboriladi

Investitsiyadan foydalanish jarayonida loyihaga quyilgan investitsiyadan kelgan samaradorlik belgilanadi.

Bu jarayonda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarilgan mahsulotni sertifikatsiyalash;
- broker va diller aloqalarini tashkil qilish;
- loyihani iqtisodiy ko'rsatkichlari monitoringini o'tkazish.

Har qanday investitsiyani loyihalashtirish ma'lum bir darajadagi bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Shu o'rinda aytish joizki, har qanday investitsion loyihani samaradorligini aniqlash uchun bu loyihani qanday fikr asosida tuzilganiga, uning muddatiga, investitsiya miqdoriga va inflyatsiyaning darajasiga e'tiborni qaratish lozim. Bu bilan biz investitsiya jarayonida uchraydigan bir qancha muammolarni oldini olgan bo'lamiz.

Investitsiyaning rentabellik darajasi inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lgan taqdirdagina mablag'larni investitsiyalashtirish o'z mazmuniga ega bo'ladi.

Ana shu qoidaga rioya qilib, nima uchun kredit bo'yicha foiz stavkalari odatda, inflyatsiyaning darajasidan yuqori bo'lishi kerak - degan savolga javob topish mumkin. Agar foiz stavkasi inflyatsiya darajasidan past bo'lsa, bankir kasodga uchraydi, korxonalarining ishlab chikarishga bo'lgan qiziqishlari so'nadi. Bunday sharoitda korxona uchun ishlab chikarish bilan mashg'ul bo'lgandan ko'ra, u yoki bu tovarni sotib olish, hech qanday tashvishsiz va ortiqcha xarajatsiz hotirjamlik bilan baholarni foydaliroq darajaga etgunga qadar bir necha oy kutish va o'sha mahsulotni qaytadan sotish bilan shug'ullanish afzalroq hisoblanadi. Lekin, shu bilan birgalikda, ishlab chikarish sur'atlarining pasayishi, o'z navbatida tovarlar kamchiligini keskinlashtiradi va yanada kuchliroq ravishdagi inflyatsiyaga olib keladi.

Investitsion qarorni baholash uchun soliqlar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi zarur. Shu narsa muhimki, korxona uchun soliqlarni o'z muddatida to'lashni kechiktirish foydalidir. Shu sababli bu o'rinda investitsion soliq kreditining afzalliklaridan to'liq foydalanish zarurligini alohida ta'kidlash zarur. Soliqlarni byudjetga to'lash muddatlaridan oqilona foydalanish orqali olinishi mumkin bo'lgan samaraga erishishga harakat qilish ham bu jarayon uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, agar foydadan olinadigan solik bo'yicha avansli tulovlar xar chorakda bir marta amalga oshirilsa,

korxona tulov muddati etgunga kadar shu mablaglardan o'z xujalik oborotida intensiv foydalanish mumkin. Bu korxona uchun foy dadan boshka xoli bir narsa emas.

Investitsion jarayon yukorida takidlanganidek, xar doim risk bilan chambarchars boglangandir, chunki vakt noaniklikni kuchaytiradi va xarajatlarni koplashning muddatlari uzoq bulsa, investitsion loyixa shunchalik risk bilan bo'ladi.

1) Kredit foiz stavkasi inflyatsiya darajasida yukori bulishi kerak.

2) Soliklarning byudjetga to'lash okilona o'sishdagi foydalanish axamiyatga egadir.

SHuning uchun xam, investitsion qaror qabul qilish vaqtida moliyaviy menejer xarajatlar, tushum, foyda va u yoki bu investitsion loyixalarning realizatsiya kilinishida erishishligi lozim bulgan iktisodiy rentabellik baholanayotgan paytda, albatta, vaqt o'zgarishlarini inobatga olinmog'i lozim, Ana shu narsa diskontlashtirish deyiladi.

Diskontlash kelajakda olinishi mumkin bulgan har qanday summani hozirgi paytda kichikrok bulgan sub'ektiv foydalilikka ega degan qoidaga asoslangan. Chunki, agar biz o'sha summani xujalik oborotiga kiritsak va daromad keltirishga majbur etsak, o'sha summa bir-ikki yildan so'ng saqlanibgina kolmasdan, balki ma'lum miqdorga ko'payadi. Diskontlashtirish kelajakda olinishi mumkin bo'lgan summaning hozirgi pulli ekvivalentini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun kelajakda olinishi mumkin bulgan summadan murakkab foiz buyicha ma'lum muddatda jamlangan daromadni ayirish kerak.

Investitsion qarorlarni qabul qilishda, ayniqsa, real realizatsiyalarning samaradorligini baholash muhim bosqichdir. Quyilgan mablag'larning qaytarish muddati va korxonaning kelgusi rivoji baholashning tug'riligi, ishonchliligiga bog'liq.

Iktisodchilarning investitsion loyixalarini tayyorlashlarini, keyin esa ularning realizatsiya bilan shugullanishlari uchun korxonaga loyixaning samaradorligini ishonchli baxolash zarur. Investitsion loyixaning boshqa xamma ma'lum ko'rsatkichlarida ham korxona agar investitsiyadan foydalanishning samaradorligini isbotlab bormasa korxona uni hech qachon realizatsiya kila olmaydi. Investitsiya tomonidan ishlab chikarilgan bunday natijaga erishishning realligi, ixtiyoriy doyixaga kuyilgan mablagning moliyaviy - iktisodiy baxolashning kaliti echimi bulib hisoblanadi.

Lizing uskunalardan foydalanilgan investitsion loyihalarni moliyaviy iqtisodiy baholash mukammalligini imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Iqtisodiy jalb qilishni baholashning uchta asosiy metodi mavjud:

- sof joriy qiymatni aniqlash;
- investitsiya rentabelligini aniqlash;
- daromad ichki me'yori aniqlash;

-investitsiyalardan foydalanishni qoplash davrini hisoblash; +oplash davri ko'rsatkichini xarakterlaganda shuni belgilash kerakki, u faqat kapital quyilmalarning samaradorligini aniqlashda emas, balki investitsiyaning likvidligi bilan bog'liq risk darajasini baholashda ham ishlatiladi. Investitsion qarorlarni qabul qilishda asosiy kreditorlar quyidagilar:

1. Bush pul mablag'larini kuyish uchun foydalirok alternativning yukligi;
 2. Inqiroz ta'sirida kam zarar kurish ;
 3. Kapital xarajatlarining qoplash muddatining qisqaligi;
 4. Loyiha arzonligi
2. Diskontlashgandan keyin investitsiya rentabelligini yuqoriligi.

Keltirilgan ko'rsatkichlar kombinatsiyasidan foydalanish investor yoki bu loyixa foydasi uchun to'g'ri qaror qabul qilish mumkin. Korxonaning investitsion portfeliga bosh talabi uning balanslashganligidir. Bu shu bilan tushuntiriladiki bu korxonaga hozirgi va yaqin urtada pul mablag'lari bilan ta'minlash uchun loyixalarni taksimlash hamda kelajakda daromad qurilishiga yuqorida keltiriladigan taqsimlash hamda kelajakda istiqbolli loyixalar bilan ta'minlashdir. Korxona amaliyoti rentabelli loyihani ta'minlab uning realizatsiyasi uchun pul mablag'larining etishmovchiligi bilan tuqnash kelishidir. Bunday hollarda investitsiya rentabelligini moliyalashtirishning ichki va tashki manba'larini jalb qilishni hisobga olgan holda qo'shimcha hisobotni amalga oshirish muvofiqdir.

Hozirga vaqtda yirik kapilallashtirilgan loyihalar qoidaga muvofiq daromadning past ko'rsatkichiga qoplash muddati uzayrilishiga ega. Shuning uchun ular davlat va mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirish kerak. Boshqaruv qarorining qabul qilinishining real jarayoni keng miqiyosida axborotlar korxona investitsion rejasida o'z aksini topadigan ko'pgina moliyaviy hisoblarni talab qiladi. Investitsion

strategiyani tanlaganda korxona tovarlarni bozorda yashash tsiklini hisobga olishi zarur.

Qisqacha xulosalar

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi.

Investitsiya kiritish asosida kelajakda foyda olish ko'zda tutiladi. Buning uchun albatta, puxta o'ylab ish tutish lozim. Dastlab investitsiya kiritish loyihasi tuzib olinishi shart. Har qanday loyiha tuzish asosida albatta, bir qancha fikrlar majmuasi, nazariy yoki amaliy tadqiqotlar asosida malakali konstruktorlarni yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratishga undaydi. Bunday fikrlarni albatta, mutaxassislar, olimlar va malakali ishchi xizmatchilar bildirishadi.

Investitsiyaning rentabellik darajasi inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lgan taqdirdagina mablag'larni investitsiyalashtirish o'z mazmuniga ega bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro kapital xarakatining iqtisodiy samarasi tushunchasini yoritib bering.
2. Investitsiyalardan keladigan foyda qanday aniqlanadi ?
3. Kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oqib o'tishi qanday omillarga bog'liq ?
4. Mamlakat iqtisodiyotiga sarflanayotgan kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida xorijiy kapitalni ulushini aks ettiruvchi ko'rsatkichning mohiyatini yoritib bering.
5. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va uni baholash usullarini tushuntiring.
6. Investitsion loyihalarni baholash muammolarini sanab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. — 384 s.

2. Bogatin YU.V. Shvandar V.A. Investitsionno'y analiz. Ucheb pos. — M.: YUNITI, 2001
3. V.D. Gribov, V.P. Gruzikov **Ekonomika predpriyatiya. Praktikum. 3 — e izd. pererab. i dop.** Uchebnik M.: FiS 2004.
4. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova “Investitsii: uchebnoe posobie” M.: KNORUS, 2006.
5. Gilyarovskaya L.T., Vexorova A.A. **Analiz i otsenka finansovoy ustoychivosti kommercheskogo predpriyatiya.** — SPb: Piter, 2003. — 249 s.
6. Gurtov V.K. **Investitsionnie resursi.** — M.: Ekzamen, 2002
7. «Delovoy partner Uzbekistana» Pryame inostrannye investitsii v stranax vostochnoy evropi. 2003 g 8 may.
8. Investitsii: uchebnoe posobie / M.V. Chinenov i [dr.]; pod red. M.V. Chinenova. - M.: KNORUS, 2007. - 248 s.
9. «Investitsionniy potentsial Uzbekistana» X.X. Imomov 3-y Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii 20-21 noyabrya 2003 goda.
10. Kovalev V.V. **Metodi otsenki investitsionnix proektov.** — M.: Finansi i statistika, 2003
11. Krlov E.I. **Analiz effektivnosti investitsionnoy i innovatsionnoy deyatel'nosti predpriyatiy** F Ucheb pos. 2e izd. pere rab i dop.. — M.: Finansi i statistika, 2003. — 605 s.
12. Maxmudov E.X. **Korxona iqtisodiyoti: O'quv.qo'll.** —T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.
13. **Metodicheskie rekomendatsii po otsenke effektivnosti investitsionnix proektov i ix otbori dlya finansirovaniya.** Izdanie ofitsialnoe — M.: OAO [NPO] izdatelstvo [Ekonomika] 2000
14. Neshitoy A. S. **Investitsii: Uchebnik.** — 5-e izd., pererab. i ispr. — M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. — 372 s.
15. Sergeev I.V **Ekonomika predpriyatiya. 2 — e izd. perab. i dop.** Uchebnoe posobie M.: FiS 2004.
16. Fomin YA.A. **Diagnostika krizisnogo sostoyaniya predpriyatiya: Ucheb. posobie dlya vuzov.** — M.: YUNITI—DANA, 2003. 439 s.
17. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. **Investitsii: Per. s angl.-**

M.: INFRA- M, 1997

18. Ekonomika SNG: 10 let reformirovaniya i integratsionnogo razvitiya. M.: Finstatinform, 2001.

19. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, www.stat.uz

10-mavzu. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xorijiy investitsiyalarni jalb etish

Reja:

1. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati
2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya muhitining roli
3. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar
4. Kichik biznes sub'ektlarining investitsion loyihalarini xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirish

1.Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati

O'zbekistonda kichik biznes korxonalarini barpo etish orqali mustaqil xo'jalik yurituvchi mulk egalari shakllandi. Kichik biznes korxonalari bozor iqtisodiyotiga xos turli makroiqtisodiy shart-sharoitlar va talablariga moslashishi imkoniyatlariga egaligi bilan ustuvor ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashning muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda kichik biznes taraqqiyotining keskin avj olishi natijasida ularning mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot salmog'idagi ulushining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining iqtisodiyotdagi o'ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta'siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo'nalish o'rnini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyat rivojida alohida o'rin egallaydi.

Mustaqillik yillaridagi taraqqiyot misolida shuni hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, bu sohani rivojlantirmasdan, unga tegishli ko'mak va rag'bat bermasdan, zarur imkoniyat, imtiyoz va preferensiyalar yaratmasdan turib, iqtisodiyotning kelajagini ta'minlash qiyin.

Ichki bozorni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo'lmish aholini,

avvalambor, yoshlarni ish bilan ta'minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda ayni shu sohani tez va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish eng asosiy omillardan biri.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta'minlash orqali mamlakatda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan o'rta sinfnining shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo'lib borishiga erishilmoqda.

Agar 2000 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 30 foizi kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, qisqa bir davrda, ya'ni 2010 yil yakuni bilan bu ko'rsatkich qariyb 53 foizga yetdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik odamlar uchun yangi ish o'rinlari ochish, barqaror daromad manbalarini yaratishning eng muhim omiliga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda mamlakatdagi ish bilan band aholining 74 foizdan ortig'i aynan shu sohada mehnat qilmoqda. 2010 yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 480 mingta yangi ish o'rni ochildi. Eng muhimi, bu ish o'rinlarining 60 foizdan ortig'i qishloqlarda tashkil etildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda o'ta muhim rol o'ynaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfni shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

2011 yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliq yukini yanada kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 10 foizdan 8 foizga, 2009 yildan boshlab esa 7 foizga tushirilishi, 2011 yildan boshlab 6 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omillar yaratdi.

Natijada 2008 yili faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlari soni qariyb 400 mingtani tashkil etdi, bu mazkur ko'rsatkichning so'nggi

olti yil mobaynida 1,9 barobar ko'payganligini bildiradi

Faoliyat ko'rsayotgan kichik biznes sub'ektlarining salmog'i 1,7% ga, shu jumladan sanoatda – 1,3% ga, qurilishda – 3,4% ga, transportda – 22,2% ga va boshqa ishlab chiqarish sohalarida – 9% ga oshdi. Faoliyat ko'rsatmayotgan tadbirkorlik sub'ektlari ulushi 8,6% ni tashkil etdi. O'z o'rnida aytish kerakki, bu ayrim rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichidan ancha past.

1-jadval

Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi, 2009 yil*.

	O'lchov birligi	YAIM	Sanoat mahsu- lotlari	Qurilish ishlari	Chakana savdo	Pullik xizmatlar
Respublika bo'yicha	mlrd so'm	24096,6	4739,4	2855,8	7671,0	3067,6
	%	50,1	16,9	41,6	46,5	48,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	%	60,7	18,0	65,9	43,2	49,6
Viloyatlar	%					
Andijon	%	51,2	7,7	92,4	47,3	61,0
Buxoro	%	61,4	14,5	46,4	38,2	68,9
Jizzax	%	74,4	37,4	89,7	49,7	48,0
Qashqadaryo	%	52,6	24,0	61,2	39,9	79,4
Navoiy	%	31,2	2,7	50,2	53,7	59,5
Namangan	%	72,4	29,4	77,8	46,3	60,0
Samargand	%	71,2	29,8	76,9	58,0	67,9
Surxondaryo	%	70,0	16,7	74,3	36,6	61,6
Sirdaryo	%	75,5	31,4	79,4	56,7	59,6
Toshkent	%	51,8	16,2	62,1	41,4	55,7
Farg'ona	%	56,1	8,9	74,2	45,6	64,4
Xorazm	%	68,2	26,4	72,5	47,3	66,9
Toshkent sh.	%	46,7	34,6	40,3	49,3	30,2

*O'zR Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi o'tgan yili salkam 22 foizga ko'paydi. Bu sanoat tarmog'idagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan ancha ko'pdir. Shuning natijasida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2007 yildagi 45,5 foizdan 2008 yilda 48,2 foizga ko'tarildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 76 foizdan ko'prog'i aynan shu sohada mehnat qilayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati rivojlantirishga oid dasturlarni amalga oshirish natijasida o'tgan yilda 37 mingdan ortiq yangi kichik biznes sub'ektlari, 119,6 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etildi. Shuningdek, tarkibiy

o'zgartirilayotgan monopolist-korxonalarining foydanilmayotgan quvvatlarida 130 ta turli mulkchilik shakllariga asoslangan yangi kichik korxonalar tashkil etilib, ularda 7,5 mingga yaqin ish o'rinlari yaratildi. 83 ta bankrot korxonalar negizida 92 ta yangi tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etilib, ularda 9,8 mingta ish o'rinlari yaratildi.

Mamlakatimizdagi aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'tgan yil mobaynida yurtimizda 661 mingga yaqin, jumladan, kichik biznes sohasida – 374 mingta, xizmat ko'rsatish va servis sohasida – qariyb 220 mingta, kasanachilik hisobidan esa – 97 ming 800 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Kichik korxonalarni rivojlantirishda bank moliya tizimining o'rnini alohida ta'kidlash lozim. Iqtisodiyotda kichik korxonalarning faoliyat yuritishi yirik korxonalarni ayrim xarajatlardan xolos etib, ko'p hollarda yirik korxonalarda qo'llaniladigan yangi texnika va texnologiyaning kichik korxonalarda qo'llanishida ko'proq samara beradi. Kichik korxonalar jamiyat uchun boshqa korxonalarga nisbatan ko'proq yangi tovarlar etkazib bera oladi hamda iste'molchilarning talabini kengroq o'rganib, o'z faoliyatini talabga moslashtira oladi.

Kichik korxonalarda mehnatni tashkil etish iste'dodli kadrlarning ijodiy faoliyatidan samarali foydalanish bilan birga ularning jamiyatga tanilishiga ham imkoniyat yaratadi. Boshqa korxonalarga nisbatan kichik korxonalarda tajribali mutaxassisilardan foydalanish nihoyatda yuqoridir. Mahalliy xomashyolardan foydalanish, chiqindilar va mehnat salohiyatidan foydalanishda kichik korxonalar uchun imkoniyatlar mavjud. Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan talab kapital aylanishining tezlashishi aynan kichik korxonalarda yo'naltirilgan kapitalning o'z-o'zini boshqarayotgan korxonalarga nisbatan uch maratoba yuqoriligi isbotlangan.

Yuqoridagi fikrga asoslangan holda aytish mumkinki, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining samarali natijasi sifatida mamlakatimizda bandlik, aholi farovonligi ta'minlanmoqda va bu soha makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy iqtisodiy omillardan biri vazifasini bajarmoqda. Mamlakatimizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga qaratilgan islohotlar tufayli kichik biznes taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar

yaratilmoqda, lekin bu holat hali kichik biznes faoliyati uchun tayyor harakat dasturini bermaydi. Tadbirkorlik sub'ektlari, birinchi navbatda kichik biznes uchun soliq yukini pasaytirish va tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish sohasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan olib borilayotgan islohotlar respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida amaliy natijalar bermoqda

2.O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya muhitining roli

Kichik biznes iqtisodiyotning shunday sektoridirki, u investitsiya muhitida yuz berayotgan deyarli barcha o'zgarishlarga moslashadi. Kichik biznes nuqtai nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasini aniqlash uchun butun mamlakat va mintaqalardagi iqtisodiy vaziyatni ko'rsatuvchi omillar, iqtisodiyotning bu tarmog'iga investitsiyalar kiritish qonunlar va infratuzilmalar bilan qanchalik ta'minlanganligi, mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, malakali ishchi kuchining mavjudligi, Shuningdek, mana shu va boshqa omillar bilan bog'liq xatarlar bor yoki yo'qligi g'oyat muhimdir.

Xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati shuki, uning uchun mintaqaviy omillar qoida tariqasida, investitsiyalar jalb etish jarayoniga ta'siri jihatidan ustunlik qiladi. Investitsiyaviy muhit tahlilini tarmoqlar bo'yicha olib borish zarurligini ko'rsatib o'tish kerak. Chunki, ijobiy investitsiyaviy omillar turli tarmoqlar uchun o'ziga xos jihatlarga ega. Ba'zi hollarda bir tarmoqda ijobiy rol o'ynashi mumkin bo'lgan omillar boshqa tarmoq uchun salbiy bo'ladi yoki agar muayyan tarmoq uchun biron-bir ko'rsatkich etarli darajada namoyon bo'lsa, shu ko'rsatkichning o'zi boshqa tarmoqning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun mutlaqo kam bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda kichik tadbirkorlik uchun tarmoqlar bo'yicha investitsiya muhiti alohida qiziqish tug'diradi. Kichik biznes uchun o'ziga xos ba'zi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi va infratuzilmasini rivojlantirishning mintaqaviy ko'rsatkichi;

- egallab turgan bozor sektorlari bo'yicha (masalan, xizmatlar yoki savdo sohasida) raqobatlashuvchi yirik firmalarning mavjudligi va rivojlanish darajasi;

- mahalliy bank tizimining rivojlanish darajasi va boshqa omillar.

Kichik korxonalar o'zlariga xos xususiyatlar tufayli investitsiya resurslarini jalb etish uchun xizmat qiladigan ko'p sonli manbalarning ayrimlaridangina foydalana oladilar. Masalan, shuni qayd etish kerakki, kichik tadbirkorlikdagi ichki moliyalash manbalari tadbirkor o'zini o'zi investitsiyalashi uchun beradigan imkoniyatlar yirik firmalarning imkoniyatlari darajasida emas. Shunga qaramay, bu manbalardan kichik tadbirkorlikda foydalanish sezilarli samara berishga qodir bo'lib, jalb etish samaradorligi jihatidan bir qancha afzalliklarga ega. Shunday qilib, investitsiya resurslarini shakllantirishning qulay manbalari sonini ko'paytirish hamda mavjud manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish hozirgi vaqtda, birinchi navbatda, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tuzilmalarining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Kichik korxonaning muhim xususiyati shuki, u moddiy shaklda oladigan resurslardan yirik firmalarga qaraganda ancha samarali va moliyaviy resurslarga qaraganda nisbatan samaraliroq foydalanish xususiyatiga ega. Ushbu xususiyatga sabab shuki, eng avvalo, kichik korxonani boshqarish tuzilmasi, odatda unchalik konservativ bo'lmaydi. Bu esa moliyaviy mablag'lardan foydalanish uchun salbiy omil, buyum holidagi investitsiyalar uchun esa ijobiy omildir. Moliyaviy investitsiyalarni qidirib topish, jalb etish va ishlab chiqarishga kiritish jarayoni hamma vaqt ancha rasmiylashgan va me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Qoida tariqasida yuqori darajali professional moliyachilarga ega bo'lmagan kichik korxona uchun esa bu operatsiya qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli kichik korxonalar moddiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishdan manfaatdor. Intellectual resurslar (texnologiyalar, "nou-xau", savdo markalari va boshqalar) bundan mustasno, lekin bu sohada ham kichik korxona nazarida tayyor mahsulotni sotib olishi uchun mablag' etarli emas, balki investitsiyalar sifatida shu tayyor mahsulotning o'zini olish ma'qulroq.

Bozor islohotlarini amalga oshirayotgan bir qator mamlakatlarda moddiy investitsiyalarni jalb etishning turli shakllari orasida lizing, franchayzing va tolingdan juda faol foydalanilmoqda. Buning ustiga, kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash organlarining mavjud va ishlab chiqilayotgan dasturiy hamda me'yoriy hujjatlarida mazkur shakllarga katta o'rin berilmoqda. Moddiy investitsiyalashning

turli shakllaridan foydalanish samarasi ko'p jihatdan bunday operatsiyalarda vujudga keladigan munosabatni tartibga soladigan maxsus me'yoriy bazaning rivojlanish darajasi, tegishli bozor infratuzilmasining rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Xususiy tadbirkorlikni va bu sohaga investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan davlat siyosatini amalga oshirish institutsiyaviy va huquqiy tizimni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bu tizimning samarali ishlashi uning barcha unsurlari bir-birining vazifasini juda kam takrorlagan holda doimiy ravishda o'zaro aloqada bo'lishini hamda faoliyatlari muvofiqlashtirilishini taqozo etadi. 2000 yilda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun kichik biznesni tartibga solishning huquqiy asoslarini rivojlantirish sohasida davlat faoliyati takomillashuviga olib keldi. Shu bilan birga, aytish kerakki, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash rag'batlantiradigan, tanlab qo'llaniladigan bozor mexanizmlarida muvozanat buzilishiga olib kelmaydigan bo'lishi kerak.

3.O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari qatoridan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ham o'rin olgan. Binobarin, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etayotganligini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi.

Tadbirkorlar o'z faoliyatlari bilan eng muhim, dolzarb muammoni, ya'ni ichki bozorning keng xalq iste'mol mollariga bo'lgan talabini qondirish va ishsizlikni tugatishdek ijtimoiy muammoni echishga yordamlashadi.

Hozirgi kunda respublikamizda tadbirkorlar yangi ijtimoiy qatlam va sinf sifatida shakllanmokda. Respublika Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi va bevosita rahbarligida mamlakatimizda xususiy mulkning rivojlanishi va shu asosda aholi-keng tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kengaytirishga qaratilgan qator farmon hamda hukumat qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2005-2007

yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish to'g'risida"gi 2004 yil noyabr Qarorini hamda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarning eksport va import operatsiyalarining qonuniyligini ta'minlash va daromadlarini hisoblashga doir bir qator yangiliklarni o'z ichiga olgan Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan qabul qilingan 2004 yil 11 noyabrdagi "Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tadbirkorlarning tovar operatsiyalari va daromadlarini hisobga olish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qarorlari ham xususiy tadbirkorlarga yaratilgan yangi bir yo'nalishdir.

Bundan tashqari, respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qancha chora-tadbirlar, jumladan, 2004 yil may oyidan boshlab asosiy maqsadi - kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalar va yangi bank xizmatlari bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan "Business Leasing" kompaniyasining faoliyat yuritishi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2004 yil 7 iyulda xususiy tadbirkorlikka kelajakda yanada yaxshi sharoitlar yaratish, biznes muhitini takomillashtirish, respublika tadbirkorlarining xorijiy tadbirkorlar bilan aloqalarini o'rnatish, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozordagi faolliklarini oshirish, mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni ko'prok, jalb qilish maqsadida O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining tashkil qilinishi kabilar ham mamlakatimizda tadbirkorlikka katta e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish va uning YAIMdagi ulushini ko'paytirish, bozor iqtisodiyoti talablariga mos tovar va xizmatlar bozorini shakllantirish hamda mahsulot eksportini oshirishda:

- xorijiy investitsiyalarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish;
- davlat tashkilotlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash;
- xususiy tadbirkorlarning resurslar va sotish bozorlarida ishtirokini kengaytirish;
- moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish asosiy vazifalar jumlasidandir.

Tadbirkorlik mamlakatning nafaqat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda asosiy bo'g'in, balki aholi bandligi va daromadlari

manbaining takomillashuvi hamda milliy farovonlikka erishishning muhim omilidir.

4. Kichik biznes sub'ektlarining investitsion loyihalarini xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirish

Mamlakatimizda amalgan oshirilayotgan izchil islohatlarining ustivor yo'nalishlaridan biri – bu kichik biznes xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Xalqaro andozalar talablariga mos ravishda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun kichik biznes sub'ektlariga rivojlangan xorij davlatlarining ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun kichik biznes sub'ektlariga rivojlangan xorij davlatlarining ishlab chiqarish texnologiyalari zarur bo'ladi, lekin bunday ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish istagi bo'lgan kichik biznes subektlarining barchasi ham o'z mablag'lari hisobidan bu ishni amalga oshira olmaydi. Bunda kichik biznes subektlarining yaxshi investitsion loyiholari xorijiy kredit liniyalari va banklar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy biznesni moliyaviy qo'llab quvvatlashda xorijiy kredit liniyalari mablag'larini banklar orqali real sektorga jalb qilish hisobiga kichik ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ular negizida moliyaviy jihatidan baquvvat ko'p tarmoqli yiroik ishlab chiqarish korxonalari shakllanishi ko'zda tutiladi.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar tadbirkorlik sub'ektlariga eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa milliy xom-ashyo resurslarini qayta ishlashni mashinasozlik va elektron sanoati uchun detallar va uzellar hamda kundalik ehtiyoji halq iste'moli tovarlarini nazarda tutadigan investitsion loyihalarga o'rta va uzoq muddatga beriladi. Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki, "Paxta bank", "O'zsanotqurilishbank", "Asakabank", "Ipoteka bank", "Ipak Yo'li banki", va "Hamkorbank" tomonida kichik va o'rta biznes sub'ektlarining investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun xorijiy kredit liniyalari jalb qilingan.

Shu sohada erishilayotgan yutuqlariizdan tashqari ayrim muammolarga ham duch kelinmoqda.

Tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan texnik iqtisodiy asosnoma (TIA) larning yaxshi ishlanmaganligi xorijiy kredit liniyalari

o'zlashtirilishining kechikishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Aksariyat hollarda taqdim etilgan TIA larda sotib olinadigan xom-ashyolar narhlarining kamaytirilib ko'rsatilishi sotib olinadigan texnologik uskunalar hamda sotiladigan mahsulotlar narxlarining real narxlarga nisbatan oshirib ko'rsatilishi TIA larning qayta tayyorlashiga va tadbirkorlikning ortiqcha vaqt sarflab ovora bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Chet el kreditlari o'z vaqtida o'zlashtirilmasligining yana bir sababi kredit berilishida asosiy shartlardan biri bo'lgan kredit ta'minotining etishmasligidir. Investitsion loyihalari ma'qullagan tadbirkorlik sub'ektlarining 40-50 foizi belgilangan miqdordagi yoki likvidli ta'minot taqdim etilmaganligi sababli viloyatlarni moliyalashtirish kechikmoqda.

Hozirgi kunda ushbu muammolarning echimini topishga ayrim omillar ya'ni:

- ko'chmas mulk bozorining (ishlab chiqarish xarakteridagi) rivojlanmaganligi;

- qimmatli qog'ozlar bozorining etarli rivojlanmaganligi;

- kafil bo'la oladigan moliyaviy barqaror korxonalarning kamligi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kichik biznes sub'ektlarining kredit olishda ta'minotining etishmasligi muammosi faqat bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda emas balki rivojlangan AQSH, Yaponiya va Evropa davlatlarida ham mavjud. Ushbu davlatlarda bu muammo Davlat kafolat fondi orqali tijorat banklari kreditlarining 50-80 foizgacha miqdordagi kafillik berish orqali o'z echimini topadi. Ushbu muammoning dolzarbligini inobatga olib kredit berilishida ta'minotning etishmasligi muammosini hal etish maqsadida, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha Respublika muvaffaqashtiruvchi kengashning 2003 yil 25 iyundagi yig'ilishida moliya vazirligi va boshqa mutasaddi vazirliklarga kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat fondini tuzish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Davlat kafolat fondini tashkil etishdan asosiy maqsad, kredit olishda ta'minoti bo'lmagan yoki qisman bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlariga kafolat beradigan moliyaviy institutni vujudga keltirishdir.

Ushbu fond bank depozitiga qo'yiladigan kafolat kapitaliga ega bo'lib, qarzdor kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga noqobil bo'lib qolgan taqdirda, uni to'lash manbasi bo'lib xizmat qiladi. Jamg'arma tomonidan kafolat bo'yicha majburiyatlar bajarilgandan keyin, unga qarzdordan kafolat bo'yicha bankka to'langan summani olish

huquqi o'tadi.

Tadbirkorlik sub'ektlarining kafolat fondiga yoki fond bilan xamkorlik qilayotgan bankka taqdim qilgan arizasi unga kafolat berishga asos bo'lib xizmat qiladi. Kafolatlar faqatgina asosiy qarz bo'yicha va to'lov asosida beriladi. Tashkil etiladigan fond, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat hududlari va tarmoqlarida kapital qo'yilmalarini taqsimlaydigan instrument bo'lib xizmat qiladi. Fond ushbu vazifani milliy iqtisodiyot yoki ma'lum bir xudud rivojlanishi dasturi va kontsetsiyasiga mos tushadigan investitsiyalarning qaytishi uchun kafolat berish yo'li bilan bajaradi. Davlat kafolatlari odatda, investorlar tomonidan har tomonlama ishonchli vosita sifatida tan olinadi. Fond tomonidan 100 foizli kafolatlarning taqdim qilinishi mumkin emas. Sababi, bunday holat qarzdorlar faoliyatining noratsional qilib qo'yadi, ya'ni kreditorlar tavakkalchilikni jiddiy tahlil qilmasligi va investitsiyaning o'zini oqlash darajasini xisobga olmasligi mumkin. Shuning uchun qarz oluvchi to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolganda fond tomonidan investitsiyaning o'rtacha 50 foizidan oshmagan miqdorda kafolat berish tartibini o'rnatish maqsadida muvoffaq bo'ladi. Milliy iqtisod manfaatlarini nuqtai nazaridan muhimroq xisoblangan investitsiyalar uchun mazkur me'yor oshirilishi, muhimlik darajasi pastroq bo'lgan loyihalar uchun kamaytirilishi mumkin.

Kreditlari kafolatlash nafaqat qarzdorni turli moliyaviy yo'qotishlardan himoya qiladi, u hattoki butun tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining muhim instrumenti sifatida ham xizmat qiladi. Chunki, davlat kafolat jarayonida ishtirok etib kreditorlar bilan birgalikda tavakkalchilikni o'zaro o'rtada taqsimlagan holda kredit mablag'larini jalb qilishni tezlashtiradi.

Xorijda kafolatlash tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning eng ommaviy shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi va davlat kafolat fondlarining asosiy ta'sischi sifatida qatnashadi.

Hozirgi kunda AQSH Kichik biznes Administratsiyasi (The Small Business Administration), Kanada kichik biznes kreditlari to'g'risidagi qonuni tizimi (SBLA), Buyuk Britaniyadagi Kredit kafolati tizimi (LGS) faoliyat yuritishmoka. Kafolatlash tizimi 1994 yildan boshlab Germaniya, Belgiya, Ispaniya, Frantsiya va Italiya davlatlarida ham o'z faoliyatini amalga oshira boshladi. Janubi-SHarqiy Osiyodagi mamlakatlarda, xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya va Indoneziya davlatlarida mazkur amaliyot 30 yiddan ortiq davr

mobaynida faoliyat ko'rsatib kelmokda. Misol uchun, Yaponiyada mazkur tizim 1947 yildan, Janubiy Koreyada 1971 yildan, Malayziyada 1971 yildan va Indoneziyada 1972 yildan boshlab davlat kafolat tizimi amal qila boshlagan.

Ushbu davlatlarning bu sohadagi ko'p yillik tajribasidan biz ko'plab foydali jihatlarini olsak bo'ladi. Osiyodagi kafolatlash tizimlarining barchasi davlat say-harakatlari asosida tashkil qilingan korporatsiyalar yumonidan boshqariladi.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash Davlat kafolat fondining boshlang'ich mablag'ini esa quyidagi mablag'lar, ya'ni:

- davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar;
- davlatning boshqa likvidli aktivlari (aktsiyadorlik jamiyatlaridagi davlat aktsiyalari);
- jamg'arma faoliyatining daromadlari;
- homiylik ajratmalari hisobiga shakllantirish mumkin.

YUqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, kichik biznes sub'ektlariga kreditlar berilishida ta'minotning etishmaslik muammosini hal etish maqsadida kichik biznesni qo'llab quvvatlash Davlat kafolat fondini tuzish maqsadga muvofiqdir

Bu esa mamlakatimizga jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalar miqdorining ortishiga va ularning o'zlashtirilishining tezlashishiga olib keladi. Natijada banklarimiz bilan xorijiy kredit muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari yanada samarali bo'ladi hamda mahalliy xom ashyolar negizida ishlab chiqarilayotgan import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tovarlar hajmi ortadi va ko'plab yangi ishchi o'rinlari yaratiladi.

2009 yilda kichik biznesni yanada qo'llab-quvvatlash vazifasi har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kichik biznes yangi-yangi ish o'rinlarini yaratib, bizning sharoitimizda ish bilan band aholi daromadining 70 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda.

Shu sababli inqirozga qarshi choralar dasturida kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Jumladan, yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kredit jamg'armasining resurs

bazasini ikki barobar oshirish ko'zda tutilgan. Buning natijasida kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar miqdori yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda.

Shuningdek, yagona soliq to'lovi stavkasi borish qiyin bo'lgan va tog'li hududlardagi chakana savdo, ulgurji va chakana savdo faoliyatini yurituvchi dorixonalar uchun 1 foizgacha pasaytirildi. Borish qiyin bo'lgan va tog'li hududlarda tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish yig'imi belgilangan stavkaning 20 foizi miqdorida, savdo korxonalaridan esa minimal oylik ish haqi miqdorida undirish belgilandi. O'tgan yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash borasida ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Imtiyozli kredit stavkalari, masalan, biznesni boshlash uchun ajratiluvchi kredit stavkasi 5%dan 3% ga qadar pasaytirildi va h.k.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan xomashyo va resurslardan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Jumladan, birja savdolari orqali sotiladigan yuqori likvidli, monopol mahsulotlar turlari pozitsiyalari 136 tadan 195 tagacha ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 4 martdagi 36-sonli «Mahsulotlarning monopol turlarini mavsumiy talabini hisobga olgan holda birja savdolariga qo'yish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga monopol mahsulotlarni birja savdolariga majburiy qo'ydirish bo'yicha vakolat hamda yuqori likvidli tovarlar moddiy balanslariga tegishli o'zgartirish kiritish bo'yicha imkoniyat berildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining birja savdolarida ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish maqsadida birja xizmatining komission xarajatlari o'rtacha 25% gacha pasaytirildi va birja savdolarida qatnashish uchun to'lanadigan garov puli 10% gacha oshirildi.

Tadbirkorlar uchun engillik yaratish maqsadida quyidagi to'lovlar miqdorini kamaytirish bo'yicha hujjatlar loyihasi ishlab chiqildi:

- arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini (ART) ishlab chiqishga ketadigan to'lovlar – 2 martagacha;

- ekologik ekspertizadan o'tkazish to'lovlari – 20 foizdan 90 foizgacha;

- turar joylarni noturar joy toifasiga o'tkazish xarajatlari – 9

martagacha;

- loyihalash hujjatlarini ekspertiza qilish xarajatlari – 2 martagacha.

Shuningdek, bankda hisob raqami ochish va yopish uchun olinadigan to'lovlar umuman bekor qilindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida uni tartibga soluvchi 200 dan ortiq qonun hujjatlari loyihalari ekspertizadan o'tkazildi. Buning natijasida 26 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, 76 ta idoraviy me'yoriy-huquqiy va qonun osti hujjatlari loyihalari ekspertizadan o'tkazildi.

Birgina 2008 yilda xo'jalik sub'ektlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan 1 trln. 534 mlrd. so'm miqdorida investitsion kreditlar ajratildi.

O'tgan yili banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar miqdori 2007 yilga nisbatan 68,2 foiz oshib, 1 trln. 251 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston sharoitida kichik biznes korxonalarini barpo etish orqali mustaqil xo'jalik yurituvchi mulk egalari shakllandi. Biznesning boshqa tashkiliy-iqtisodiy shakllaridan farqli ravishda mazkur kichik korxonalarni tashabusskor ishbilarmon shaxslar boshqarib, turli byurokratik elementlarning xo'jalik faoliyatiga aralashuvidan xolos etadi. Kichik korxonalar bozor iqtisodiyotiga xos turli makroiqtisodiy shart-sharoitlar va talablariga moslashishi imkoniyatlariga egaligi bilan ustuvor ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashning muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi.

Kichik biznes iqtisodiyotning shunday sektoridirki, u investitsiya muhitida yuz berayotgan deyarli barcha o'zgarishlarga moslashadi. Kichik biznes nuqtai nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasini aniqlash uchun butun mamlakat va mintaqalardagi iqtisodiy vaziyatni ko'rsatuvchi omillar, iqtisodiyotning bu tarmog'iga investitsiyalar kiritish qonunlar va infratuzilmalar bilan qanchalik ta'minlanganligi, mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, malakali ishchi kuchining mavjudligi, Shuningdek, mana shu va

boshqa omillar bilan bog'liq xatarlar bor yoki yo'qligi g'oyat muhimdir.

Xususiy tadbirkorlikni va bu sohaga investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan davlat siyosatini amalga oshirish institutsiyaviy va huquqiy tizimni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bu tizimning samarali ishlashi uning barcha unsurlari bir-birining vazifasini juda kam takrorlagan holda doimiy ravishda o'zaro aloqada bo'lishini hamda faoliyatlari muvofiqlashtirilishini taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy biznesni moliyaviy qo'llab quvvatlashda xorijiy kredit liniyalari mablag'larini banklar orqali real sektorga jalb qilish hisobiga kichik ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ular negizida moliyaviy jihatidan baquvvat ko'p tarmoqli yiroik ishlab chiqarish korxonalari shakllanishi ko'zda tutiladi. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar tadbirkorlik sub'ektlariga eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa milliy xom-ashyo resurslarini qayta ishlashni mashinasozlik va elektron sanoati uchun detallar va uzellar hamda kundalik ehtiyoji halq iste'moli tovarlarini nazarda tutadigan investitsion loyihalarga o'rta va uzoq muddatga beriladi.

Tayanch iboralar:

Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, investitsiya muhiti, kredit liniyalari, mikrokreditlar, xorijiy kredit liniyalari, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash Davlat kafolat fondi,

Nazorat uchun savollar

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashning muhim makroiqtisodiy omillari qaysilar?
3. Kichik korxonalarni rivojlantirishda bank moliya tizimining o'ri qanday?
4. Kichik biznes nuqtai nazaridan investitsiya muhitining jozibadorlik darajasini nimalarga bog'liq ?
5. Xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati investitsiyalar jalb etish jarayoniga qanday ta'sir qiladi?
6. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar tadbirkorlik sub'ektlariga asosan qanday maqsadlarda beriladi?

7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar va ularning mohiyati nimalardan iborat?
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining birja savdolarida ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirildi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 24 dekabr 1998 yil soni.
2. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonuni Xalq so'zi gazetasi 30 aprel 1998 yil soni.
3. A. O'lmasov, N. To'xliiev "Bozor iqtisodiyoti" T. Qomuslar bosh tahririyati, 1991 yil.
4. G.P. Podshivalenko, N.I. Laxmetkina, M.V. Makarova "Investitsii: uchebnoe posobie" M.: KNORUS, 2006.
5. Investitsii: uchebnoe posobie / M.V. Chinenov i [dr.]; pod red. M.V. Chinenova. - M.: KNORUS, 2007. - 248 s.
6. Neshitoy A. S. Investitsii: Uchebnik. — 5-e izd., pererab. i ispr. - M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2007. - 372 s.
7. Bocharov V. V. Investitsii: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. - SPb.: Piter, 2009. — 384 s.
8. Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl.- M.: INFRA- M, 1997
9. Abramov S.I. Investirovanie. M., 2000 g.
10. Ekonomika SNG: 10 let reformirovaniya i integratsionnogo razvitiya. M.: Finstatinform, 2001.
11. Serov V.M. Investitsionniy menedjment. M., 2000 g.
12. «Delovoy partnyor Uzbekistana» Investitsionniy forum Uzbekistana 2003 g 6 may.
13. «Delovoy partner Uzbekistana» Pryame inostrannie investitsii v stranax vostochnoy evropi. 2003 g 8 may.
14. «Investitsionniy potentsial Uzbekistana» X.X. Imomov 3-y Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii 20-21 noyabrya 2003 goda.
15. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, www.stat.uz

IZOHLI LUG'AT

Emitent – qimmatli qog'ozlarni muomalaga bosib chiqaruvchi yuridik va to'lovga qobiliyatli jismoniy shaxslar.

Forvard kursi (forward rate) – asosiy qarz summasining ma'lum bir o'zgarma qismiga nisbatan belgilangan vaqtda to'lanadigan foiz stavkasining hajmi to'g'risida kelishuv bo'lib, u avval belgilangan foiz stavkasidan past yoki yuqori bo'lishi mumkin.

F'yuchers – qimmatbaho qog'ozlarni, valyuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish va sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bo'lgan qisqa muddatli standart shartnomalardir.

Intellektual investitsiyalar – mutaxassislarni tayorlash, qayta tayorlash, tajriba, ilmiy tekshirish, litsenziya, patent, avtorlik huquqi va boshqalardan tadbirkorlik faoliyatida foydalanish.

Investitsiya – investorlarning ijobiy samaraga erishishi uchun milliy iqtisodiyot yoki xorijda tadbirkorlik faoliyatidagi ob'ektlarga kiritadigan moddiy va intellectual boyliklari.

Investitsiya faoliyati - **Investitsiya** faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan harakatlari majmuasi.

Investitsiya ob'ekti – ishlab chiqarish predmetlari, ya'ni boyliklar safarbar etilayotgan ob'ektlar. Ular yangi korxonalar yoki amaldagi korxonalar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari bo'lishi mumkin.

Investitsiya sub'ekti – investitsiyani amalgam oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar. Ular xorijiy davlatlar, xorijiy mamlakatlar hukumatlari, xalqaro tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar, mulk egasi bo'lgan fuqarolar bo'lishi mumkin.

Investitsiya resurslari – investitsiya faoliyatiga ishtirok qiladigan har xil ko'rinishdagi mablag'lar.

Investorlar – o'z kapitalini investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalashni amalgam oshiruvchi investitsiya faoliyati sub'ekti.

Ichi investitsiyalar – mamlakat hududida ichki investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar.

Kapital quyilmalar – yangi korxonalarni barpo etish, mavjud ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob'ektlarini texnik jihatdan qayta

qurollantirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy, moddiy va mehnat xarajatlari yig'indisi.

Moliyaviy investitsiyalar – qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligataiya va boshqalar) sotib olishga va bank depositlariga uzoq muddatga jalb qilingan qo'yilmalar.

Option – qimmatbaho qog'oz shaklidagi shartnoma bo'lib, xaridorga ma'lum bir qimmatbaho qog'oz yoki tovarni belgilangan muddatdan so'ng yoki ma'lum bir davr ichida qat'iy belgilangan sotish, sotib olish huquqini beradi.

Real investitsiya – asosiy fondlar va aylanma mablag'larga investorlar tomonidan qo'yiladigan barcha turdagi boyliklar.

Reinvestitsiyalar – investorlar tomonidan investitsiyalash faoliyatidan olingan foydani ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish maqsadida qayta investitsiya faoliyatiga sarflash.

Sug'urta - bu yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum bir to'lov evaziga sug'urta qilingan shaxsga baxtsiz xodisa tufayli etkazilgan zararni qoplash.

Svop (swap) – savdo qoidalariga amal qilgan holda bitta qarzni to'lash bo'yicha ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng shartnoma shartlarini o'zgartirish bo'yicha bitimlar.

Tashqi investitsiyalar – foyda olish maqsadida chet el investorlari tomonidan boshqa davlat iqtisodiyotiga qo'yiladigan investitsiyalar.

Varrant – optsiyonning bir turi bo'lib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda ma'lum bir miqdordagi aktsiyalarni sotib olish imkonini beradi.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

TEST SAVOLLARI

1. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga qaysilar kiradi?

- A) Sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar, mashinalar;
- B) Asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari;
- D) Aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;
- E) Aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar;
- F) A va D.

2. Moddiy investitsiyalar tarkibiga qaysilar kiradi?

- A) Sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar;
- B) Banklardagi sertifikatlar;
- D) Asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar va boshqalar;
- E) Aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar;
- F) Mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari.

3. Investitsiya faoliyatini amalga oshirishni muhim shartlaridan biri?

- A) Foiz hisobida qisqa muddatga mablag' berishdir;
- B) Texnika va texnologiyani ijaraga berishdir;
- D) Qarzga kapital berishdir;
- E) Muomalada bo'lgan pul birligini qadsizlanishini oldini olishdir;
- F) Muomalada bo'lgan pul birligini qadsizlanishga olib kelishdir.

4. Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yunaltirilgan har qanday shakldagi mulk nima deb ataladi?

- A) Shaxsiy mulk;
- B) Xorijiy investitsiya;
- D) Xususiy mulk;
- E) Aralash mulk;
- F) To'g'ri javob yo'q.

5. Xorijiy investitsiyalar – bu...

- A) Chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish;
- B) Yangi korxonalar qurilishiga ketgan harajatlardir;
- D) Yangi kapitalni barpo etishga ketgan harajatlardir;
- E) To'g'ri javob yo'q;
- F) A, B, D.

6. Hozirgi kunda respublikamiz tashqi savdo aylanmasining qancha qismi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda?

- A) Uchdan bir qismi;
- B) Uchdan ikki qismi;
- D) To'rtidan bir qismi;
- E) To'rtidan ikki qismi;
- F) D va E.

7. Investitsiya kiritilgan davriga qarab qancha muddatli bo'ladi?

- A) Uzoq muddatli;
- B) Qisqa muddatli;
- D) Qisqa va uzoq muddatli;
- E) 5 yillik;
- F) Cheksiz.

8. Xorijiy investitsiyalar mablag' qo'yish ob'ektiga ko'ra?

- A) Moddiy;
- B) Moddiy, nomoddiy va moliyaviy;
- D) Nomoddiy;
- E) Moliyaviy;
- F) Yalpi va sof.

9. Investitsiya kirituvchi kim deyiladi?

- A) Bankir;
- B) Biznesmen;
- D) Investor;
- E) Tadbirkor;
- F) To'g'ri javob yo'q.

10. Maqsadiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar qanday investitsiyalarga bulinadi?

- A) Bilvosita;
- B) Kapital, innovatsion va ijtimoiy;
- D) To'g'ridan to'g'ri;
- E) Moliyaviy;
- F) Moddiy.

11. Asosan qaysi sohalar chet el investorlarini o'ziga jalb qilib kelmoqda?

- A) Neft – gaz, transport va aloqa tarmoqlari;
- B) Madaniyat va san'at;
- D) Sport;
- E) Tibbiyot;
- F) Mashinasozlik.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risidagi Nizomi qachon ishlab chiqilgan?

- A) 1999 yil 5 mart;
- B) 2002 yil 8 iyun;
- D) 2005 yil 2 avgust;
- E) 2006 yil 6 aprel;
- F) To'g'ri javob keltirilmagan.

13. Xorijiy investitsiya shartnomasi qaysi muassasa orqali tuziladi?

- A) Investitsiyalar va savdo vazirligi orqali;

- B) Savdo va sanoat palatasi;
- D) Ichki va tashqi ishlar vazirligi;
- E) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi orqali;
- F) to'g'ri javob keltirilmagan.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2007 -2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora - tadbirlari to'g'risida" gi qarori qachon e'lon qilindi?

- A) 2000 yil 15 mart;
- B) 2002 yil 28 iyul;
- D) 2005 yil 25 noyabr;
- E) 2006 yil 16 may;
- F) 2007 yil 20 iyul.

15. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona qaysi Hududda tashkil qilinishini aniq ko'rsating?

- A) Navoiy shahrining hududida;
- B) Navoiy tog'-metalurg kombinati hududida;
- D) Navoiy shahri xalqaro aeroporti hududida;
- E) Qiziltepa tumani hududida;
- F) Navoy va Samarqand viloyatlari o'rtasida.

16. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonada ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar qaysi soliq turlaridan vaqtincha ozod qilinganlar?

- A) Er va mulk soliqlari, obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- B) Respublika yo'l jamg'armasi va Respublika maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan;
- D) Daromad solig'i va yagona soliq to'lovidan (kichik korxonalar uchun);
- E) Barchasi to'g'ri;
- F) Ekologiya solig'idan.

17. Mamlakatning investitsion iqlimi – bu...

- A) Investitsiyalarni daromadliligiga va investitsion tavakkalchiliklarni darajasiga sezilarli darajada ta'sir etadigan mamlakatdagi investitsion faoliyatning shart-sharoitlarining xuquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimi;
- B) Mamlakatning Hududlarini yalpi investitsion salohiyatini tavsiflovchi ko'rsatgich;
- D) Mamlakatning oltin zahirasini xajmi;
- E) Real investitsiyalash ob'ektlari va moliyaviy investitsiyalash instrumentlari bozori;
- F) Valyuta tizimi;

18. Investitsion iqlimning yaxshilanishi – bu...

- A) Siyosiy barqarorlik;
- B) Moliyaviy barqarorlik;
- D) Iqtisodiy o'sishning shart-sharoitlarini shakllantirish;
- E) Investitsiya muhitining investorlar uchun qulay shaklga kelishi;
- F) To'g'ri javob yo'q.

19. Investitsion salohiyat – bu...

- A) Investitsion faoliyatni normal xolda amalga oshirishga turtki bo'ladigan me'yoriy shart-sharoit;
- B) Mamlakatni, Hududni yoki tarmoqni rivojlanishini asosiy makroiqtisodiy sharoitlarini hisobga oladigan miqdoriy tavsif;
- D) Investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun mo'ljallangan, maqsadli shakllantirilgan real va moliyaviy qo'yilmalarning majmui;
- E) Investitsion bozorning makroiqtisodiy o'rganish;
- F) Investitsiya kiritish miqdori.

20. Investitsiyalashning xuquqiy shartlari – bu...

- A) Investitsion siyosatni amalga oshirish uchun ajratilgan pul mablag'lari xajmi;
- B) Investitsion faoliyat amalga oshiriladigan qonuniy muhitni shakllantiradigan me'yoriy sharoit;
- D) Hududni investitsion salohiyatini tarkibiy qismi bo'lgan ishlab chiqarish omillarini ishlatish tartibi;
- E) Soliq imtiyozlari va investitsion risklarni hukumat tomonidan kafolatlash;
- F) Investorlarga berilgan imtiyozlar.

21. Investitsiya kiritilgan davriga qarab qancha muddatli bo'ladi?

- A) uzoq muddatli;
- B) qisqa muddatli;
- D) qisqa va uzoq muddatli;
- E) A, B, D;
- F) cheksiz.

22. Xorijiy investitsiyalar mablag' qo'yish ob'ektiga ko'ra?

- A) moddiy;
- B) moddiy, nomoddiy va moliyaviy;
- D) nomoddiy;
- E) moliyaviy;
- F) hamma javob to'g'ri.

23. Xorijiy investitsiyalar qayta ishlab chiqarish shakllariga ko'ra

- A) yangi loyiha bo'yicha ishlash;
- B) korxonani qayta tiklash;
- D) texnik qayta qurollantirish;
- E) A, B, D;

F) to'g'ri javob yo'q.

24. Investitsiya kirituvchi kim deyiladi ?

A) bankir;

B) biznesmen;

D) investor;

E) tadbirkor;

F) to'g'ri javob yo'q.

25. Investitsion faoliyatga aralashuviga ko'ra xorijiy investitsiyalar qanday investitsiyalarga bulinadi ?

A) bilvosita;

B) bevosita va portfel;

D) to'g'ridan to'g'ri;

E) moliyaviy;

F) moddiy;

26. Bevosita investitsiyalar qanday maqsadga yunaltiriladi ?

A) Yangi kompaniya tashkil etish;

B) Bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid qilish;

D) A, B;

E) hamkorlik;

F) xalqaro munosabat.

27. Xorijiy investitsiyalar – bu?

A) Chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish;

B) yangi korxonalar qurilishiga ketgan harajatlardir;

D) yangi kapitalni barpo etishga ketgan harajatlardir;

E) to'g'ri javob yo'q;

F) A, B, D.

28. Har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuch?

A) xorijiy investitsiyalar;

B) investitsiyalar;

D) kreditlar;

E) A, B, D;

F) A, D.

29. Hozirgi kunda respublikamiz tashqi savdo aylanmasining qancha qismi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda?

A) uchdan bir qismi;

B) uchdan ikki qismi;

D) to'rtidan bir qismi;

E) to'rtidan ikki qismi;

F) D va E.

30. Investitsiya shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) pul mablaglari, banklardagi maksadli jamgarmalar;
- B) xarakatdagi va kuchmas mulk;
- C) mualliflik xukuklari;
- D) aktsiya va obligatsiyalarga sarflangan pul mablag'lari;
- E) barcha javoblar to'g'ri.

31. Amal qilish muddati buyicha investitsiyalar qanday turlarga bulinadi?

- A) to'g'ridan-to'g'ri va portfel;
- B) qisqa va uzoq muddatli;
- C) milliy ichki va xorijiy;
- D) tavakkalchiligi past va tavakkalchiligi yuqori;
- E) kapital va moliyaviy.

32. Moliyaviy investitsiya nima?

- A) Pul mablag';
- B) Aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho kog'ozlarni sotib olish;
- C) Aktsiya;
- D) Zayom;
- E) Asosiy vositalar.

33. "Chet el investitsiyalari" to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1995 yil 6 oktyabr;
- B) 1998 yil 30 aprel;
- C) 2000 yil 5may;
- D) 1990 yil 15 mart;
- E) 2000 yil 10 sentyabr.

34. Eksport nima?

- A) Tovar;
- B) Xorijga tovar va mahsulotlar chiqarish;
- C) Kapital;
- D) Mablag';
- E) Korxona ochish.

35. Import nima?

- A) Chikarish;
- B) Pul mablagi;
- C) Chetdan tovar va xizmatlar olib kirish;
- D) Moliya;
- E) Mahsulot ishlab chiqarish.

36. Emissiya nima?

- A) Kog'oz pullar;
- B) Aktsiya;

- D) Pul va kimatbaho qog'ozlar bosib chiqarish;
- E) Obligatsiya;
- F) Depozit sertifikatlari.

37. Institutsional investorlar nima?

- A) Sanoat;
- B) Boshka soxadagi tadbirkorlar;
- D) Savdo bozorlari;
- E) Turli soxalarda faoliyat yuritayotgan hissadorlik jamiyatlari;
- F) jismoniy shaxslar.

38. Individual investor nima?

- A) Jismoniy shaxslar;
- B) Korxonalar;
- D) Tadbirkor;
- E) Fermerlar;
- F) Hissadorlik jamiyatlari.

39. Valyuta bozori nima?

- A) Chet el valyutasi, cheklarni sotish, sotib olish va almashtirish;
- B) Pul utkazmasi;
- D) Qimmatbaho qog'oz;
- E) Tashqi savdo;
- F) Hisob-kitob usuli;

40. Xorijiy mamlakatlarga tovarlar sotuvi bu

- A) Eksport;
- B) Import;
- D) Chakana savdo;
- E) Import kvotasi;
- F) To'lov balansi.

41. Hududiy joylashishi buyicha investitsiyalar qanday bo'linadi?

- A) Davlatlararo;
- B) Mintaqalararo;
- D) Ichki va tashqi;
- E) Tashqi;
- F) Bevosita va bilvosita.

42. Investitsiyalar mulkiy shaklidan kelib chiqib qanday ko'rinishlarga bo'linadi?

- A) Mahalliy;
- B) Xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy;
- D) Davlat;
- E) Qo'shma;
- F) Jismoniy shaxslar.

43. Investitsiyalar qatnashish xarakteriga ko'ra qanday farqlanadi?

- A) To'g'ri;
- B) Egri;
- D) To'g'ri va egri;
- E) Bevosita va portfelli;
- F) Yalpi va sof.

44. "Investitsiya" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- A) Kapital yig'ish;
- B) Kiyintirmok, kapital quymoq;
- D) Mablag yig'ish;
- E) Kapital kuyilmalarni sarflash;
- F) Mahsulot ishlab chiqarish.

45. Investitsiya sub'ektlari -

- A) Ishchilar;
- B) Xo'jalik yurituvchilar;
- D) Investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, huquqiy shaxslar, davlatlar va xalqaro tashkilotlar;
- E) Pudratchilar;
- F) Jismoniy shaxslar.

46. Investitsiya jarayoni ishtirokchilari bu

- A) Investor;
- B) Kreditor;
- D) Korxona egasi;
- E) Davlat, kompaniyalar va xususiy shaxslar;
- F) Jismoniy shaxslar.

47. Investitsiyalash nima?

- A) Pulni qiymatini ko'paytirish va ijobiy daromad olish;
- B) Pulni sarflash va qaytarib olish;
- D) Teng daromad olish;
- E) Mablag'larni tejash;
- F) Mahsulotni sotish.

48. Kreditni ob'ektlari nima?

- A) Korxonalar;
- B) Tashkilotlar;
- D) Asosiy vositalarni sotib olish;
- E) Madaniy va maishiy ob'ektlar;
- F) Xizmatlar.

49. Investitsiya maslahatchilari qaysilar?

- A) Sug'urta kompaniyalari;
- B) Lizing kompaniyalari;
- D) Investitsiya institutlari;

- E) Maslahat faoliyati bilan shug'ullanuvchi investitsiya institutlari;
- F) Mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar.

50. Investitsiya kompaniyalari qaysilar?

- A) Qimmatli qog'oz egalari;
- B) Mablag' egalari;
- D) Qimmatli qog'ozlar chiqarish, sotib olish, sotish ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;
- E) Chet el kompaniyalari;
- F) Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar.

51. Moliyaviy bozor tarkibiga qaysilari kiradi?

- A) Pul bozori;
- B) Qimmatli qog'ozlar bozori;
- D) Fond birjalari;
- E) Barchasi kiradi;
- F) 1- va 2-javoblar to'g'ri.

52. Investitsiya muhiti deganda nimani tushunasiz?

- A) Mintaqadagi ob xavo;
- B) Valyutani erkin ayirboshlanishi;
- D) Investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni yig'indisi;
- E) Davlatlarning joylashishi;
- F) Bozordagi narx-navo.

53. Investitsiya muhiti qaysi omillardan tashkil topadi?

- A) Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy;
- B) Xorijiy;
- D) Mahalliy;
- E) Davlat;
- F) Harbiy.

54. Portfelli investitsiyalar

- A) Pul ko'rinishida;
- B) Kapital ko'rinishida;
- D) Daromad olish uchun aktsiya, obligatsiyalarni sotib olish;
- E) Lizing operatsiyalari.

55. Lizing jarayoni ishtirokchilari kimlar bo'ladi?

- A) Korxonalar;
- B) Ishlab chiqaruvchi;
- D) Lizing beruvchi;
- E) Ijarachi;
- F) Yuqoridagilarning barchasi bo'lishi mumkin.

56. Bir kompaniya 2-kompaniyaning tovar markasi, goyasi va texnologik jarayonlaridan foydalanib ishlaydigan hamkorlikdagi faoliyati

- A) Franchayzing;
- B) Kvotalash;
- D) Import;
- E) Litsenziyalash;
- F) Sug'urtalash.

57. Mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga tasir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, meyoriy-huquqiy va boshqa shart-sharoitlar majmui bu - ...

- A) Investitsiya bozori;
- B) Investitsiya muhiti;
- D) Investitsion loyiha;
- E) Korxona investitsion jozibadorligi;
- F) Valyuta bozori.

58. Xususiylashtirilgan ob'ektlar bozorida real investitsiyalash predmeti bu....

- A) Auktsion;
- B) Muddatli va muddatsiz depozitlar;
- D) Fond bozori;
- E) Qimmatli bozorlar bozori;
- F) Birja

59. Intellektual investitsiyalarning tarkibiga nimalar kiradi?

- A) Patent, litsenziya, personalni tayyorlash;
- B) Real va moliyaviy investitsiya;
- D) Egri va to'g'ri investitsiyalar;
- E) Mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi investitsiyalar;
- F) Asosiy vositalarga sarflangan pul mablag'i.

60. Investitsiya so'zi lotincha «invest» suzidan olingan bo'lib, degan ma'noni bildiradi.

- A) Qarzga bermoq;
- B) Qarzga olmoq;
- D) Kiyintirmoq, kapital quymoq;
- E) Pardoqlamoq;
- F) Savdo-sotiq.

61. Kelib chiqish maskaniga ko'ra investitsiyalar qanday turlarga bo'linadi?

- A) To'g'ridan-to'g'ri va portfel;
- B) Qisqa va uzoq muddatli;
- D) Milliy (ichki) va xorijiy;
- E) Tavakkalchiligi past va tavakkalchiligi yuqori;

F) Ijtimoiy, kapital va innovatsion.

62. Moliyaviy investitsiya nima?

A) Pul mablag’;

B) Aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog’ozlarni sotib olish;

D) Aktsiya;

E) Zayom;

F) Amortizatsiya.

63. Import nima?

A) Chiqarish;

B) Pul mablag’i;

D) Mamlakat ichkarisiga tovar va xizmatlar kiritish;

E) Moliya;

F) Mahsulot ishlab chiqarish.

64. Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilarning qanday ko’rinishlari bor?

A) Joriy faoliyat yunalishida;

B) Strategiya;

D) Institutsional va individual;

E) Portfel investor;

F) Mahsulot ishlab chiqaruvchi xizmatlar ko’rsatuvchi.

65. Individual investor kim?

A) Ishlab chiqarish;

B) Fuqarolar;

D) Tadbirkor;

E) Fermerlar;

F) Bank xodimi.

66. Investitsiya sub’ektlari kimlar?

A) Ishchilar;

B) Xujalik yurutuvchilar;

D) Investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bulgan jismoniy shaxslar, xukukiy shaxslar va davlatlar;

E) Pudratchilar;

F) Korxonalar.

67. Tashqi iqtisodiy faoliyat mohiyati qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

A) O’zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiydavlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek Xalqaro tashkilotlar bilan uzaro foydali iqtisodiy alokalarni o’rnatish va rivojlanishga qaratilgan faoliyat;

B) O’zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy import operatsiyalarini olib borish;

- D) O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarning xorijiy mamlakatlarga investitsiya quyishga qaratilgan faoliyati;
- E) Xorijiy mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida foyda olishga qaratilgan faoliyati;
- F) Mamlakatdagi tadbirkorlarning eksport qilish jarayoni;

68. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan kimlar shug'ullanishi mumkin?

- A) O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyiga ega bulgan jismoniy shaxslar;
- B) O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar;
- D) Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ruyxatga olingan jismoniy shaxslar;
- E) Yuqoridagilarning barchasi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin;
- F) fuqaroni shaxsini tasdiqlovchi xujjatga ega bo'lgan o'smirlar.

69. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonuni qachon qabul qilindi?

- A) 2000 yil 26 may;
- B) 1991 yil 14 iyun;
- D) 1991 yil 31 avgust;
- E) 1992 yil 8 dekabr;
- F) 1992 yil 2 mart.

70. Eksport kvotasi deganda nimani tushunasiz?

- A) eksportning yalpi milliy mahsulotga nisbati;
- B) importning yalpi milliy mahsulotga nisbati;
- D) eksportning mamlakat sanoat mahsuloti ishlab chiqarishga nisbati;
- E) importning mamlakat sanoat mahsuloti ishlab chiqarishga nisbati;
- F) eksport samaradorligi ko'rsatkichi.

71. Real eksport kvotasi deganda nimani tushunasiz?

- A) Eksportning yalpi milliy mahsulotga nisbati;
- B) Importning yalpi milliy mahsulotga nisbati;
- D) Eksportning mamlakat sanoat mahsuloti ishlab chiqarishga nisbati;
- E) Importning mamlakat sanoat mahsuloti ishlab chiqarishga nisbati;
- F) Eksport samaradorligi ko'rsatkichi.

72. Eksportning yalpi milliy mahsulotga nisbati qanday nomlanadi?

- A) Sof eksport;
- B) Eksport kvotasi;
- D) Import kvotasi;
- E) Real eksport kvotasi;
- F) Eksport samaradorligi.

73. Eksportning sanoat mahsuloti ishlab chiqarishga nisbati qanday nomlanadi?

- A) Sof eksport;

- B) Eksport kvotasi;
- D) Import kvotasi;
- E) Real eksport kvotasi;
- F) Eksport samaradorligi.

74. Litsenziya sotib olish samaradoligining ko'rsatkichi mohiyatini tushuntiring?

- A) Mamlakatga olib kelingan tovarlarning ishlab chiqarishning ichki shart-sharoitlari bo'yicha ularni sotib olish va chegaragacha etkazib keltirishga qilinadigan tulik valyuta xarajatlariga nisbatidir;
- B) Import qilingan tovarlarning qiymat baxosini ko'rsatuvchi sonni eksport kiligan tovarlarni ishlab chiqarishga va tashishga sarflangan barcha xarajatalarni bildiradigan songa bo'lishdan chiqqan bulinma;
- D) Tashqi bozorda tovarlarni sotishdan tushgan sof valyuta tushumining mamlakatda ularni ishlab chiqarish va tashishga qilingan xarajatlariga nisbati;
- E) Chet eldan sotib olingan yangi texnologiya yoki ayrim tovarlardan foydalanishdan olingan samarani litsenziya sotib olish uchun qilingan xarajatlarga nisbati
- F) Litsenziya sotib olish uchun ketgan pul mablag'ini korxona foydasiga nisbati

75. Chet eldan sotib olingan yangi texnologiya yoki ayrim tovarlardan foydalanishdan olinadigan samarani litsenziya sotib olish uchun qilingan xarajatalarga nisbati qanday ko'rsatkich deb nomlanadi?

- A) Importning valyuta samaradorligi ko'rsatkichi;
- B) Tashqi savdo ayirboshlash samaradoligi ko'rsatkichi;
- D) Litsenziya sotib olish samaradoligining ko'rsatkichi;
- E) Eksportning valyuta samaradorligi ko'rsatkichi;
- F) Real eksport samaradorligi ko'rsatkichi.

76. Mamlakatning rezidentlari bilan tashqi dunyo o'rtasidagi muayyan davrdagi barcha savdo va moliyaviy oqimlarni qamrab oladigan statistika hisoboti nima deb ataladi?

- A) Mamlakatning savdo balansi;
- B) Xizmatlar va nosavdo operatsiyalar balansi;
- D) To'lov balansi;
- E) Kapitallar va kreditlar harakati balansi;
- F) Joriy operatsiyalar balansi.

77. Mamlakat to'lov balansiga ta'rif bering?

- A) Mamlakatning boshqa mamlakatlarga ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha kelgan pul bilan shu mamlakatga boshqa mamlakatlar ko'rsatadigan xizmatlar bo'yicha chiqib ketgan pul o'rtasidagi nisbat;
- B) Tovarlar import qilinganida undan chiqib ketadigan mamlaktlar bilan tovarlarni chet elga eksport kilganda ketadigan mablag'lar o'rtasidagi nisbat;

D) Xalqaro kapital va kredit shaklida valyuta mablag'lari kelishi va chiqib ketishining nisbati;

E) Turizm tarmogidan yillik tushumni ko'rsatuvchi statistik xujjat;

F) Mamlakatning rezidentlari bilan tashqi dunyo o'rtasidagi muayyan davrdagi barcha savdo va moliyaviy okimlarni kamrab oladigan statistika hisoboti.

78. Iqtisodiy munosabatlarni tuzilishini aks etishi bo'yicha to'lov balansi necha qismga bulinadi?

A) 2 qismga;

B) 3 qismga;

D) 4 qismga;

E) 5 qismga;

F) 6 qismga.

79. To'lov balansining birinchi bo'limi qanday nom bilan ataladi?

A) Mamlakat oltin va valyuta zahiralaridagi o'zgarishlar;

B) Savdo balansi;

D) Joriy operatsiyalar balansi;

E) Kapital va kreditlar harakati balansi;

F) Nofaktor xizmatlar balansi.

80. Joriy operatsiyalar balansi qanday qismlarga ajratiladi?

A) Savdo balansi hamda xizmatlar va notijorat to'lovlari balansi;

B) Kapital va kreditlar harakati balansi xamda savdo balansi;

D) Tovarlar eksporti va tovarlar importi;

E) Mamlakat oltin va valyuta zahiralaridagi uzgarishlar xamda savdo balansi;

F) Savdo balansi va kapital harakati balansi.

81. Savdo balansiga ta'rif bering?

A) Mamlakatning rezidentlari bilan tashqi dunyo o'rtasidagi muayyan davragi barcha savdo va moliyaviy oqimlarni qamrab oladigan statistika hisoboti;

B) Joriy operatsiyalar balansi va kapitallar harakati balansi jami taqchilligining urnini tuldiruvchi balans;

D) tovar import qilinganida undan chiqib ketadigan mablag'lar bilan tovarlarni chet elga eksport qilinganda keladigan mablag'lar o'rtasidagi nisbat;

E) Mamlakatning boshqa mamlakatlarga ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha kelgan pul bilan shu mamlakatga boshqa mamlakatlar ko'rsatadigan xizmatlar bo'yicha chiqib ketgan pul o'rtasidagi nisbat;

F) Tadbirkorlarning yillik daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi hisobot.

82. Tovar import qilinganida undan chiqib ketadigan mablag'lar bilan tovarlarni chet elga eksport qilganda keladigan mablag'lar o'rtasidagi nisbat to'lov balansining qanday qismi xisoblanadi?

- A) Korxonalarning davlat organlariga topshiradigan yillik balans;
- B) Xizmatlar va notijorat to'lovlar balansi;
- D) Kapitallar va kreditlar harakati balansi;
- E) Mamlakat oltin va valyuta zahiralaridagi uzgarishlar;
- F) Savdo balansi.

83. Xizmatlar va notijorat operatsiyalar balansi deganda nimani tushunasiz?

- A) Xalqaro kapital va kredit shaklida valyuta mablag'lari kelishi va chiqib ketishining nisbati;
- B) Joriy operatsiyalar balansi va kapitallar harakati balansi jami taqchilligining urnini tuldiruvchi balans;
- D) Tovarlar import qilinganda undan chiqib ketadigan mablag'lar bilan tovarlarni chet elga eksport qilganda keladigan mablag'lar o'rtasidagi nisbat;
- E) Mamlakatning boshqa mamlakatlarga ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha kelgan pul bilan shu mamlakatga boshqa mamlakatlar ko'rsatadigan xizmatlar bo'yicha chiqib ketgan pul o'rtasidagi nisbat;
- F) Tadbirkorlarning yillik daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi hisobot.

84. Mamlakatning boshqa mamlakatlarga ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha kelgan pul bilan shu mamlakatga boshqa mamlakatlar ko'rsatadigan xizmatlar bo'yicha chiqib ketgan pul o'rtasidagi nisbat to'lov balansini qanday qismi xisoblanadi?

- A) Savdo balansi;
- B) Xizmatlar va notijorat to'lovlar balansi;
- D) Kapitallar va kreditlar harakati balansi;
- E) Mamlakat oltin va valyuta zahiralaridagi uzgarishlar;
- F) Korxonalarning davlat organlariga topshiradigan yillik balans.

85. Kapitallar va kreditlar balansi deganda nimani tushunasiz?

- A) Joriy operatsiyalar balansi va kapitallar harakati balansi jami taqchilligining urnini tuldiruvchi balans;
- B) Tovarlar import qilinganda undan chiqib ketadigan mablag'lar bilan tovarlarni chet elga eksport qilganda keladigan mablag'lar o'rtasidagi nisbat;
- D) Xalqaro kapital va kredit shaklida valyuta mablag'lari kelishi va chiqib ketishining nisbati;
- E) Mamlakatning boshqa mamlakatlarga ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha kelgan pul bilan shu mamlakatga boshqa mamlakatlar ko'rsatadigan xizmatlar bo'yicha chiqib ketgan pul o'rtasidagi nisbat;

F) Tadbirkorlarning yillik daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi hisobot.

86. Xalqaro kapital va kredit shaklida valyuta mablag'lari kelishi va chiqib ketishning nisbati to'lov balansining qanday kismi xisoblanadi?

- A) Savdo balans;
- B) Xizmatlar va notijorat to'lovlar balans;
- D) Kapitallar va kreditlar harakati balans;
- E) Mamlakat oltin va valyuta zahiralaridagi uzgarishlar;
- F) Nofaktor tovarlar savdo balans.

87. Mamlakat oltin va valyuta zahiralaridagi o'zgarishlar balansiga ta'rif bering?

- A) Joriy operatsiyalar balans va kapitallar harakati balans jami taqchilligining urinishini tushiruvchi balans;
- B) Tovarlarni import qilinganda undan chiqib ketadigan mablag'lar bilan tovarlarni chet elga eksport qilganda keladigan mablag'lar o'rtasidagi nisbat;
- D) Xalqaro kapital va kredit shaklida valyuta mablag'lari kelishi va chiqib ketishning nisbati;
- E) Mamlakatning boshqa mamlakatlarga ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha kelgan pul bilan shu mamlakatga boshqa mamlakatlar ko'rsatadigan xizmatlar;
- F) Tadbirkorlarning yillik daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi hisobot.

88. Joriy operatsiyalar balans va kapitallar harakati balans jami taqchilligining urinishini tushiruvchi balans to'lov balansining qanday qismi deb nomlanadi?

- A) Savdo balans;
- B) Xizmatlar va notijorat to'lovlar balans;
- D) Kapitallar va kreditlar harakati balans;
- E) Mamlakat oltin va valyuta zahiralaridagi uzgarishlar balans;
- F) Mamlakatdagi yuridik shaxslarning o'z faoliyatlari to'g'risidagi choraklik balans.

89. Proteksionizm strategiyasi mazmunini tushuntiring?

- A) Ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilish;
- B) Tashqi savdodagi cheklashlarini mumkin qadar kamaytirish strategiyasi;
- D) Ichki bozorga tovarlarining ayrim turlarini kirib kelishiga yo'l qoymaslik strategiyasi;
- E) Milliy bozor taqchilligini kamaytirish strategiyasi;
- F) Sof eksportni ko'paytirish strategiyasi.

90. Ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilish strategiyasi qanday nomlanadi?

- A) Qisman ajralish

- B) Proteksionizm
- D) Erkin savdo
- E) Taqchil bozorni to'ldirish
- F) Eksportni rivojlantirish

91. Erkin savdo strategiyasi deganda nimani tushunasiz?

- A) Ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilish strategiyasi
- B) Tashqi savdodagi cheklashlarni mumkin qadar kamaytirish strategiyasi
- D) Ichki bozorga tovarlarning ayrim turlarini kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik
- E) Milliy bozor taqchilligini kamaytirish strategiyasi
- F) sof eksportni ko'paytirish strategiyasi

92. Tashqi savdodagi cheklashlarni mumkin qadar kamaytirish strategiyasi qanday nomlanadi?

- A) Qisman ajralish
- B) Proteksionizm
- D) Erkin savdo
- E) Taqchil bozorni to'ldirish
- F) Importni rivojlantirish

93. Taqchil bozorini to'ldirish strategiyasi deganda nimani tushunasiz?

- A) Ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilish strategiyasi
- B) Tashqi savdodagi cheklashlarni mumkin qadar kamaytirish strategiyasi
- D) Ichki bozorga tovarlarning ayrim turlarini kirib kelishga yul kuymaslik strategiyasi
- E) milliy bozor taqchilligi kamaytirish strategiyasi
- E) Sof eksportni ko'paytirish strategiyasi

94. Milliy bozorda taqchillik ro'y berganda, kamyob tovarlarni keltirib, bozorni to'ldirish strategiyasi qanday nomlanadi?

- A) qisman ajralish
- B) proteksionizm
- D) erkin savdo
- E) taqchil bozorni to'ldirish
- F) Eksportni rivojlantirish

95. Boj to'lovi deganda nimani tushunasiz?

- A) Har yili mamlakatga keltirishga ruxsat beriladigan xorijiy mahsulot hajmini mikdor jixatdan cheklab kuyish
- B) Chegaradan o'tish chog'ida mamlakatga sotish uchun olib kelinaetgan xorijda ishlab chikarilgan tovar egasidan davlat xazinasiga olinadigan to'lovdur
- D) Eksportga davlat byudjetidan mablag' ajratib yordam ko'rsatish
- E) Eksport qiluvchi firmaning uz mahsulotini biror xorijiy bozorda uz mamlakati bozoridagiga nisbatan arzon sotishi

F) Importchi korxonaga davlat tomonidan beriladigan import litsenziyalari

96. Tovar egasi boj tulagach qanday nisbiy ustunlikni yo'qotadi?

A) Xorijdan keltirilgan tovar qimmatlashadi va raqobatdoshligini ta'minlaydigan nisbiy afzalligini bir kismini yo'qotadi

B) Xorijdan keltirilgan tovar sifati emonlashadi va raqobatbardoshligini ta'minlaydigan nisbiy afzalligini bir kismini yo'qotadi

D) Xorijdan keltirilgan tovar o'z muddati manzilga etib kelmaydi va bu uchun tovar egasi jarima tulaydi

E) Tovar egasi xaridorga kushimcha xizmatlar ko'rsatish ustunligidan bir kismini yo'qotadi

F) Tovarlarini reeksport kila olmaydi

97. Chegaradan o'tish chog'ida mamlakatga sotish uchun olib kelinaetgan xoiida ishlab chikarilgan tovar egasidan davlat xazinasiga olinadigan to'lov davlat ta'sirining qanday vositasi deb nomlanadi?

A) Import kvotasi

B) Import litsenziyasi

D) Eksport subsidiyasi

E) Boj to'lovi

F) Eksport kvotasi

98. Import kvotasi mazmunini tushuntiring?

A) Har yili mamlakatga keltirishga ruxsat beriladigan xorijiy mahsulot hajmini miqdor jixatdan cheklab kuyish

B) Chegaradan o'tish chog'ida mamlakatga sotish uchun olib kelinaetgan xoriida ishlab chikarilgan tovar egasidan davlat xazinasiga olinadigan to'lov

D) Eksportga davlat byudjetidan mablag' ajratib yordam ko'rsatish

E) Eksport qiluvchi firmaning uz mahsulotini biror xorijiy bozorda uz mamlakati bozoridagiga nisbatan arzon sotish

F) Eksport qilinayotgan tovarlarning YAIMga nisbati

99. Xar yili mamlakatga keltirishga ruxsat beriladigan xorijiy mahsulot hajmini miqdor jixatdan cheklab kuyish davlat ta'sirining qanday vositasi deb nomlanadi?

A) Import litsenziyasi

B) Import kvotasi

D) Eksport subsidiyasi

E) Boj to'lovi

F) Eksport kvotasi

100. Qachon import kvotalari salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin?

A) Davlat eksportchilarning o'zlariga yoki ularning xorijiy mijozlariga kam foyda tulanadigan qarz bersa

B) Davlat demping eksportiga byudjetdan malag ajratib yordam ko'rsatsa

D) Import kvotasi monopoliyani kuzgatsa va import litsenziyalari samarali joylashtirilmasa

E) Import kvotasi belgilangan tovarlarga nisbatan to'g'ri belgilanmasa

F) Davlat tomonidan eksport kreditlari kam miqdorda belgilangan bulsa

101. Demping tushunchasiga izoh bering?

A) Davlat eksportchilarning o'zlariga yoki ularning xorijiy mijozlariga kam foyda tulanadigan qarz berish

B) Eksport qiluvchi firmaning uz mahsulotini biror xorijiy bozorda uz mamlakati bozoridagiga nisbatan arzon sotishi

D) Har yili mamlakatga keltirishga ruxsat beriladigan xorijiy mahsulot hajmini miqdor jixatdan cheklab kuyish

E) Chegaradan o'tish chog'ida mamlakatga sotish uchun olib kelinadigan xorijda ishlab chikarilgan tovar egasidan davlat xazinasiga olinadigan to'lov

F) Mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarning ruyxatga olinishi

102. Eksport qiluvchi firmaning o'z mahsulotini biror xorijiy bozorda o'z mamlakati bozoridagiga nisbatan arzon sotishini qanday iqtisodiy termin bilan nomlanadi?

A) Import kvotasi

B) Bojxona boji

D) Import litsenziyasi

E) Demping

F) Eksport kvotasi

103. Eksport subsidiyasi deganda nimani tushunasiz?

A) Eksportni davlat budjeti xisobidan ragdatlantirish usullaridan biri bulib, eksportchi ayrim xarajatlari byudjet mablag'lari xisobidan koplanadi yoki qaytarilmaydigan kredit hisoblanadi

B) Eksportni davlat tomonidan tartibga solish usuli bulib, ma'lum bir tovarlarni chetga chiqarishni cheklaydi

D) Eksportni davlat tomonidan boshqarish usuli bulib, barcha tovarlar eksportini davlat tomonidan boshqarish usuli bulib, barcha tovarlar eksportini davlat organlari o'zlari amalga oshiradilar

E) Eksportning importdan oshgan kismi

F) Eksport qilingan tovar va xizmatlarning YAIMga nisbati

104. Proteksionizmning salbiy oqibatlari deganda nimani tushanasiz?

A) Mahalliy tadbirkorlar qaddini rostlaetgan paytda xujalikning yangi shakllariga omon kolib, kuch tuplash imkonini beradi

B) Xalqaro mehnat taksimoti ustunlikdan foydalanilmaydi, jaxon yangiliklaridan xabarsiz kolinadi

D) Eksportning kuchayishi natijasida mamlakat resurslari chetga chiqib ketishi mumkin

E) Importning kuchayishi natijasida mamlakat oltin va valyuta resurslari chiqib ketishi mumkin

F) Sof eksportning oshishi orkali iktisodiyotning taraqqiy qilishi

105. Proteksionizmning ijobiy jixatlarini ko'rsating?

A) Mahalliy tadbirkorlar qaddini rostlaetgan paytda xujalikning yangi shakllariga omon kolib, kuch tuplash imkonini beradi

B) Xalqaro mehnat taksimoti ustunliklaridan foydalanilmaydi, jaxon yangiliklaridan xabarsiz kolinadi

D) Eksportning kuchayishi natijasida mamlakat resurslari chetga chiqib ketishi mumkin

E) Importning kuchayishi natijasida mamalkat oltin va valyuta resurslari chetga chiqib ketishi mumkin

F) Importning kuchayishi oqibatida tadbirkorlar kerakli xom-ashyoga ega buladilar

106. Rivojlanaetgan mamlakatlarda investitsiya muhitini yaratishda qanday imtiyozlarga e'tibor beradilar?

A) hukumat grantlari

B) subsidiyalanadigan qarzlariga

D) moliyaviy (fiskal, xazina byudjetni to'ldirish) imtiyozlariga

E) qarzlarni kafolatlash

F) imtiyozli kreditlarga

107. Rivojlangan mamlakatlarda investitsiya muhiti yaratishda qanday moliyaviy imtiyozlarga e'tibor beradilar?

A) Fiskal imtiyozlarga

B) Xazina byudjetni to'ldirish imtiyozlariga

D) Hukumat grantlariga

E) Hukumat grantlari, subsidiyalangan qarzlar, qarzlarni kafolatlash imtiyozlariga

F) imtiyozli kreditlarga

108. Agar O'zbekistonda kabul qilingan konun investor faoliyatiga salbiy ta'sir kilsa, uzogi bilan necha yilgacha kullanilishi mumkin?

A) 2 yilgacha

B) 3 yilgacha

D) 5 yilgacha

E) 10 yilgacha

F) 15 yilgacha

109. Sof eksport deganda nimani tushunasiz?

A) Eksportning importdan oshgan kismi

B) Eksportning YAMMdagi ulushi

D) Imporning YAMMdagi ulushi

E) Eksportning mikdor jixatdan cheklangan (belgilangan) miqdori

F) Importning eksportdan oshgan kismi

110. Xalqaro qo'shma korxonalar mazmunini tushuntiring?

A) Qo'shma korxonalarining bir turi, ta'sisчилari yoki muassislari ikki yoki undan ortiq davlatlarda ruyxatga olingan buladi

B) Qo'shma korxonalarining bir turi, uning sheriklari yoki muassislari birta davlatda ruyxatga olingan buladi

D) Qo'shma korxonalarining bir turi, qo'shma korxonaning faoliyat yunalishini hukumat belgilaydi

E) Qo'shma korxonalarining bir turi, uning ustav sarmoyasidagi ulushni hukumat belgilab beradi

F) Barcha javoblar to'g'ri

111. Iqtisodiy integratsiya mazmunini tushuntiring?

A) Ikki yoki undan ortiq mamlakatlarning savdo va boshqa ayrim iqtisodiy munosabatlar yuzasidan birikishi

B) Ikki yoki undan ortiq mamlakatlarning investitsiya kuyish borasida olib boradigan muzokaralari

D) Ikki yoki undan ortiq mamlakatlarning milliy xujaliklarining yagona xujalik mexanizmini yaratish yulida uzaro birikib va yakinlashib ketishi

E) Ikki yoki undan ortiq mamlakatlarning xarbiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy soxalardagi muamolarni xal qilish bo'yicha tuzadigan bitimlari

F) 2- va 4- javob to'g'ri

112. Valyuta bozori deganda qanday bozorni tushunasiz?

A) Chet el valyutasiga talabning uning taklifi bilan uzaro ta'sirlashish tizimi

B) Ishlab chiqarish vositalariga talabning uning taklifi bilan muvofiqligi tizimi

D) Pul birligi kursining boshqa mamlakatlarning valyutalariga nisbatan kutarilishi

E) Bir mamlakatning pul birligini boshqa mamlakatning pul birliklarida ifodalanigan narxi

F) 1- va 2- javoblar to'g'ri

113. Valyuta kursi deganda nimani tushunasiz?

A) Chet el valyutasiga talabning uning taklifi bilan uzaro ta'sirlashish tizimi

B) Ishlab chiqarish vositalariga talabning uning taklifi bilan muvofiqligi tizimi

D) Pul birligi kursining boshqa mamlakatning valyutalariga nisbatan kutarilishi

E) Bir mamlakatning pul birligini boshqa mamlakatning pul birliklari ifodalangan narxi

F) 2- va 4- javoblar to'g'ri

114. Tashqi iqtisodiy alokalarni erkinlashtirish deganda nimani tushunasiz?

- A) Bojxona bojlari stavkalarini kamaytirish
- B) Import kvotalarini imkon qadar miqdor jixatdan pasaytirish
- D) Tovarlar va xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchini milliy va jaxon bozorlari o'rtasidagi harakatlanishi uchun tushiklarini olib tashlash
- E) Tovarlar eksporti uchun davlat xazinasidan mablag' bilan ko'maklashish
- F) Chet el valyutasining taklifi uzgarmaydi

115. Reeksport nima?

- A) Chetga eksport qilingan tovarlarning kayta sotib olinishi
- B) Chetga sotilayotgan tovarlarga kushimcha xizmat ko'rsatish
- D) Chetdan olib kirilgan tovarlarni kayta xorijga sotish
- E) Chetdan sotib olinayotgan tovarlarni tashish
- F) Tovarlar eksporti va importida sug'urta xizmati ko'rsatish

116. Agar tomonlar o'rtasida kelishuv bo'lmasa, oldi sotdi shartnomasi bo'yicha nizolar qaysi mamlakat huquqlari bo'yicha hal qilinadi?

- A) Xaridor joylashgan mamlakat
- B) Sotuvchi joylashgan mamlakat
- D) Xaridor va sotuvchi joylashgan mamlakat
- E) BMTning qoidalari asosida
- F) Jahon Savdo Tashkiloti qoidalari asosida

117. Agar tomonlar o'rtasida kelishuv bo'lmasa, tashish shartnomasi bo'yicha nizolarda qaysi mamlakat huquqlari qo'llaniladi?

- A) Tashuvchi joylashmagan mamlakat
- B) Tashuvchi joylashgan mamlakat
- D) Xaridor joylashgan mamlakat
- E) Sotuvchi joylashmagan mamlakat
- F) Jahon Savdo Tashkiloti qoidalari

118. Shartnomalarda ko'rsatiladigan fors-major holatlari qanday hodisa hisoblanadi?

- A) Tabiiy ofatlar (yong'inlar, suv toshqinlari, zilzilalar), turli siyosiy va savdo siyosiy vaziyatlar (urush, eksport va importni man etish).
- B) Tabiiy ofatlar (yong'inlar, suv toshqinlari, zilzilalar), hamkorning shartnoma shartini bajarmasligi
- D) Tabiiy ofatlar, siyosiy vaziyatlar, tovarni o'rash joylash ishlarini hamkorning bajarmasligi
- E) Tabiiy ofatlar (yong'inlar, suv toshqinlari, zilzilalar), turli siyosiy vaziyatlar, 2-tomonning to'lovni amalga oshirmasligi
- F) Tabiiy ofatlar, mahsulot ishlab chiqarishga texnika texnologiya darajasining pastligi

119. Tashqi iqtisodiy faoliyatda xavf-xatarlar deyilganda nimani tushunasiz?

- A) Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlariga zarar, mulkiy ziyon etkazishi mumkin bo'lgan hodisalar
- B) Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan sug'urta qilingan faoliyat
- D) Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining offset bitimlari bo'yicha bajaradigan faoliyatlari
- E) Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlariga yuqori foyda keltiradigan faoliyatlar
- F) Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z mijozlariga mahsulotni sotish bilan bog'liq ko'rsatadigan qo'shimcha xizmatlari

120. Qo'shma korxonalarni boshqarishning necha modeli mavjud?

- A) 6
- B) 2
- D) 3
- E) 4
- F) 5

121. Qo'shma korxonalarni boshqaruvidagi "Hamkorlikdagi boshqaruv" modeli mazmunini tushuntiring.

- A) Ta'sischi birgalikda strategik vazifalarni belgilab, faqat bir tomon operativ boshqaruvni bajaradi.
- B) Ta'sischi birgalikda strategik vazifalarni belgilab operativ boshqaruv funktsiyalarini taqsimlab oladilar.
- D) Ta'sischi birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda teng faoliyat ko'rsatadilar.
- E) Ta'sischi birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda qatnashmaydilar.
- F) Barcha javoblar to'g'ri.

122. Qo'shma korxonalarni boshqaruvidagi "Funktsional taqsimot" modeli mazmunini tushuntiring.

- A) Ta'sischi birgalikda strategik vazifalarni belgilab, faqat bir tomon operativ boshqaruvni bajaradi.
- B) Ta'sischi birgalikda strategik vazifalarni belgilab operativ boshqaruv funktsiyalarini taqsimlab oladilar.
- D) Ta'sischi birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda teng faoliyat ko'rsatadilar.
- E) Ta'sischi birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda qatnashmaydilar.
- F) Barcha javoblar to'g'ri.

123. Qo'shma korxonalarni boshqaruvidagi "To'liq konsensus" modeli mazmunini tushuntiring.

- A) Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab, faqat bir tomon operativ boshqaruvni bajaradi.
- B) Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab operativ boshqaruv funktsiyalarini taqsimlab oladilar.
- D) Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda teng faoliyat ko'rsatadilar.
- E) Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda qatnashmaydilar.
- F) Barcha javoblar to'g'ri.

124. Qo'shma korxonalarni boshqaruvidagi "Avtonomiya" modeli mazmunini tushuntiring.

- A) Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab, faqat bir tomon operativ boshqaruvni bajaradi.
- B) Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab operativ boshqaruv funktsiyalarini taqsimlab oladilar.
- D) Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda teng faoliyat ko'rsatadilar.
- E) Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda qatnashmaydilar.
- F) Barcha javoblar to'g'ri.

125. Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab, faqat bir tomon operativ boshqaruvni bajarishi qo'shma korxonalarni boshqarishning qanday modeli hisoblanadi?

- A) Hamkorlikdagi boshqaruv
- B) Funktsional taqsimot
- D) To'liq konsensus
- E) Avtonomiya
- F) Barcha javoblar to'g'ri

126. Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab operativ boshqaruv funktsiyalarini taqsimlab olishlari qo'shma korxonalarni boshqarishning qanday modeli hisoblanadi?

- A) Hamkorlikdagi boshqaruv
- B) Funktsional taqsimot
- D) To'liq konsensus
- E) Avtonomiya
- F) Barcha javoblar to'g'ri

127. Ta'sislar birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda teng faoliyat ko'rsatishlari qo'shma korxonalarni boshqarishning qanday modeli hisoblanadi?

- A) Hamkorlikdagi boshqaruv
- B) Funktsional taqsimot

D) To'liq konsensus

E) Avtonomiya

F) Barcha javoblar to'g'ri

128. Ta'sischiilar birgalikda strategik vazifalarni belgilab, operativ boshqaruvda qatnashmasliklari qo'shma korxonalarni boshqarishning qanday modeli hisoblanadi?

A) Hamkorlikdagi boshqaruv

B) Funktsional taqsimot

D) To'liq konsensus

E) Avtonomiya

F) Barcha javoblar to'g'ri

129. Korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, tashqi xavf xatarlarni kamaytirish uchun qanday chora tadbirlar amalga oshiriladi?

A) Korxona moliyaviy ishlab chiqarish faoliyatida kuchli nazorat o'rnatiladi, mol mulkka nazorat kuchaytiriladi.

B) Sug'urta, birjadagi qulay bitim turlari va hisob kitob qulay shakllarini tanlash, bozor kon'yukturasini tahlil qilish va bashoratlash, boshqa tadbirlar.

D) Ishchilarni moddiy rag'batlantirish, ishonchli hamkor tanlash.

E) Mahsulot hajm bo'yicha miqdorini ishlab chiqarish uchun operativ kalendar reja ishlab chiqish.

F) Barcha javoblar to'g'ri.

130. Investitsiya faoliyatida sug'urtalashning qanday turlari bor?

A) Tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash, chet el sarmoyasini sug'urtalash.

B) Bozordagi kon'yukturani sug'urtalash, tovar sifatini sug'urtalash.

D) Mol mulkni sug'urtalash, mas'uliyatni sug'urtalash, shaxsiy sug'urta.

E) Tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urtalash, hisob kitobni sug'urtalash.

F) Eksport, importni sug'urtalash, investitsiyani sug'urtalash.